

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI
AL-XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

Qo`lyozma huquqida

UDK 851.730 (092)

QODIROVA XURSHIDA MARSELOVNA

“Firdavs ul-iqbol” leksikasida tashqi manba

Mutaxassislik: 5A 120102 – Lingvistika (o`zbek tili)

Lingvistika (o`zbek tili) magistr akademik darajasini olish uchun

Ilmiy rahbar: f.f.n.

A.O`rozbayev

URGANCH-2013

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3-14
I BOB. OGAHIY TARIXIY ASARLARIDAGI TASHQI MANBA SO`ZLARINING TEMATIK GURUHLARI	15-36
I.1. Harbiy ish terminlari tizimi	15-27
I.2. Davlat boshqaruvi terminlari	27-33
I.3. Mavhum ma`nolarni ifodalovchi leksik birliklar	33-36
II BOB. “FIRDAVS UL-IQBOL” ASARIDAGI IJTIMOIIY-SIYOSIY LEKSIKA	37-53
II.1. “Firdavs ul-iqbol” asaridagi diniy terminlar	37-43
II.2. Ilm-fan, san`at terminlari tizimi	43-44
II.3. “Firdavs ul-iqbol” asarida maishiy leksika	44-45
II.4. Savdo-moliya terminlari	45-47
II.5. Diplomatiya terminlari tizimi	48-53
III BOB. ASARDAGI TASHQI MANBA SO`ZLARINING SHAKL VA MA`NO MUNOSABATIGA KO`RA TURLARI	54-79
III.1. Asarda antonimlarning o`rni	54-58
III.2. Asarda omonim so`zlarning tutgan o`rni	58-73
III.3. Asarda sinonimlar	73-79
UMUMIY XULOSALAR	80-81
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Xalqimiz hayotida mustaqillik tufayli o'zgarishlar yuzaga keldi: ilm-fan va milliy ma'naviyatimiz rivojda katta yutuqlarga erishildi. Mustaqillik mafkurasi va milliy g'oya kishilar ongiga tobora ko'proq singib borayotgani bois ularda o'zlikni anglash, komillikka intilish, milliy qadriyatlar mohiyatini teran idrok etish xislatlari kuchayib bormoqda.

Yurtboshimiz ta'kidlanidek, "Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor, buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak".¹

Ma'lumki mustaqillik yillarida o'zbek tilshunosligida ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Prezidentimiz I.A.Karimov ham o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida shunday ta'kidlaydilar: "...o'tgan davr mobaynida davlat tilining hayotimizdagi o'rni va ta'sirini kuchaytirish, uni tom ma'noda milliy qadriyatga aylantirish yo'lida ilgari tasavvur ham qilib bo'lmaydigan ulkan ishlar amalga oshirildi. Istiqlol yillarida o'zbek tilining qo'llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlanishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi lug'atlar ko'plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmoqda"².

Prezidentimiz I.A.Karimov Xiva shahrining 2500 yillik to'yida so'zlagan nutqida: "...Xorazm - noyob madaniyat, nafis san'at, yuksak ma'rifat, turmushning dono falsafasi va insonparvarlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan adabiyot va she'riyat maskani, dunyoviy ilm o'choqlaridan biri..."³, - deya e'tirof etgan.

Mustaqillik arafasidagi tarixiy jarayonni ko'z oldimizga keltirar ekanmiz, 1989-yil 21-oktyabrda qabul qilingan "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun

¹ Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. "Ma'naviyat", 2009. - bet.

² I.A.Karimov. «Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch». Toshkent. 2008.

³ Хива минг гумбаз шахри. Тошкент: Шарқ..1997.

istiqlolning ma'naviy poydevori bo'ldi, deb bemalol aytishimiz mumkin. Ushbu Qonun millatning tarixiy xotirasini uyg'otishda muhim tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. "Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda⁴" deydi yurtboshimiz. Mustaqillikni qo'lga kiritish millatning har bir vakilidan beqiyos xizmatlar talab qilsa, uni mustahkamlash ham shu qadar mas'uliyatlidir. Mustaqil O'zbekistonimiz zamini, shu zaminning bir qismi bo'lgan qadimiy Xorazm vohasi jahon sivilizatsiyasiga muhim hissa qo'shgan yuzlab daholar beshigini tebratgan. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, Xorazm va Xiva zaminida yashagan Pahlavon Mahmud, Sulton Uvays, Nosiriddin Rabg'uziy, Sulaymon Boqirg'oniy, Bahouddin Valad va uning buyuk farzandi Jaloliddin Rumiy, Abul Qosim al-Xorazmiy, Ismoil Jurjoniy, Sirojiddin Sakkokiy, Munis, Ogahiy, Bayoniy, Safo Mug'anniy, Chokar, Sheroziy, Hojixon, Bola baxshi kabi o'nlab va yuzlab allomalar, shoir va san'atkorlar nomini biz bugungi avlod vakillari cheksiz ehtirom bilan tilga olamiz va boshimizga ko'taramiz⁵.

O'zbek millati dunyoning barcha xalqlariga ham nasib etavermagan katta ma'naviy merosga ega. "Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi tosh yozuvlar, bitiklardan tortib bugun kutubxonalarimiz xazinalarida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir"⁶. Ana shunday tunganmas beqiyos ma'naviy xazinaning bir qismini o'tmish voqeligini real yoritib berishda madxal vazifasini o'tagan tarixiy asarlar tashkil qiladi.

Yurtboshimiz I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" kitobida shunday fikrlar keltiriladi: "Agarki mendan, hozirgi kunda

⁴ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent: Sharq, 1998. – B. 3.

⁵ Karimov I. Xiva shahrining 2500 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi // Xalq so'zi, 1997- yil 21- oktabr soni.

⁶ Karimov I. Xiva shahrining 2500 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi // Xalq so'zi, 1997- yil 21- oktyabr soni.

ma`naviyatimizni asrash uchun nima qilish lozim va unga tahdid soladigan xurujlarga nimani qarshi qo`yish kerak, deb so`rsa, men, avvalambor, shu yurtida yashayotgan har qaysi inson o`zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug` ajdodlarimizning merosini chuqurroq o`zlashtirishi, bugungi tez o`zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyorimizdagi barcha o`zgarishlarga daxldorlik tuyg`usi bilan yashash zarur, deb javob bergan bo`lardim”.

O`zbek adabiy tilida bitilgan adabiy manbalar son jihatdan bir necha o`n mingdan ortiqligi tilimizning qardosh turkiy tillar ichida yuqori o`rinda turishi turkolog olimlar tomonidan e`tirof etilgan. Bu ijodi namunalari nafaqat O`zbekistondagi, balki Hindiston, Afg`oniston, Turkiya, Buyuk Britaniya, AQSh, Germaniya, Fransiya va MDH mamlakatlari fondida saqlanib kelmoqda.

O`zbek adabiyotining rivojlanishiga o`z asarlari bilan katta ulush qo`shgan Ogahiy qator tarixiy va tarjima asarlari orqali Alisher Navoiydan keyingi yirik adib sifatida tan olingan.

Muhammad Rizo Erniyozbek o`g`li Ogahiy qalamiga mansub nazmiy va nasriy asarlarning ma`lum qismi kirill alifbosiga o`girilib, keng kitobxonlar ommasiga etkazib berildi. Ularning o`ziga xos tomonlari adabiyotshunoslik, matnshunoslik, manbashunoslik, qisman, tilshunoslik aspektlarida tahlil etilgan. Ayni chog`da, taassuf bilan ta`kidlash joizki, Ogahiy asarlari til xususiyatlarini mavjud qo`lyozmalar asosida atroflicha o`rganish, hozircha, o`zbek tilshunosligida o`zining talab darajasiga ko`tarilgan emas. Shu jihatdan Ogahiy tarixiy asarlari (“Firdavs ul-iqbol”, “Riyozud-davla”, “Zubdatut-tavorix”, “Jomeul-voqeoti sultoniyy”, “Gulshani davlat”, “Shohidul-iqbol”) til xususiyatlarini keng qamrovda tadqiq etish o`zbek tilshunosligining dolzarb masalalaridan sanaladi. Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asarining til xususiyatlari, asosan, undagi tashqi manba so`zlarining tematik guruhlari, tashqi manba so`zlarining ijtimoiy-siyosiy leksikasi, ayrim so`zlarning shakl va ma`no munosabatiga ko`ra turlarining ilk marotaba tadqiq qilinayotgani mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

**Мавзунинг о`рганлиш даражаси.** Ogahiy asarlari tili tadqiqiga doir ishlar salmog`i uncha katta emas. Ogahiy ijodini adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o`rganish shoir tavalludining 150 yilligi munosabati bilan boshlandi.

Vatanimiz zamini jahon tsivilizatsiyasiga muhim hissa qo`shgan minglab daholar beshigini tebratgan. Ana shu zaminning bir qismi bo`lgan qadimiy Xorazm vohasida minglab allomalar tug`ilib, yashab ijod qildilar. Prezidentimiz Islom Karimov ta`kidlaganlaridek, Xorazm va Xiva zaminida yashagan Pahlavon Mahmud, Sulton Uvays, Nosiriddin Rabg`uziy, Sulaymon Boqirg`oniy, Bahouddin Valad va uning buyuk farzandi Jaloliddin Rumiy, Abul Qosim al-Xorazmiy, Ismoil Jurjoniy, Sirojiddin Sakkokiy, Munis, Ogahiy, Bayoniy, Safo Mug`anniy, Chokar, SHeroziy, Hojixon, Bola baxshi kabi o`nlab va yuzlab allomalar, shoir va san`atkorlar nomini biz bugungi avlod vakillari cheksiz ehtirom bilan tilga olamiz va boshimizga ko`taramiz⁷.

Muhammad Rizo Ogahiy shaxsi va ijodiga ilk munosabatlarni uning o`z zamondoshlari asarlarida uchramiz<sup>8</sup>. Ogahiy ijodini adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o`rganish shoir tavalludining 150 yilligi munosabati bilan V.Abdullaev⁹, A.Qayumov¹⁰, V.Zohidov¹¹, G`.Karimov, S.Dolimov kabi zabardast o`zbek olimlari boshlab berdilar. Albatta, bu jarayonda rus sharqshunoslarining ham o`ziga xos hissalar bor. Jumladan, V.V.Bartold fikricha, “Munis va Ogahiy tomonidan yaratilgan adabiy va tarixiy asarlarning qanchalik kamchiligi bo`lmasin, tarixiy voqealarni bayon etish va ularda keltirilgan faktik materiallarning ko`pligi jihatidan Qo`qon va Buxoro xonliklariga doir bizgacha etib kelgan hamma asarlarni o`zidan ortda qoldiradi”<sup>12</sup>. Bizningcha, V.V.Bartold Munis va Ogahiy kabi muarrixlar uslubidagi murakkablik, badiiy bo`yoqdorlik ko`pligi kabi

⁷ Каримов И. Хива шахрининг 2500 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги табрик сўзи // Халк сўзи. – Тошкент, 1997 йил. – 21 октябрь.

⁸ Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий // Мерос туркуми. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б.175-265; Девони Мавлоно Комил маътавоҳи шоҳони Хоразм. Лит. Г.Яковлева. – Ташкент, 1327 ҳиж. – Б.26.

⁹ Абдуллаев В. Алишер Навоий аъналарининг хоразмлик шоирлар томонидан давом эттирилишига доир // Шарқ юлдузи. – 1959. – № 4. – Б. 127-137.

¹⁰ Қайумов А. Муҳаммад Ризо Огаҳий // Қизил Ўзбекистон. – Тошкент, 1959. 14 сентябрь.

¹¹ Воҳидов З. Огаҳий // Ўзбек адабиёти тарихидан. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1961.

¹² Бартольд В.В. Сочинения. Том II. Часть I. – М.: Издательство Восточной литературы, 1963. – С.285-286; Каримов Ғ., Долимов С. Огаҳий – тарихчи // Муҳаммад Ризо мироб Эрнийзбек ўғли Огаҳий. Асарлар. VI жилдлик. V жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат наشريёти, 1978. –Б.5. Иктибосдаги таржима Ғ.Каримов ва С.Долимовга тегишли.

jihatlarini “kamchilik” hisoblagan. Holbuki, bu SHarq muarrixlarining o`ziga xos uslublaridan sanaladi.

O`tgan asrning 60-yillarida “Ta`viz ul-oshiqin” devonining nashr qilinishini ogahiyshunoslikda jiddiy siljish sifatida baholash mumkin¹³. Ogahiyshunoslik rivojida R.Majidiyning¹⁴ xizmatlarini alohida ta`kidlash lozim. R.Majidiy Ogahiy lirikasini ilmiy tahlil qilar ekan, Xorazm adabiy muhiti va undagi adabiy ta`sir masalalariga ham alohida e`tibor qaratdi. Ogahiyshunoslikning bugungi darajadagi rivojida S.Dolimov olib borgan ilmiy tadqiqotlar<sup>15</sup>ning ahamiyati katta. Ogahiy asarlarining qo`lyozmalarini o`rganishda F.G`anixo`jaev tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarni alohida e`tirof etish kerak. SHu bilan birga F.G`anixo`jaev Ogahiy asarlarini rus tiliga tarjima qilishda ham faollik ko`rsatdi. Olim 1998 yilda “Ogahiyning “Ta`viz-ul-oshiqin” devoni va uning ilmiy-tanqidiy matni” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini adabiy manbashunoslik va matnshunoslik yo`nalishida himoya qildi<sup>16</sup>. Bundan tashqari F.G`anixo`jaev o`zining “Ogahiy Xorazmiyning forsiy she`rlariga bir nazar” maqolasi bilan Ogahiyning forsiy merosiga jahon eronshunoslari e`tiborini tortishiga ham hissa qo`shdi<sup>17</sup>. Ogahiyning hayoti va ijodiga oid monografik tadqiqotlar Q.Sultonova, A.Primqulov<sup>18</sup>, M.Matyqubova<sup>19</sup>, G.Xollieva<sup>20</sup>, T.Matyqubova<sup>21</sup> tomonidan amalga oshirildi. SHuningdek, Ogahiy forsiy merosining bir qismi A.Ahmedov tomonidan o`rganilgan²² bo`lsa, ularning aksari shoir M.Abdulhakim tomonidan badiiy tarjima qilindi<sup>23</sup>. Ogahiy asarlarining G`.Karimov, S.Dolimov, Xurshid va

¹³ Огаҳий. Таъвиз ул-ошиқин / Нашрга тайёрловчи Хуршид. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1960.

¹⁴ Маҷидий Р. Огаҳий лирикаси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1961.

¹⁵ Долимов С. Огаҳийнинг ҳаёти ва ижоди: Филол. фанлари. номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1963; Маърифат фидойиси. (Субутой Долимов таваллудининг 100 йиллиги муносабати билан) – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – 221 б.

¹⁶ Ғанихўжаев Ф. “Таъвиз-ул-ошиқин” девони ва унинг илмий-танқидий матни: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998; Шу муаллиф. Огаҳий асарлари тавсифи. – Тошкент: Фан, 1986. – 125 б.

¹⁷ نگاهی به اشعار فارسی آگاهی خوارزمی. مجله ایران شناخت. نامه انجمن ایران شناسان کشورهای مشترک المنافع و قفقاز. شماره نهم. 1379. تهران.

¹⁸ Пиримкулов А. Огаҳий маснавийлари: Филол. фанлари. номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998 – 25 б.

¹⁹ Матёқубова М. Огаҳий лирикасида кичик жанрлар: Филол. фанлари. номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 23 б.

²⁰ Холлиева Г. Огаҳий мусамматлари: Филол. фанлари. номзоди ... дисс. – Тошкент, 2000. – 23 б.

²¹ Матёқубова Т. Образ ва талкин (Огаҳий шеъриятида аънавий образлар мисолида). – Тошкент, 2002.

²² Аҳмедов А. Муҳаммад Ризо Огаҳийнинг форсий мероси // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1985. – №1. – Б. 46-51.

²³ Огаҳий. Ой кетди, офтоб келди. Форсийдан М.Абдулҳаким таржимаси. – Хива: Хоразм Маъмун академияси нашриёти, 2002. – 42 б.

keyinchalik A.Abduq`afurov rahbarligida nashr qilinishi madaniy hayotimizda katta voqea bo`ldi²⁴. Ogahiy tavalludining 190 yilligi munosabati bilan “Ogahiy abadiyati” nomli maqola va esselar to`plamining hamda “Atoqli shoir, tarixnavis va tarjimon” kitobining nashr qilinishi ogahiyshunoslikda muhim voqealardan biri bo`ldi²⁵.

O`zbek tarjimashunosligida Ogahiyning tarjimonlik mahoratiga bog`liq monografik tadqiqotlar amalga oshirilgan²⁶. Ogahiyning tarixiy asarlaridan V.V.Bartold, P.P.Ivanov, YA.G`.G`ulomov, M.Yo`ldoshevlar o`z tadqiqotlarida unumli foydalanganlar²⁷. Q.Munirov XIX asr va XX asr boshlaridagi Xiva xonligidagi tarixnavislik masalasini tadqiq qilish bilan birga Ogahiyning hayoti va ijodiga oid maxsus risola ham yozgan²⁸. Ogahiy ijodining M.Safarboev tomonidan falsafiy nuqtai nazardan tadqiq qilinishi buyuk mutafakkirning ijtimoiy-siyosiy va estetik qarashlarini o`rganishda muhim bosqich bo`ldi²⁹.

Lekin Ogahiy asarlarini lingvistik jihatdan o`rganish hanuzgacha dolzarb muammoligicha turibdi. Ogahiy asarlari til xususiyatlariga bag`ishlangan ilk maqola S.Dolimov tomonidan e`lon qilingan<sup>30</sup>. Ushbu maqolada olim Ogahiyning omonim va sinonim so`zlardan foydalanishdagi poetik mahoratini ochib beradi. U.Tursunov va N.Rajabovlar ta`kidlaganidek, “ushbu ish sof amaliy xarakterga

²⁴ Мухаммад Ризо Мироб Эрнийезбек ўгли Огаҳий. Асарлар. 1-6-жилдлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971–1980; Огаҳий. Таъвиз-ул-ошиқин. –Тошкент: ЎзФАН, 1960; Огаҳий. Ишқ аҳлининг тумори. Танланган асарлар. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1999.

²⁵ Огаҳий абадиёти. Ал-Хоразмий номидаги Урганч давлат университети, Хоразм Маъмун академияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – 152 б.; Атоқли шоир, тарихнавис ва таржимон. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999.

²⁶ Комилов Н. Шоир ва таржимон Мухаммад Ризо Огаҳийнинг бадиий маҳорати: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 1970; Шу муаллиф. Бу қадимий санъат... – Тошкент: Ғ.Хулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988; Раҳмонов В. Саъдий Шерозий “Гулистон”ининг ўзбекча таржималари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Самарқанд, 1968.

²⁷ Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана // Сочинения. – Т. II. – М., 1963; Его же. Культура мусульманства // Сочинения. Т. IV. – М., 1966; Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии. (XVI середина XIX в.) – М., 1958; Его же. Архив хивинских ханов XIX в. – Л., 1940; Его же. Материалы к изучению истории Каракалпаков // Каракалпакия. Т. II. –Л., 1934; Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. – Ташкент: Уздавнашр, 1957; Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер эгаллиги ва давлат бошқаруви. – Тошкент: Ўздавнашр, 1959.

²⁸ Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийларнинг тарихий асарлари. – Тошкент: Ўз ФАН, 1960.; Шу муаллиф. Хоразмда тарихнавислик (XVII – XIX ва XX аср бошлари). – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2005.

²⁹ Сафарбаев М. Общественно-политические и эстетические воззрения Агахи: Автореф. дис. ... канд. филос. наук. – Ташкент, 1993. – 25 с.

³⁰ Долимов С. Огаҳий поэзиясида омоним ва синоним сўзлар // Ўқитувчилар газетаси. 1957. – № 51.

ega”³¹. Z.Do`simovning “Ogahiyning “Zubdatut-tavorix” asarining leksik-grammatik xususiyatlari haqida” maqolasida esa mazkur asarning lisoniy o`ziga xosliklari ko`rsatib berilgan<sup>32</sup>. Olim “Zubdat ut-tavorix”, umuman, Ogahiyning barcha tarixiy asarlariga xos bo`lgan leksik va sintaktik xususiyatlar haqida mulohaza yuritir ekan, jumladan, ularda forsiy izofa va izofiy zanjirning keng qo`llanganligi, murakkab sintaktik qurilmalarda fors tili sintaktik qurilishining ta`siri katta ekanligini misollar orqali ko`rsatib beradi. Bu fikrlarga qo`shilgan holda, X.Nazarovanning XV asr oxiri XVI asr boshlari nasriy asarlari tili sintaksisi borasida bildirgan ko`pgina fikrlarini<sup>33</sup> Ogahiy tarixiy asarlari sintaksisiga ham tatbiq etish mumkin, deb hisoblaymiz. XVII-XIX asrlar eski o`zbek tili morfologik xususiyatlarini tekshirgan A.Matg`oziev ko`plab ob`ektlar qatori Munis va Ogahiy qalamiga mansub “Firdavs ul-iqbol”, Ogahiyning “Zubdat ut-tavorix”, “Gulshani davlat”, “SHohid ul-iqbol” kabi asarlarini mavjud qo`lyozmalaridan foydalangan holda tahlilga tortgan³⁴. H.Dadaboev o`zbek tili tarixiy harbiy terminlarini tadqiqi asnosida Ogahiy tarixiy asarlariga ko`plab murojaat qilgan va *tatovul*, *qaroqchilamoq*, *chapovulchilamoq*, *nikomish*, *arg`ishchi* kabi so`zlarning faqat Ogahiy tarixiy asarlarida uchrashini ta`kidlaydi<sup>35</sup>. Olimning “Ogahiy tarixiy asarlaridagi ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimi xususida” nomli maqolasida bayon qilingan nazariy fikr va amaliy takliflar shoir, muarrix va tarjimon ijodkor tili leksikasini o`rganishda muhimdir. Jumladan, olim Ogahiy tarixiy asarlari tilidagi ijtimoiy-siyosiy terminlar tarkibida qadimgi turkiy til va eski turkiy til davridan faol qo`llanib kelayotgan asl turkiycha istilohlar o`z ifodasini topgani, bu so`z-terminlar birlamchi ma`nosini deyarli aynan saqlab qolishga erishgani, ayni paytda VII–XIV asrlarda keng ishlatilgan tub turkiycha istilohlarning ma`lum qismi

³¹ Турсунов У., Раджабов Н. Из истории омонимов в узбекском литературном языке // Тюркская лексика и лексикография. – М.: Наука, 1971. – С. 45.

³² Дўсимов З. Огахийнинг “Зубдатут-таворих” асарининг лексик-грамматик хусусиятлари ҳақида // Огахий абадиёти. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – Б. 37-41.

³³ Назарова Х. Особенности синтаксического строя узбекского литературного языка конца XV – начало XVI в. – Ташкент: Фан, 1979. – 160 с.

³⁴ Матгазиев А. Исследование по морфологии староузбекского языка (конец XVII – до семидесятых годов XIX в.): Автореф. дисс ... д-ра филол. наук. – Ташкент; 1979. – 41 с.

³⁵ Дадабоев Х. Военная лексика в староузбекском языке: Автореф. дисс ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1981. – 21 с.; Огахий тили билимдони // Маърифат фидойиси. (Субутой Долимов таваллудининг 100 йиллиги муносабати билан) – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – Б.181-183.

Ogahiy davri o'zbek adabiy tili so'z boyligidan chiqib ketgani, buning sababi esa ko'p sonli o'zlashmalar va yangidan yasalgan leksik birliklarning faollashuvi ekanligini to'g'ri ta'kidlaydi³⁶. Ogahiyning tarixiy asarlari nashriga ilova lug'at tuzgan N.Norqulov xizmatlarini ham shoir, muarrix va tarjimon ijodkor asarlari tilida ijtimoiy-siyosiy leksikani o'rganishga qo'shilgan o'ziga xos hissa sifatida baholash mumkin³⁷. Unda Ogahiy tarixiy asarlarida ishlatilgan 400 ga yaqin so'z izohlangan. YAqinda shoir tavalludining 200 yilligi arafasida Ogahiyning so'nggi asari "SHohid ul-iqbol" nashrdan chiqdi³⁸. Asarga ilova qilingan lug'atda 500 dan ortiq so'zning izohi berilgan. Keyingi yillarda Ogahiy asarlari tilini monografik planda tadqiq qilish boshlandi. Bu esa ogahiyshunoslikning muhim bir yo'nalishi rivojiga yo'l ochib beradi.

Ogahiy tilini leksikologiyadan boshqa sathlar doirasida ham monografik o'rganish bugungi kunda tilshunosligimizning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida Ogahiy asarlari tadqiqiga doir ishlar salmog'i uncha katta emas. Bular S.Dolimov³⁹, Z.Do'simov⁴⁰, H.Dadaboev⁴¹, R.Yo'ldoshev⁴², Z.Hamidov⁴³, A.O'razboev⁴⁴ ishlarida kuzatiladi. Ogahiyning til

³⁶ Дадабоев Х. Огахий тарихий асарларидаги ижтимоий-сиёсий терминлар тизими хусусида // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари (Илмий мақолалар тўплами) – №3. – Тошкент, 2009. – Б. 21-24.

³⁷ Муҳаммад Ризо мироб Эрнӣёзбек ўғли Огахий. Асарлар. VI жилдлик. V жилд. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. –Б.202-210.

³⁸ Муҳаммад Ризо Эрнӣёзбек ўғли Огахий. Шоҳиду-л-икбол. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изохлар муаллифи Н.Шодмонов. – Тошкент: Муҳаррир, 2009. – 335 б.

³⁹ Долимов С. Огахий поэзиясида омоним ва синоним сўзлар // Ўқитувчилар газетаси. 1957. – №51.

⁴⁰ Дўсимов З. Огахийнинг "Зубдатут-таворих" асарининг лексик-грамматик хусусиятлари ҳақида // Огахий абадияти. –Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – Б. 37-41.

⁴¹ Дадабоев Х. Огахий тарихий асарларидаги ижтимоий-сиёсий терминлар тизими хусусида // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари (Илмий мақолалар тўплами) №3. – Тошкент, 2009. – Б. 21-24.

⁴² Йўлдошев Р. Огахий поэзиясида баҳор, Наврўз мавзуси // Филологическое исследование. 8-том. – Ургенч, 2004; Огахий ижодида мироблик билан боғлиқ сўзлар // Филологическое исследование. – Ургенч, 2004; Огахий поэзиясида бирла кўмакчисининг қўлланилиши // Огахий олами. 1-том, – Урганч, 2004; Огахий поэзиясида сингармонизм // Филологик тадқиқотлар. – Урганч, 2004; Огахий поэзиясида соннинг қўлланилиши // Илм сарчашмалари. 4-сон, – Урганч, 2004; Огахий поэзиясида омонимлар // Мунаввар умр. – Урганч, 2005; Огахий поэзиясида антонимлар // Илм сарчашмалари. 1-сон. – Урганч, 2005; Огахий поэзиясида спортга алоқадор сўзлар // Илм сарчашмалари. 2-сон. – Урганч, 2005; Огахий поэзиясида ов мазмун майдони // Илм сарчашмалари. 4-сон, – Урганч, 2005; Огахий сўзнинг қадри ҳақида // Огахий олами. 2-том. – Урганч, 2005; Огахий поэзиясида қўд сўзининг қўлланилиши // Филологические исследования. 11-том, – Ургенч, 2006; Огахий поэзиясида озик-овкат ва ичимликлар билан боғлиқ сўзлар // Илм сарчашмалари. 1-сон. –Урганч, 2006; Огахий поэзиясида кийим-кечак, безаклар ва улар билан боғлиқ сўзлар // Хоразм фольклори. 8-том. –Урганч, 2006; Огахий поэзиясининг туркман тилига муносабати // Филологические исследования. 12-том. –Ургенч, 2006; Огахий поэзиясида зоонимлар // Илм сарчашмалари. 2-сон, – Урганч, 2006; Огахий поэзиясида қариндошлик, яқинликни англатувчи сўзлар // Филологические исследования. 13-том, – Ургенч, 2006; Огахий поэзияси тилининг Жанубий Қорақалпоғистон ўзбек шеваларига муносабати // Филологик тадқиқотлар. – Тошкент, 2006; Огахий поэзиясида вақт мазмун майдони // Тил гулшани. 2-том, – Урганч, 2006; Огахий поэзиясида боғ мазмун

va nutq odobiga oid qarashlarining ayrim qirralari shoirning forsiy merosi yuzasidan tadqiqot olib borgan I.Ismoilov ishlarida ham o'z aksini topgan⁴⁵.

Tilshunosligimizda Ogahiy asarlari tilining o'rganilishini umumlashtirgan R.Yo'ldoshev va A.O'rozboevlarning fikricha, Muhammad Rizo Ogahiy asarlari tili tadqiqi quyidagi yo'nalish va yo'sinlarda bajarilgan va amalga oshirmoqda, deb hisoblash mumkin:

1. Ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar (S.Dolimov, Z.Do'simov, S.R.Ro'zimboev, A.Ahmedov, Z.Hamidov);

2. Tizimli ilmiy maqolalar (H.Dadaboev, R.Yo'ldoshev);

3. Dissertatsiyalar: a) R.Yo'ldoshev tomonidan tayyorlanayotgan Ogahiy poeziyasi lug'aviy qatlamlariga doir doktorlik; b) A.O'rozboevning "Ogahiyning "Riyozi ud-davla" asarida ijtimoiy-siyosiy leksika" mavzusidagi yoqlagan va A.Ataev tomonidan tayyorlanayotgan "Jome'u-l-voqeoti sultoniy" asarida arabcha va forsha so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari" mavzuidagi nomzodlik; v) UrDU o'zbek tilshunosligi kafedrasida magistrantlari N.Qilichev, Q.Eshchonovalar tomonidan yoqlangan va U.Otajonov hamda ushbu satrlar muallifi tomonidan tayyorlangan magistrlik dissertatsiyalari.

4. SHoir asarlarining turli nashrlarga ilova qilingan lug'atlar (N.Norqulov, N.SHodmon, N.Jabborov, N.Jumaxo'ja, I.Bekchonov).

5. Ogahiy adabiy merosi tarjimonlik faoliyatiga doir ishlarda ayrim so'zlarga berilgan izoh va tavsiflar (N.Komilov, V.Rahmonov, I.Ismoilov, M.Qalandarov).

Muhammad Rizo Ogahiy asarlari tilini tizimli tadqiq qilish bugunning talabiga aylandi. Bu borada, eng avvalo, Ogahiy asarlarining mukammal nashrini

микромайдони // Илм сарчашмалари. 4-сон. – Урганч, 2006; Огаҳий поэзиясидаги бинокорликка оид сўзлар // Филологические исследования. XIV том. – Урганч, 2007; Огаҳий поэзиясида қазилма бойликлар билан боғлиқ сўзлар // Мустақиллик йилларида ўлка тарихини янгича ўрганишнинг долзарб муаммолари. –Тошкент, 2007; Огаҳий поэзиясида рангни англатувчи сўзлар // Илм сарчашмалари. 1-сон. – Урганч, 2007; Огаҳий поэзиясида мусикага оид сўзлар // Илм сарчашмалари. 2-сон. – Урганч, 2007; Огаҳий поэзиясида таклидий сўзлар // Филологические исследования. XV том. – Урганч, 2007; Огаҳий поэзиясида ижтимоий-сиёсий тузум ва ҳуқуққа оид сўзлар // Тил гулшани. 3-том. – Урганч, 2007; Огаҳий шеърлари лексикаси бўйича кузатишлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 2-сон, – Тошкент, 2007 ва бошқалар.

⁴³ Ҳамидов З. Огаҳий шеърлари лексикасининг айрим хусусиятлари // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. №4. 2009.

⁴⁴ Ўрабоев А. Огаҳийнинг "Риёзи уд-давла" асарида ижтимоий-сиёсий лексика: Филол. фанл. номз. дисс. автореф. –Тошкент, 2009. – 26 б.

⁴⁵ Исмоилов И. Огаҳийнинг форсий мероси: Филол. фанл. номз. дисс. автореф. –Самарқанд, 2010. – 26 б.

amalga oshirish bilan bir qatorda Ogahiy asarlari lugʻatini tuzish zarur. Ushbu lugʻatni dastlab Alisher Navoiy asarlari lugʻatining 1972 yilgi nashri darajasi va andozasida amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bu borada Z.Doʻsimov tomonidan taklif qilingan ilmiy loyihani qoʻllab-quvvatlash, amalga oshirilgan va bajarilayotgan tadqiqot natijalarini bahamjihatlik bilan umumlatirish zarur, deb hisoblaymiz. Bu katta koʻlamli ish Muhammad Rizo Ogahiy asarlari tilini barcha sathlardagi tadqiq uchun keng yoʻl ochib berishi shubhasiz.

Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asari til xususiyatlari boʻyicha bir qancha maqolalar eʼlon qilingan boʻlsa-da, mazkur tarixiy asardagi tashqi manba soʻzlari hanuzgacha maxsus tadqiq qilinmagan.

Magistrlik dissertatsiyasi ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Urganch davlat universiteti oʻzbek tilshunosligi kafedrasida oʻrganilayotgan «Oʻzbek tilshunosligining dolzarb muammolari» mavzuidagi istiqbolli rejasi tarkibiga kiritilgan. Mavzu Urganch davlat universiteti Filologiya va sanʼat fakulteti Ilmiy kengashining 2011- yil dagi yigʻilishida -raqamli bayonnoma bilan tasdiqlangan.

Tadqiqotning maqsadi. Ishning asosiy maqsadi Shermuhammad Munis va Muhammad Rizo Ogahiylarning “Firdavs ul-iqbol” asaridagi tashqi manba soʻzlarining tematik guruhlari, ijtimoiy-siyosiy leksikasi, ayrim soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari tadqiqini amalga oshirish va umumlashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

-Xorazm tarixchilari asarlari tilining lingvistik jihatdan oʻrganilish darajasini tahlil etish;

- “Firdavs ul-iqbol” asaridagi tashqi manba soʻzlarining tematik guruhlari belgilash;

- Asardagi harbiy ish, davlat boshqaruvi, savdo-moliya, diplomatiya, ilm, fan, diniy, sanʼat, madaniyatga oid atamalar leksikasini lingvistik jihatdan tahlil qilish;

- Tashqi manba soʻzlarining yasash xususiyatlarini eʼtiborga olgan holda tahlil qilish;

- Manbadagi tashqi manba soʻzlarini shakl va maʼno munosabatiga koʻra taqlil qilish;

Ishning tadqiqot obyekti va materiallari. Tadqiqot obyekti sifatida oʻzbek mumtoz adabiyotida shoir, muarrix, tarjimon sifatida yuksak baholangan badiiy meros sohibi Shermuhammad Munis va Muhammad Rizo Ogahiylarning “Firdavs ul-iqbol”⁴⁶ asari tanlandi.

Asarning umumiy hajmi 381 bet. 2010-yil Toshkentda – Oʻqituvchi nashriyotida nashr qilingan. Nashrga tayyorlash va tahrir ishlarini Nusratullo Jumaxoʻja, Safarboy Roʻzimboyev, Abdulla Ahmedov, Najmiddin Komilov va Matyoqub Matniyozovlar amalga oshirgan.

Tadqiqotning metodologik asosi va ilmiy metodi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning milliy qadriyatlar, maʼnaviyatni yuksaltirish va targʻib etishga oid qarashlari hamda hozirgi tilshunoslik metodologiyasi fani erishgan yutuqlardan metodologik asos sifatida foydalanildi. Shuningdek, koʻzda tutilgan masalalarni hal etishda S.Dolimov, S.Roʻzimboyev, A.Ahmedov, Z.Doʻsimov, H.Dadaboyev, A.Oʻrozboyevlarning muhim nazariy fikrlariga tayanildi.

Mavzuni yoritishda qiyosiy, tavsifiy metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar bilan belgilanadi:

– Ogahiy asarlarida tashqi manba soʻzlari ilk bor oʻrganilgani;
– Tashqi manbaga oid soʻzlar quyidagicha tematik guruhlariga ajratib berilgan:

* harbiy ish terminlari tizimi;

* Davlat boshqaruvi terminlari;

* Mavhum maʼnolarni ifodalovchi leksik birliklar;

⁴⁶ Firdavs ul-iqbol. Nashrga tayyorlovchilar: N.Jumaxoʻja, S.Roʻzimboyev, A.Ahmedov. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2010. – 384 b.

- ijtimoiy-siyosiy leksikaning diniy, ilm-fan, san`at, maishiy leksika, savdo-moliya, diplomatiya terminlari tizimining o`rganilishi;

- tashqi manbaga oid so`zlar shakl va ma`no munosabatiga ko`ra tadbiq qilingan.

Ishning tuzilishi va hajmi. Magistrlik dissertatsiya ishi kirish, 11 faslni o`z ichiga olgan uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, uning umumiy hajmi 81-sahifani tashkil etadi.

I BOB. OGHIY TARIXIY ASARLARIDAGI TASHQI MANBA SO`ZLARINING TEMATIK GURUHLARI

I.1. Harbiy ish terminlari tizimi. Ma`lum bir xalq tili leksik tarkibi tarixiy jarayonni o`zida aks ettira olish salohiyatiga ega. O`zbek tili leksikasida arabcha va forsha o`zlashmalar xalqimizning mazkur millatlar bilan tarixiy munosabatinigina emas, o`ziga milliy tafakkur tarzini ham namoyon qila oladi. Garchi eroniy tillar va turkiy tillar genetikasi turlicha bo`lsa ham, hayotiy zarurat, madaniy-adabiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning chuqurlashuvi turkiy tillar, jumladan, o`zbek tilida eroniy o`zlashmalar miqdorini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

Bunday lug`aviy birliklarning Ogahiy tarixiy asarlari tilida qo`llanish sabablari sifatida ularning turkiy tillarga o`zlashuvidagi asosiy omil har ikkala xalq vakillarining geografik hudud, madaniy jihatdan mushtarakligi, bir xil siyosiy tuzum, ko`p hollarda bir davlat (Somoniyilar, Xorazmshohlar, Qoraxoniylar, G`aznaviylar, Temuriylar, Shayboniylar kabi) tarkibida yashaganliklari; tarixning ma`lum pallasida davlat tepasida turkiyzabon xalq vakillari turgani holda ham fors tili rasmiy til vazifasini o`taganligi; forsiy o`zlashmalarning arab tili ta`siridan oldin ham turkiy tillar leksofondiga o`zlashishi; Eron davlati armiyasi tarkibida turkiy etnik birlik vakillari ham bo`lgani va turkiy davlat qo`shinlari tarkibida eroniy xalq vakillari ham salmoqli o`rin tutishgani; fors adabiyotining jahon durdonasiga aylangan badiiy va tarixiy asarlarining sezilarli ta`siri; fors tilida yaratilgan ko`plab tarixiy va badiiy asarlarning tarjima jarayonidagi ta`siri kabilarni keltirish mumkin

Xuddi shu kabi arabiy o`zlashmalar xalqimiz tarixiy kechmishi bilan birga uning buguni, milliy o`ziga xosliklarini ko`rsatib beruvchi lisoniy faktlar beradi. Turkiy tillarga arabiy lug`aviy birliklarining kirib kelishi VII-VIII asrlarda Markaziy Osiyoning arablar tomonidan istilo etilishi, bu hudud aholisining islom dinini qabul qilishi bilan bog`liq. O`zbek tili tarixiy leksikasini yozma manbalar asosida ko`zdan kechirar ekanmiz, unda arabizmlar salmog`i XIX asr oxiri va XX asr boshlarigacha tadrijiy ko`payganini ko`rishimiz mumkin. Qadimgi turkiy

bitiklarda arab soʻzlari boʻlmagani holda, XI asr yodgorligi “Qutadgʻu bilik”ka nisbatan XII-XIII asrlar yodgorligi deb topilgan “Hibatul-haqoyiq”da arabizmlar koʻproq uchraydi. Arab lugʻaviy birliklari, birikmalarining turkiy tillar, jumladan, oʻzbek tiliga oʻzlashish sabab va vositalari haqida olimlarimiz koʻplab ilmiy mulohazalarni bayon qilganlar.

Eski oʻzbek tilidagi harbiy terminlar tizimining ayrim jihatlari ushbu mavzuda maxsus tadqiqot olib borgan H.Dadaboyevga qadar A.Matgʻoziev⁴⁷, A.Ibrohimovalar⁴⁸ tomonidan oʻrganilgan. Eski oʻzbek tilidagi harbiy terminlarning lisoniy tadqiqi H.Dadaboyev tomonidan amalda bajarilgan nomzodlik dissertatsiyasi, maqola va lugʻatlarda aks etgan⁴⁹. Mavzu doirasida bajarilgan tadqiqotlar koʻlami keng boʻlishiga qaramay, bu borada ayrim masalalar oʻz yechimini toʻla topmagan. Xususan, A.Matgʻozievning zikr etilgan maqolasida Munis va Ogahiyning tarixiy asarlaridan misollar keltirilgan boʻlishiga qaramay, maqola hajmi, tabiiyki, tizimga daxldor barcha soʻzlarni qamrab ololmaydi. Bundan tashqari, ayrim soʻzlarning genetika yuzasidan olim bildirgan fikrlarga eʼtiroz bildirish mumkin.

A.Ibrohimova esa oʻz mavzusidan kelib chiqqan holda haqli ravishda faqat “Kelurnoma”da qoʻllanilgan harbiy terminlarnigina eski oʻzbek tilidagi boshqa manbalar tiliga qiyos qiladi. H.Dadaboyev ishlarida Ogahiyning tarixiy asarlari tadqiqot obʼektlaridan sanalgan boʻlishiga qaramay, ishning koʻlami ularga monografik yondashish imkonini bermaydi. Olimning keyingi tadqiqotlarida masalaga kengroq eʼtibor qaratilgan⁵⁰.

⁴⁷ Matgʻoziev A. Xarbiy terminlar tarixiga doir // Ўзбек тили ва адабиёти. 1974. №1. – Б. 16-20.

⁴⁸ Иброҳимова А. “Келурнома” лугатининг лексикасига оид кузатишлар. // Ўзбек тили тарихи масалалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 118-119.

⁴⁹ Дадабаев Х. Военная лексика в староузбекском языке: Автореф. дис...канд.филол.наук. – Ташкент, 1981. – 21 с.; Общественно-политический и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991. – 186 с.; Дадабоев Х. Тарихий харбий терминлар лугати. – Тошкент: Университет, 2003. ; Дадабоев Х. Эски ўзбек тилида харбий терминларнинг қўлланилиши // Ўзбек тили ва адабиёти. 1981. №2. – Б. 31-37. ; Эски ўзбек тилида мудофаа курол-яроғларини ифодаловчи терминлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1983. №6. – Б. 15-18; Кўк турк хоқонлигида харбий курилиш // Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 2000. №2. – Б. 29.; Огаҳий тарихий асарларидаги ижтимоий-сиёсий терминлар тизими хусусида // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари (Илмий мақолалар тўплами) №3. – Тошкент, 2009. –Б. 21-24.

⁵⁰ Дадабоев Х. // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. – Б.

Asarda bayon qilingan voqealarning mavzu ko'lamidan kelib chiqib, unda harbiy sohaga oid lug'aviy birliklarning ko'p ishlatilishi tabiiy, albatta. Bu sohaga oid lug'aviy birliklarning ham ma'lum qismini kelib chiqishi arab va fors tillariga mansub so'zlar tashkil qiladi. Asarda qo'llanilgan harbiy ish terminlar tizimini o'z navbatida quyidagicha ichki guruhlariga ajratish mumkin:

I.1.1. Harbiy amaliyotlar va qismlar nomlari. Harbiy amaliyot va qismlarining nomlarini ifodalovchi so'zlar tizimini o'z navbatida bir necha kichik guruhlariga ajratish mumkin. Ularni tegishli qismlarda ko'rib chiqamiz:

a) *jang* tushunchasini ifodalovchi so'zlar. Asarda *jang* tushunchasini anglatuvchi o'z qatlamga mansub اوروش *urush*, يوروش *yurush* so'zlaridan tashqari arab va fors tillaridan o'zlashgan quyidagi so'zlar qo'llanilgan:

Nabard نبرد so'zi. Bu so'z qadimgi eroniy tillarga mansub bo'lib, pahlaviy tilida *nipart* shaklida "jang", "nizo" ma'nolarini anglatgan. Bu so'zning tarixiy ildizi esa qadimgi eroniydagi *parat+ni* – "jang qilmoq" so'ziga borib taqaladi⁵¹. Masalan,

Biri Ali – shohi shujo'u daler,

Razmu nabard arsasida narra sher. (6^a)

Ushbu so'z Alisher Navoiy asarlarida "urush", "jang" ma'nolarida ham ishlatilgan bo'lib, shu o'zak asosida *hamnabard* – "jangda birga bo'lgan, safdosh"; *nabardozmoy* – "jangchi", "jangda sinalgan" so'zlari shakllangan⁵². Fikrimizcha, Ogahiyning tarixiy asarlarida ushbu so'zning qo'llanilishi "Shohnoma" ta'siri, uning ifoda yo'siniga ma'lum ma'noda izdoshlik bilan bog'lanadi. Bu esa JVS Munis va Ogahiyning boshqa tarixiy asarlari kabi tarixiy-badiiy yo'nalishda bitilgani bilan izohlanadi. Jumladan, "Shohnoma"da o'qiymiz:

چو رستم بید آنک قارن چه کرد

چه گونه بود ساز ننگ و نبرد⁵³

Mazmuni: Rustam Qoran nima qilganini ko'rgach, jangu jadal qanday bo'lishini o'yladi.

⁵¹ . شمس الدین محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع . با اهتمام دکتر محمد معین . تهران . امیر کبیر . ۱۳۸۶ . جلد ۴ ص ۲۱۱۵

⁵² Навоий асарлари луғати. – Тошкент: F.Фуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.443.

⁵³ Al-rams. www. mehrahgam. com . بزرگترین کتابخانه شعر فارسی . لغت نامه .

Bu mulohazamizni asarning ko`pgina o`rinlarida “Shohnoma”dagidek *ro`zi nabard* yoki *ro`zi masof* – “jang kuni” izofiy birikmasi qo`llanganidan ham ko`rishimiz mumkin. Masalan, *ro`zi masofni* shabi zifofdin lazzatmand va maydoni razmni ayvoni bazmdin uluvatpayvandroq bilur erdilar. (72^a).

“Shohnoma”da, jumladan, o`qiymiz:

که افراسیاب آن بد اندیش مرد

کجا جای گیرد به روز نبرد⁵⁴

Mazmuni: Afrosiyob (Alp Er To`nga) mulohazali inson, jang kuni (*ro`zi nabard*) qaerdan joy oladi?

Mumtoz fors adiblari tilida *nabard* so`zi asosida “jangchi” ma`nosida *nabarda* va *nabardiy* so`zlari ham mavjud. “Jangchi” so`zi izohli lug`atimizda “urush qatnashchisi”, “urushlarda qatnashayotgan kishi”, “oddiy askar” kabi ma`nolarni beradi. Masalan, Asjadiyi Marvaziy yozadi:

شاه ابو القاسم بن ناصر دین

آن نبردي ملک، نبرده سوار⁵⁵

Mazmuni: “Shoh Abulqosim bin Nosiriddin u mamlakatning (mohir) jangchisi, jangda ot suruvchidir”.

Asarda ushbu so`z asosida shakllangan *nabargoh* – “jang maydoni” so`zi ham ishlatilgan: “Bu voqeadin ogohlig` topib, ta`jili tamom bila *nabardgoh* tarafiga ozim bo`ldilar”. (123<sup>b</sup>). Ko`rinib turibdiki, mazkur so`zning ikkinchi tarkibiy qismi *goh* هاگ o`rin-joy ma`nosini hosil qiluvchi affiksoiddir<sup>56</sup>. Ushbu komponent Ogahiy tarixiy asarlarida ko`chma ma`noda “jang maydoni” ma`nosini anglatuvchi *javlongoh* چولانگه so`zi tarkibida ham bor. Ushbu so`zning asosi *javlon* fors tilida چولان *jowlān*, *javālān* shaklida bo`lib, “qaytmoq”; “o`ynoqlash” ma`nolarida ishlatiladi<sup>57</sup>. Qizig`i shundaki, fors tilining eng mukammal lug`ati bo`lgan “Farhangi forsiy”da *javlangoh* yoki *javlongah* so`zi qayd etilmagan.

⁵⁴ بزرگترین کتابخانه شعر فارسی. لغت نامه. Al-rams. www. mehrahgam. com

⁵⁵ علي بن احمد اسدي طوسي. بتصحيح عباس اقبال. تهران. چاپخانه مجلس 1319 شمس. ص 476

⁵⁶ Рустамов Ш. Калимасозии исм дар забони ҳозираи тоҷик. – Душанбе: Ирфон, 1972. – С. 17.

⁵⁷ معین محمد. فرهنگ فارسی. جلد ۱. تهران. امیر کبیر. ۱۳۷۵ ه. ق. ص ۱۲۵۵

Alisher Navoiy asarlarida esa *javlongoh* soʻzi “sayr qiladigan maydon” maʼnosida ishlatilgan. Jumladan, ulugʻ shoir naʼt gʻazallaridan birida yozadi:

Zihi javlongahing aflok uza maydoni “av adno”,

Buroqinggʻa toʻquz gumbaz bu toʻqquz gunbazi xazro⁵⁸.

Alisher Navoiy asarlarida Ogahiy tarixiy asarlaridagi kabi *javlongoh* soʻzi “jang maydoni” maʼnosida koʻzga tashlanmasa ham, uning oʻzagi asosida shakllangan javlon kuni iborasi “urush kuni” maʼnosini beradi⁵⁹. Masalan, “azimat bodposin *javlonga* solib, har manzilda oʻzlarining qasri musaffo va bogʻi dilorosigʻa tushub,..” (66^a).

Razm رزم soʻzi ham tarixan eroniy tillarga aloqador boʻlib, ikki maʼnoda ishlatilishi qayd etilgan:

1. Jang, urush.

2. Oʻtin.

Bu soʻzning “oʻtin” maʼnosi keng qoʻllanmasa ham, Xorazm nomining kelib chiqishi bilan bogʻliq bir toponimik rivoyatda koʻzga tashlanadi. Undagi talqinga koʻra *xor* “baliq”, *razm* “oʻtin” maʼnolarini beradi. Albatta, bu toponimik rivoyatda ilmiy asos yoʻq.

Ushbu soʻz mumtoz oʻzbek adiblari tilida “urush”, “jang”, “gʻavgʻo” maʼnolarida qoʻllangan boʻlib, u asosida *razm aylamak* – urushmoq, *razm tuzmak* – urush chiqarmoq, urushmoq, *razm solmoq* – urush ochmoq qoʻshma feʼllari shakllangan⁶⁰. Shu oʻrinda aytib oʻtish kerakki, hozirgi oʻzbek adabiy tilidagi *razm solmoq*, *razm solib qaramoq* feʼllari *razm* soʻzining asl lugʻaviy maʼnosi anglashilmasligi natijasida “diqqat bilan qaramoq”, “eʼtibor bilan koʻzdan kechirmoq” mazmunini kasb etgan. Agar *razm solmoq* feʼlining bugungi maʼnosini eʼtiborga olib, uni *maʼraka* soʻzi bilan solishtirsak, maʼno koʻchish yoʻsinida mantiqiy umumiylik koʻzga tashlanadi.

Razm oʻzbek tiliga “jang” mazmunida oʻzlashganiga qaramay, uning asl lugʻaviy mazmuni “saf”, “qator”dir. Ehtimol, *razm solmoq* feʼlida shu mazmun

⁵⁸ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1987. – Б.34.

⁵⁹ Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 215.

⁶⁰ Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.520.

ta'siri bo'lishi – “qayta-qayta qaramoq” mazmuni ushbu asosda shakllangan bo'lishi mumkin. Bu soʻzning qadimgi forsiydagi shakli *razma* bo'lib, “qator”, “jangchilar safi” mazmunini anglatgan va umumeroniy *reg*, sanskritdagi “qator”, “saf” maʼnolaridagi *raji* soʻzlari bilan oʻzakdoshdur⁶¹.

Asarda forsiy qatlamga mansub “jang” mazmunini anglatuvchi soʻzlardan yana biri *korzor* رازراک dir. Tarkiban bu soʻz *kor* (ish) va *zor* (oʻrin-joy yasovchi affiks) qismlaridan iborat boʻlib koʻrinsa ham, aslida qadimgi fors tilida “sipoh”, “jangchi” maʼnolarida ishlatilgan *kârâ* oʻzagiga aloqador⁶². Ikkinchi qism esa haqiqatan *zar* boʻlib, *kârizar* soʻzi pahlaviy tilida *karejâr* shaklida ishlatilgan. Oʻrin-joy maʼnosini anglatuvchi *zar* komponentining *jâr*, *sâr* shakllarida ishlatilganini “bozor” soʻzining pahlaviyda *wâsâr* shaklida boʻlganiga qiyoslashimiz ham mumkin. Haqiqatan ham, bu soʻz pahlaviy tilida *kârizar*, *kârisâr* shaklini ham olgan. Lekin taʼkidlash kerakki, “sipoh” maʼnosidagi *kârâni* “ish” mazmunidagi *kâr*ga begona deb boʻlmaydi. Sababi, bu soʻz aynan *kâr*ning “jang” mazmunidagi koʻchma maʼnosiga “a” qoʻshimchasi qoʻshilishi natijasida hosil boʻlgan. Chunki “ish”ning “ishkal”; “janjal” maʼnolari oʻzbek tilida ham yoʻq emas. Masalan, “Yana bir ish (janjal) chiqardi”.

Shu oʻrinda taʼkidlash lozimki, mumtoz adiblarimiz tilida qoʻllangan *korzor* va *korgoh* soʻzlari tarkibidagi *zor* va *goh* qoʻshimchalari sinonim boʻlishiga qaramay, oʻzaklari, toʻgʻrirogʻi, yasalish asoslari har xil boʻlgani uchun boshqa-boshqa maʼno beradi. Mumtoz adiblarimiz tilida *korgoh* “dunyo”, “olam” maʼnolarida ishlatiladi. Shu asosda shakllangan *korgohi kunfayakun* izofiy birikmasi esa “butun borliq” mazmunini anglatadi. Masalan, Alisher Navoiy forsiy qasidalaridan birida:

Chi xomaest, ki dar *kargohi “kun fayakun”*,

Nagashta be raqami oʻzi qatra to daryo,

yaʼni, “ajib qalamdirki, (Haqning) “Boʻl!” desa boʻladigan sanʼatxonasida qatradin daryogacha uning raqamisiz paydo boʻlmagan” – deydi⁶³.

⁶¹ شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶. جلد ۲. ص ۹۴۵

⁶² شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶. جلد ۳. ص ۱۵۶۰

⁶³ Алишер Навоий. Ситтаи зарурийя. – Тошкент: Фан, 2005. – Б.85; 10.

Qo`shin va uning tarkibiy qismlarini ifodalovchi so`zlarni ham shartli ravishda harbiy amaliyot terminlari sirasiga kiritish mumkin. Asarda qo`shin va uning qismlarini ifodalovchi o`z qatlamga mansub *qoshun* hamda qadimgi turkiy tilga ancha oldin o`zlashgan *cherik* o`zlashmasidan tashqari tarixan arab va fors tillariga oid *lashkar*(fors-tojik), *navkar*, *sipah* so`zlari ham ishlatilgan.

Sipah so`zi sipoh shaklida bo`lib, u fors tilidan olingan. Ushbu so`z xon, amir saroyida uzoq vaqt xizmat qilgan lavozimli kishi, amaldor; jangchi, askar; shaxmat o`yinida piyodadan katta donalar ma`nolarini beradi.

Navkar – forschadan olingan bo`lib tan soqchi; sarboz, askar, xizmatkor ma`nolarini beradi.

Lashkar(fors-tojik) – davlat qurolli kuchlari majmui, yoki uning bir qismi; qo`shin, armiya ma`nolarini beradi.

Lashkar tarixiy harbiy termin sifatida “qo`shin, sipoh” ma`nolarini anglatadi⁶⁴. *Lashkar* termini umumeroniy so`z bo`lib, ayrim eronshunoslar fikricha, *askar* so`zi uning arablashgan shaklidir. Eron olimi Anjumoroy Nosiriy lashkarni “qit`a”, “bo`lak” ma`nosidagi “lashk”dan kelib chiqqan deb hisoblaydi. Lekin bu tahlil oxirgi harf (r)ning qanday paydo bo`lganligini izohlay olmaydi. I.Purdovud mazkur so`zni avestoviy *rataeshtra* va pahlaviy *artishtar* (jangchi) bilan bog`liq hisoblaydi<sup>65</sup>. Bu esa terminning shakliy va ma`noviy ildizini to`g`ri asoslaydi, deb hisoblaymiz. Bugungi Eron harbiy tizimida bir lashkar bir necha (odatda to`rtta) hang (otryad)dan tuziladi<sup>66</sup>. Asarda ushbu termin nihoyatda faol qo`llanilgan. Masalan, “... oning havoliysini *lashkari* nusratasarga mustaqar qildilar”. (47^b).

Sipoh so`zining fors tilida ham, o`zbek tilining tarixiy leksikasida ham *sipah*, *ispah* shakllari uchraydi. Jumladan, “barcha sipohi zafardastgoh tong otg`uncha ot va yarog` va asbobi harb va qitol asbobining istikmolig`a sa`yi mashkur va ko`shishi g`ayri mahsur bila ishtig`ol ko`rguzdilar” yoki

Ko`rguzib g`ayrat *sipah* ahli tamom,

⁶⁴ Дадабоев Х. Тарихий ҳарбий терминлар луғати. – Тошкент: Университет, 2003. – Б. 72.

⁶⁵ شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶. جلد ۱. ص ۲۲۸

⁶⁶ Пурдовуд Иброҳим. Хурда Авесто. Аз силсилаи энтэшпоротэ зардуштийонэ Ирон ва Бомбей. 1340 х.с. 97.

Oldilar qatl aylamakdin borch kom.

Fors tilida uning yana *isbah* shakli ham uchraydi. Mazkur soʻz qadimgi fors tilida *spâda*, avestoviyda *spâdha*, shaklida boʻlib, pahlaviy tilida *spâh* koʻrinishini olgan⁶⁷. Soʻzning shaklida oʻzaro farqlar mavjud boʻlsa ham, uning lugʻaviy maʼnosi deyarli oʻzgarmagan. Bu soʻz Eronning hozirgi harbiy tizimida muayyan maʼno – bir necha *lashkarni* oʻz ichiga oluvchi birlikni anglatadi⁶⁸.

Asarda *sipoh* soʻzi bilan bogʻliq quyidagi birikma va qoʻshma feʼllar mavjudligini koʻramiz:

Ziyo sipohi – quyosh nurlari: saharining siymin mahcha livosi namoyon va *ziyo sipohi* sipehr qalʼasi chopovuligʻa garmjavlon boʻldi,...

Sipohi nusratpanoh – gʻalab yor qoʻshin: *sipohi nusratpanoh* sufufin qoz qanoti yongligʻ tuzub,...

Sipohi kiynaguzor – oʻch olishga shaylangan lashkar: *sipohi kiynaguzorni* qalʼa atrofining nahbu gʻorati uchun ruxsat berdilar.

Sipohi selguzar– selday yoziluvchi qoʻshin: *sipohi selguzar* atrofu ikki manzillik yergacha, balki daryoning janubi tarafiga dogʻi etub,...

Sipoh manfur – gʻazabl原因 qoʻshin: *sipohi manfur* va asokiri nomahsur bila murojaat maydonigʻa nahzat yaqqonin surub,...

Sipohi anjumson – yulduz kabi koʻp, behad koʻpsonli qoʻshin. (Bu oʻrinda *son* komponentini “adad” maʼnosida emas, fors tilida “oʻxshash”, “monand” maʼnosidagi soʻz yasovchi affiks ekanini qayd etib oʻtish kerak): Va mehri duraxshon nujumi bepoyon bila harakat koʻrguzgondak *sipohi anjumson* hamrohligʻi bila masofat qatʼi ohangin tuzub,...

Sipohi davlatnizom – baxtli, nizomli armiya: *sipohi davlatnizom* qilib nuzul ettilar.

Sipohi mahsharnizom – qiyomat kunidagidek adaddagi yoki yuraklarga qoʻrqinch soluvchi armiya: *sipohi mahsharnizomni* harakatga kirguzub,...

شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶. جلد ۲، ص ۱۰۸۷⁶⁷

شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶. جلد ۲، ص ۱۰۸۷⁶⁸

Ahli sipoh – sarbozlar: *ahli sipoh* orasida mumtozlik va sarafrozlik bag`ishladilar....

Sipohi vofira – ko`p sonli qo`shin: *sipohi vofira* va afvoji qohira keyindin kelib,..

Xayli sipoh – qo`shinning tarkibiy qismlari:

Oningdek bo`lub jam` *xayli sipoh*,

Ki te`dodiga topmayin aql roh.

Shuningdek, eski o`zbek tilida *sipah davri*, *sipah ahli*, *sipah tortmoq*, *sipah tuzatmak*, *sipah tushurmoq*, *sipoh yasamoq* birikmalari ham uchraydi<sup>69</sup>. Eski o`zbek tilida *sipohiy* (askar) so`zi ham keng qo`llanilgan:

Sipohiysi obodu ham shod o`lub,

Raoyosi ham shodu obod o`lub⁷⁰.

Navoiy asarlarida *anjumsipoh* (“anjum” arabcha yulduz, *sipohi* yulduzday ko`p) qo`shma so`zi ham uchraydi:

Ki, to`rtinchi xayl ulcha shoh erdilar,

Falakqadru *anjumansipoh* erdilar⁷¹.

Ogahiyda sanoqsiz askar, lashkarning ko`pligi “*sipohi falak ishtiboh*” birikmasi orqali ifodalangan o`rinlarni ko`plab uchratamiz.

I.1.2. Harbiy mansab va rutbalarni ifodalovchi terminlar. Asardagi harbiy mansab va unvonlarni lisoniy tadqiq qilishda, albatta, ushbu mansab hamda unvon egalarining vazifalari, siyosiy mavqelari xususida aniq tasavvurlar bo`lishi talab qilinadi. Bu borada o`z tadqiqotlarida o`zbek xonliklari boshqaruvi, unvon va mansablari, vazifalari e`tibor qaratgan N.N.Muravyov⁷², G.I.Danilevskiy⁷³, H.Vamberi⁷⁴, V.V.Bartold⁷⁵, A.A.Semyonov⁷⁶, P.P.Ivanov⁷⁷, M.Yo`ldoshev⁷⁸ va

⁶⁹ Дадабоев Х. Тарихий ҳарбий терминлар луғати. – Тошкент: Университет, 2003. – Б.130-131.

⁷⁰ Алишер Навоий. Мукаммад асарлар тўплами. 20 томлик. 11-том. – Тошкент: Фан. 1996. – Б.209.

⁷¹ Алишер Навоий. Мукаммад асарлар тўплами. 20 томлик. 11-том. – Тошкент: Фан. 1996. – Б. 83.

⁷² Муравьев Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819-1820 гг. гвардейского Генерального Штаба капитана Николая Муравьева, посланного в сию страну для переговоров. Ч. 1-2. –М., 1822.

⁷³ Данилевский Г.И. Подполковник. Описание Хивинского ханства //ЗРГО. Кн. 5. 1851.

⁷⁴ Вамбери Х. Путешествие по Средней Азии. -Москва: И.Мамонтова, 1867.

⁷⁵ Бартольд В.В. Ближайшие задачи изучения Туркестана. Сочинения. Т. IX. 1976. – С, 546-555; Будущее Туркестана и следы его прошлого. Сочинения Т.III, 1965. – С. 307-310; История культурной жизни Туркестана. Сочинения. Т. II, ч. 1. 1963. – С. 167-433; Церемониал при дворе узбекских ханов в XVII веке. Сочинения. Т. II, ч. 2. 1964. – С, 388-399.

SH.Vohidov⁷⁹larning asar va risolalari muhim ahamiyatga ega.

Ogahiy asarlarida quyidagi mansablar nomlari aniq keltirilgan: *inoqiyat mansabi, mahramlik vazifasi, biylik* (amirul-umarolik) *mansabi, qaravulluq* (soqchilik, arergardlik) *rutbasi, biylik amali, miroblik mansabi, beglarbegilik mansabi, vazorot mansab, udaychilik amali, naqib, naqobat mansabi*. Demak “mansab, lavozim” ma`nosini anglatish uchun arabcha *mansab, manosib, amal, vazifa, rutba* istilohlaridan faol istifoda etilgan.

Mirshab (arabcha+forscha) – 1. Tungi soqchi, tungi soqchilarning boshlig`i. 2. O`rta Osiyo xonliklari shaharlarida jamoat tartibini saqlovchi lavozim bo`lib, odatda shaharning kechki xo`jayini (*miri shab*) deb ham yuritilgan. Mirshab asosan o`z ishiga kechqurun soat 6 dan keyin kirishgan, chunki bu davrda barcha shahar bozorlari yopilib, bir soatdan so`ng shahar darvozalari berkitilib, shahar suv quyganday jim-jit bo`lgan. Mana shu vaqtdan boshlab, hech kim uyidan chiqmasligi va shahar ko`chalarida yurmasliklari kerak bo`lgan. Ushbu qoidani buzgan barcha shaxslar mirshablar tomonidan ushlanib, mirshabxonaga keltirilgan<sup>80</sup>. S.Saburovaning yozishicha, Xivada turli-tuman mirshablar bo`lgan⁸¹:

1. Xiva shahar bosh darvozalarida turuvchi mirshablar.

2. Safarga boradigan mirshablar.

Mirshab askarboshigina emas, jallodboshi ham edi. Hazorasp shahriniki singari, shahar va daha mirshablari bo`lgan⁸².

XIX asrda Xivada agrar ishlab chiqarish munosabatlarining o`zgarishi faqat moliya-soliq tizimini emas, balki moliya soliq idoralarining tuzilishini ham

⁷⁶ Семёнов А.А. Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях носителей их в средневековой Бухаре // СВ. 1848, №5.

⁷⁷ Иванов П.П. Архив Хивинских ханов XIX в. //Исследование и описание документов с историческим введением. Новые источники для истории народов Средней Азии, Санкт-Петербург, 1940; Шу муаллиф. Архив Хивинских ханов // ЗИВАН СССР. Т. VII. -М.,Л., 1939.

⁷⁸ Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. -Тошкент.: Ўздавнашр, 1959; Шу муаллиф, XIX аср Хива давлати хужжатлари. -Тошкент.: Ўздавнашр. Т. II, 1960.

⁷⁹ Воҳидов Ш. Қўқон хонлиги ва Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар. -Тошкент.: ФА Ҳ.Сулаймонов номидаги Қўлғезмалар институти, 1996; Қўқон хонлигида унвон ва мансаблар //Шарқ юлдузи, 1995. №3, 4. –214-223; Воҳидов Ш., Сабуrowа С. Хива хонлигида унвон ва мансаблар //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1998, №3. 39-46 б; Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан.-Тошкент.: Янги аср авлоди. 2006. – Б. 48-70.

⁸⁰ Чориев З. Тарихи терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Энциклопедия, 1999. – Б. 77.

⁸¹ Сабуrowа С. XIX аср ва XX аср бошларида Хива хонлигининг давлат тизими. Тарих фан. ном. дисс. – Тошкент., 2002. – Б. 120 дан бошлаб.

⁸² Иванов П.П. Архив Хивинских ханов // ЗИВАН СССР. Т. VII. -М.,Л., 1939. – С. 205, 206.

o`zgartirib yubordi. Shu bilan birga, davlatning harbiy tuzilishida ham o`zgarishlar yuz berdi. Agar ilgari qo`shin ayrim tobe urug`larning lashkarlaridan iborat bo`lsa, XIX asrga kelib, xonlikning qurolli kuchlari markazlashgan davlat apparatining tarkibiy bir qismiga aylandi. XIX asrda xonlikda jami 13 ming kishilik muntazam qo`shin paydo bo`ldi. Tinchlik vaqtida xon qo`shini shaharni muhofaza qilishdan tashqari, boshqa vazifalarni ham bajarardi.

Sarboz so`zi forscha bo`lib, O`rta Osiyo xonliklaridagi muntazam qo`shin askarini ifodalagan. Amirxon Qo` Xiva xonligida sarbozlar urush vaqtida to`plangan va ularning soni 30-100 ming oralig`ida bo`lgan. Sarbozlar maoshlari turlicha bo`lib, masalan, turkman navkarlariga harbiy xizmati uchun har bir otliqqa yarim tanobdan 30 tanobgacha er ajratib berilgani<sup>83</sup> ma`lum. Asarda bu so`z hozirgi *askar* tushunchasiga muvofiq ishlatilgan: “besh yuz *sarboz* va besh to`p bila Marv viloyatig`a mufsidlar imdodi uchun yibordi”. (66^b).

Amir al-umaro (arabcha) – mavqe` jihatidan naqibdan keyin amir al-umaro keladi. Xiva xonligida amirulumaro eng faxriy unvon hisoblangan. Amirlarning amiri, oliy amir, degan ma`noni anglatgan. Oltin O`rda, Chig`atoy ulusida butun harbiy ishlar uning tasarrufida bo`lgan. Bundan tashqari, amir-al-umaroga hukumatning barcha bosh ijroiya idoralari ham bo`ysungan. Amir Temur va temuriylar davrida amir al-umaro faqat oliy bosh qo`mondonlik, ayrim hollarda hukmdorning *hudaychisi* bo`lgan⁸⁴. Amir al-umaro Xiva xonligidagi harbiy qo`shinlarning bosh qo`mondoni lavozimi bo`lib, bu unvon 1272 (1855-1856) yili ta`sis etilgan edi. Said Muhammad xon bu unvonni birinchi marta o`zining akasi Said Mahmud to`raga bergan⁸⁵.

Ogahiy tarixiy asarlari, xususan, “Riyoziy ud-davla” amir ul-umaro unvoni biy unvoniga muvofiq bo`lganidan guvohlik beradi: “Eltuzarbekka inoqlik va Olloberdi to`raning farzandi arjumandi Rahimberdibekka biylik mansabi oliylarin arzoniy tutub, qobiliyatlari qomatin podshohona xil`atlar bila muzayyan qilib, shodkomlig`lar yetkurdi”.

⁸³ Ўзбекистон Марказий Давлат архиви. Фонд 125, Рўйхат №1, Ўйғма жилд №510. 183, 189-в.

⁸⁴ Чориев З. Тарих терминларининг изоҳли луғати. – Б. 10 .

⁸⁵ Баёний. Хоразм тарихи, 376 ^{a-b}.

Sarkarda (forscha) – qo`mondon, lashkarboshi. Urush vaqtidagi harbiy boshliq, bu mansab qo`shin urush safariga chiqqan davrda tuziladi. Manbalardan ma`lum bo`lishicha, sarkardalar, qoida bo`yicha, o`z urug`laridan tayinlanmasdi. Xonlar buni ehtiyotkorlik deb hisoblagan bo`lsalar kerak. Mingboshi va yuzboshilar singari sarkardalar ham bevosita xonning yorlig`i bilan tayinlanar edi. Sarkarda harbiy mahkama kishilari bo`lmasligi ham mumkin edi. Masalan, miroblar sarkarda bo`lishi mumkin edi: “... mazkur sarkardalardin Mahmudniyoz yasovulboshi...” (86<sup>a</sup>). Garchi, Xiva xonligida qo`shin bosh bo`limi bo`lmasa-da, lekin vazifasi jihatidan shtab boshlig`iga o`xshash mansab bor edi, bu vazifani *naqib* bajarar edi. *Naqib* (arabcha) – sayidlar va xo`jalar uchun yuqori faxriy unvon edi. Naqiblik mansabi *naqobat* termini bilan ifoda etilgan. Buni asardagi quyidagi parcha ham tasdiqlaydi: “Sayyid Isoxoja *naqibning* o`rniga oning aqosining o`g`li Sayyid Ismoilxojaning iftixori boshin *naqobat* mansabining muzayyan amomasi bila falakfarsoy qildilar”. (63^b).

Naqiblik lavozimi avloddan avlodga ham o`tgan. Naqib xonning eng yaqin maslahatchilaridan biri bo`lib, safarlarda unga hamroh bo`ladi<sup>86</sup>. Naqib madrasani tugatgan kishi bo`lishi shart edi. Rasmiy qabul marosimlarida *naqibxo`ja* xonning so`l tomonida birinchi o`rinda o`tirgan⁸⁷. Buxoroda ham naqib rasmiy qabul marosimlarida amirning so`l tomonida birinchi o`rinda o`tirgan<sup>88</sup>. Naqiblarning o`z navkarlari⁸⁹ bo`lib, hamma harbiy safarlarda qatnashardi.

**1.1.3. Qurol-yarog` va aslaha nomlari.** Asarda ishlatilgan qurol-yarog` va aslaha nomlariga quyidagilarni keltirish mumkin:

Sipar – qalqon⁹⁰:

Birov etkurubon *siparg`a* jilo,

Birov xudm oyinasiga safo. (23^a).

Javshan – forsha “sovut”, “zirih”⁹¹:

⁸⁶ Йўлдошев М. Кўрсатилган асар. – Б. 288.

⁸⁷ Ўша ерда.

⁸⁸ Бартольд В.В. Церемониал при дворе узбекских ханов в XVII веке //ЗРГО. -СПб., 1909. – С. 301.

⁸⁹ Иванов П.П. Кўрсатилган асар. – Б.193, 194, 195.

⁹⁰ Навоий асарлари луғати. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.561; Дадабоев Ҳ. Тарихий ҳарбий терминлар луғати. – Тошкент: Университет, 2003. – Б.

⁹¹ Навоий асарлари луғати. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 216.

Birov *javshanig`a*, namoyish berib,

Birov *chorqabg`a* kushoyish berib. (23^a).

Misol tariqasida keltirilgan baytdagi *chorqab* so`zi aslida kiyim-kechak nomi bo`lsa ham, uning muavaqqat mazmuni harbiy kiyim-bosh bo`lgani uchun mazkur soha terminlari sirasida qayd etish o`rinlidir⁹².

Sinon arab tilida “nayza” degan ma`noni anglatadi va asarda ham shu ma`noda ishlatilgan⁹³:

Birovga ititmak ish o`ldi *sinon*,

Ki o`tgay aduv sinasidin ravon. (23^a).

Shuningdek, JVSda turkiy *nayza* atamasi ham qo`llanilgan. Masalan, “Ikki tarafdin qilichu *nayza* iste`molig`a ishtig`ol ko`rguzdilar”. (51^b).

“Muntaxabul-lug`ot”da *sinon* so`zi “charxtosh, nayza uchi, hassa uchi va har bir narsaning o`tkirligi” deb izohlansa<sup>94</sup>, “G`iyosul lug`ot”da ham “Muntaxab” manba sifatida ko`rsatilib, xuddi shu ma`lumotlar keltiriladi<sup>95</sup>. Alisher Navoiy asarlarida esa *sinon* “narsa uchi” ma`nosidan tashqari *nayza* mazmunida ham uchraydi va buni B.Hasanov o`z lug`atida ko`rsatib o`tgan⁹⁶. H.Dadaboev harbiy atamalar tizimida *sinonvar* – “nayzador, nayza bilan qurollangan jangchi” so`zi ham borligini qayd qiladi⁹⁷.

I.2. Davlat boshqaruvi terminlari tizimi. Asardagi davlat boshqaruvi terminlari tizimini XIX asrda davlatda oliy qonun chiqaruvchi ma`muriy va sud hokimiyati haqida tarixiy faktlar bilan bog`lagan talqin qilish zarur. Bu tizim yangi sulolaning merosxo`r xoni qo`lida to`plandi. Garchi Xiva xonligining davlat tuzilishi o`zining mukammalligi jihatidan ba`zi bir G`arbiy Yevropa podsholik davlatlari tuzilishi darajasida bo`lmasa ham, ma`lum idora qilish tizimi mavjud bo`lib, etarli ravishda tartibli edi. Shunga binoan, davlat mansablari ma`muriy, diniy va harbiy lavozimlarga bo`linardi. Shuning sohaga oid terminlarni mansab

⁹² محمد معین. فرهنگ فارسی. جلد اول. تهران. امیر کبیر. ۱۳۷۵. ص. ۱۲۴۴

⁹³ Носиров О., Юсупов М. Ан-наъим. Арабча-ўзбекча луғат. –Тошкент: Тошкент Ислон университети нашриёти, 2003. – Б.

⁹⁴ Мунтахабул-луғат. Лакхнау. 1886. – С. 236.

⁹⁵ Фиёсиддин Муҳаммад Рампурий. Фиёсул-луғот. Лакхнау. 1886. – С. 276.

⁹⁶ Ҳасанов Б. Навоий асарлари учун қисқача луғат. –Тошкен: Фан, 1993. – Б.252.

⁹⁷ Дадабоев Ҳ. Тарихий ҳарбий терминлар луғати. – Тошкент: Университет, 2003. – Б. 129.

va unvon nomlari kabi boshqa tizim terminlari bilan uzviy bog`lab ko`rish maqsadga muvofiqdir.

I.2.1. Boshqaruv turlari, muassasa va tashkilot nomlari. Asar muallifining boshqa tarixiy asarlari kabi davlat boshqaruv tizimi haqida nazariy ma`lumot bermasa ham, tarixshunoslikda amalga oshirilgan ishlar asosida davlat boshqaruvchi muassa va tashkilotlariga oid o`zlashma terminlar sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

Devon forscha so`z bo`lib, “mirza”, “kotib”, “ish yurituvchi” ma`nolarini beradi. Xon huzurida maxsus devon bo`lib, u xonning rasmiy kotibi hisoblangan⁹⁸. Devon devonbegi tomonidan boshqarilgan bo`lib, asarda Ibrohim devonbegi nomi ko`p bor tilgan olingan: “Ibrohim *devonbegini* elchi qilib ba`zi *mulkiya umuri* jihatidin Buxoro viloyatig`a irsol ettilar”. (56^b). Ushbu misolda ko`rinib turganidek, davlat ishlari tushunchasi *umuri mulkiya* yoki *mulkiya umuri* birikmasi bilan ifoda etilgan.

I.2.2. Sinfiy-tabaqaviy terminlar. Xalq ommasi tushunchasini *fuqaro* فقرا⁹⁹ *raiyat* رعيه terminlari ifodalagan: “...begunoh fuqaroni qatlg`a etkurub...” (44^a).

Fuqaro – arabchadan kirib kelgan. U mamlakatning doimiy aholisi; oddiy qora xalq vakili.

Xoja خواجه¹⁰⁰ – maxsus imtiyozlarga ega ijtimoiy tabaqa: “*Sodoti izomdin* Sayyid Ismoilxoja naqib” (86^b).

Xoja – fors-tojik tiliga oid bo`lib xo`jayin, boshliq, ega; uy egasi, oila boshlig`i; katta savdogar ma`nolarida ishlatiladi.

I.2.3. Mansab va unvonlarni ifodalovchi terminlar. Ogahiy tarixiy asarlari matnida Xiva xonligi boshqaruvida o`ziga xos mavqe va rolga ega bo`lgan diniy-ma`muriy terminlar o`z aksini topgan. Kuzatishlarimiz din, shariat, fiqh peshvolarining dunyoviy hayotdan uzilib qolmagani, aksincha, mamlakat ijtimoiy, madaniy, siyosiy hayotida faol qatnashganini ko`rsatadi.

⁹⁸ Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Тошкент: Ўздавнашр, 1959. – Б. 265.

⁹⁹ Баранов Х. Арабско-русский словарь. –М.: Русский язык. 1985. – С. 605.

¹⁰⁰ Персидско-русский словарь. Том I. – М.: Русский язык, 1983. – С. 572.; Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства// Советская тюркология. – 1989. – №1. – С. 68.

“Din ahli, dindorlar” ma`nosi arbob din va ulamoyi din izofalari yordamida ochilgan. Din ahli hukmdorning safarlarida unga hamrohlik ham qilgan.

SHariat ahkomlaridan, Qur`oni karim suralaridan a`lo darajada xabardor bo`lgan va qozi faxriy unvonini qo`lga kiritgan shaxslargina sudlov ishlariga tayinlangan¹⁰¹.

Matnlarda qozi termini bilan ifodalangan mansabning boshqa diniy darajalardan avval kelishi uning yuqori martabaligini tasdiqlaydi: Aqzal-quzzoti mutaoliyi darajoti hidoyatnishon qozi Musoxoja eshon... (RD, 128). Buxoro amirligida qaziul-quzzot (qozilar qozisi) “oliy hakam (sudya)” mansabi egasi hisoblangan va u mavqeiga ko`ra shariat peshvolari orasida shayxul- islomdan keyingi ikkinchi oliy lavozim tarzida tan olingan. Qoziul-quzzotga lashkar qozisi – qozi askar bo`ysungan¹⁰². Oxirgi termin Ogahiy tarixiy asarlarida ko`zga tashlanmaydi. Ushbu jihat Xiva xonligida shunday mansabning mavjud bo`lmaganligini belgilaydi.

Buxoro amirligida shariat peshvolari asosan to`rt oliy amaldorlardan tashkil etilgan. Ularning birinchisi sudya, hakam vazifasini ado etuvchi shayxulislom bo`lgan. Mazkur termin Xiva xonligiga doir Ogahiy asarlarida ancha faolligi bilan ajralib turadi. Qizig`i shundaki, shayxulislom termini bilan nomlangan amaldor o`z cherikiga ega bo`lgan va harbiy harakatlarda ularga sarkardalik qilgan: Fozil Xoja shayxulislom va Qarobahodir mirob... bir favj lashkarga bosh bo`lub... (GD, 190). Harbiy yurishlar paytida shayxulislom o`z navkarlari bilan qo`shinga sarkardalik qiluvchi inoqning mulozamatiga tayinlangan SHayxulislom terminiga asos bo`lgan shayx istilohi bilan yirik din arbobi anglashilgan. SHayx amali egasi viloyat hokimi vazifasini ham egallash huquqiga ega bo`lgan: shijoat ahlig`a rojih Muhammad Solih shayxni Marv viloyatiga nomzod qildi (RD, 19).

Din arboblarning rahnamosi arabcha mufti istilohi bilan nomlangan: va sarvari arbobi din, muftii firoyatoyini oliymaqom Nizomuddin xoja eshon... (RD, 128). Buxoro amirligida mufti mansabi shayxulislomdan keyingi amal bo`lib,

¹⁰¹ Каранг: Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. Ташкент.1991. С. 32.

¹⁰² Каранг: Мирза Бади-диван. Маджмаал – аркам. Факсимиле рукописи. Введение, перевод, примечания и приложения А.Вильдановой. М., 1989,С.92.

muftilarning orasida eng oliysi *a`lam* istilohi bilan atalgan. Ular fuqaro uchun fatvo berishga mas`ul bo`lgan. Lashkar muftilari ham mavjud bo`lib, ular asosan harbiy yig`inlar yoki yurishlar chog`ida askarlarga fatvo berish bilan band bo`lgan¹⁰³.

Vaqf mulkiga vasiylik qilish mas`uliyati arabcha *mutavalliy* termini bilan ataluvchi amaldor zimmasiga yuklatilgan. Xiva xonligida mavjud urug`larning ham mutavalliyi bo`lgan: yamutiyaning besh urug`ining besh kadxudosin va mutavalliysin o`zining humoyun majlisig`a undab... (GD, 167).

Madrasalarda talabalarga saboq o`rgatuvchi shaxs *domla* istilohi bilan ifodalangan: Ul jumladin, fahmu zako ahlig`a nadish... domla Ibrohim va g`ayrihum edilar (RD, 128).

“Boshliq, diniy rahnamo” ma`nosini ifodalovchi *rais* termini matnlarda *qozi*, *mufti* mansablarini anglatuvchi terminlardan so`ng ishlatilganini hisobga olib, raisning yuqori amallardan biri ekanligi haqida xulosa qilish mumkin: va maxzumi fatonatjalis Xoja Ibrohim rais... (RD, 128).

“Dildorlar orasida obro`-e`tibor qozongan ruhoniylar, din peshvosi” ma`nosi forsha-tojikcha *eshon* istilohi yordamida ochilgan: mufti daroyatoyini oliymakon Nizomuddin Xoja eshon... (RD, 128).

“Martabali zot, ulug` kishi” sememasi arabcha *maxzum* o`zlashmasi yordamida ifodalangan: va afzali ahli eshon Sa`diddin maxzum (RD, 128). Alisher Navoiy asarlarida ushbu o`zlashma *maxdum* fonetik shaklida qo`llangan (NAL, 374). Buxoro xonligida ham *domla*, *rais* terminlari ruhoniylar egallagan yuqori mansablardan hisoblangan. Bunday shaxslarga o`rni bilan elchilik vazifasi ham yuklatilgan:

Umuman “taqvodor” semasini ifodalash uchun *so`fiy* leksemasidan foydalanilgan: amir Nasrulloning bu dargohi olampanohdin borg`an elchilarikim, fazoyilmaob domla Eshmurod rais bila... Oллоhberdi so`fiy erdilar (JVS, 8) va h.k.

Xiva saltanatida mavjud bo`lgan mansab, unvon, lavozim va rutbalarni ifodalovchi terminlar haqidagi mulohazani qat`iy mansablar zanjirida o`rnatilgan

¹⁰³ Қаранг: Кўрсатилган асар. 92-бет.

tizimni anglatuvchi terminlarni keltirish bilan nihoyalashni maqsadga molik topdik.

Tarixiy ma'lumotlar asosida Xiva xonligidagi unvon va mansablarni saroy, ma'muriy-hududiy, harbiy, diniy, qozixona unvon va amallariga bo'lish mumkin. Qayd etish kerakki, xonlik davrida muayyan unvon va mansablar tasnifi bo'lmagan.

Xonlikda eng oliy unvon *xon* bo'lib, u ma'muriy, siyosiy va harbiy (ba'zan diniy) vakolat hamda salohiyatga ega edi. Asarda *xon* ma'nosida qo'llanilgan *xon*, *xoqon*, *qaysar*, *shoh*, *shahriyor*, *podshoh*, *xusrav*, *sulton*, *hokim*, *amir*, *voliy*, *kadxudo* kabi so'zlarining dastlabki ikkitasidan boshqasi arab va fors tillaridan o'zlashgan bo'lib, A.O'razboyev tomonidan atroflicha tahlil qilingan¹⁰⁴. Lekin tadqiqotchi "Riyo'z ud-davla" asarida qo'llanilmagani bois xuddi shu ma'nodagi *tojdor* va *jahonbon* so'zlarini nazardan chetda qoldirgan:

Sulaymonmulku davlat shahriyori,

Sikandar sha'nu shavkat *tojdori*. (13^a); ... chun xalofatu *jahonbonlig* navbati va hukmronlig davlati... (7^a).

Xalifa termini o'zbek tiliga dastlab "xalifalik boshlig'i bo'lgan shaxs" ma'nosida o'zlashgan. Bu terminning turli davr va tillardagi ma'nolari xususida jiddiy tadqiqotlar amalga oshirilgan¹⁰⁵. Ogahiy tarixiy asarlarida *xalifa* so'zi *xon* terminining evfemik sinonimidan tashqari "shariat aqidalarini yaxshi biladigan, o'qimishli odam; yordamchi, o'rinbosar"; "yumush bajaruvchi, xizmatchi" ma'nolarini ham ifodalaydi. Bekish *xalifa* boshlig' ikki uch kishi zaxmdop bo'ldi (114^a). Bu so'z *xalifa* talaffuzi bilan XX asr boshlariga qadar qayd etilgan ma'nolaridan boshqa "eski maktablarda o'qituvchilarga yetakchilik va maktabdor domlaga dastyorlik qilgan bola"; "ustadan bir pog'ona past darajali shaxs"¹⁰⁶ ma'nolarida ishlatilgan.

¹⁰⁴ Ўразбоев А. Огахийнинг "Риёз уд-давла" асарида ижтимоий-сиёсий лексика: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 20-27.

¹⁰⁵ Бартольд В. Халиф и султан // Соч., Том 6. – С. 17-78; Gibb H. A. R. The evolution of government in early islam. – Stl. 1955, – P. 4, 5-7.

¹⁰⁶ Чориев З. Тарих терминлари изоҳли луғати. – Тошкент: Энциклопедия, 1999. – Б. 113.

Mahram arabcha bo`lib, “ishonchli xizmatkor” ma`nosiini anglatadi. Mahramlar xonga yaqin kishilar sanalib, merosiy vazifa ekanligi haqida Ogahiyning “Riyozi ud-davla” asarida so`z yuritilgan (263<sup>b</sup>). Ular davlat boshqaruvida bevosita xonning maslahatchilari bo`lishgan va xonning oromxonasiga kirish huquqiga ega edilar: “Muhammad Murod *mahram* va... Ismoil *mahram*...”.(40^b).

Oxun/oxund – fors tilidan o`zlashgan va “va`zxon”, “notiq”, “din targ`ibotchisi” kabi ma`nolarni anglatadi: *Oxund* shodu xurramlig` bila duoyi xayrga ixlos tilin ochib,.. (41<sup>b</sup>). Tarixiy ma`lumotlar madrasalarda oxunlar soni ko`p bo`lganini ko`rsatadi. Masalan, Ollohqulixon madrasasida 7 ta oxun, 2 ta muazzin, 2 ta farrosh, 1 ta sartarosh va meshkobchi xizmat qilganlar¹⁰⁷.

1.2.4. Sudlov (yuristprudensiya) va ish yuritish terminlari. Ma`lumki, Xivada davlatni boshqarish bo`yicha islom dini mafkuraviy asosni tashkil etgan. Qonunlar shariat tartib va yo`riqlari asosida amal qilgan.

Islom huquqi, ya`ni shariatni muhofaza qilish idoralari lavozimlari qatoriga *qozi al-quzzot*, *qozi kalon*, *qozi askar*, *a`lam*, *muftiy* va boshqa lavozimlar kirgan. Yuqori mansabdorlik lavozimiga shayx al-islom mansub bo`lgan.

Shayxul-islom arabcha bo`lib, islom tayanchi, muayyan mamlakatdagi barcha islom tashkiloti boshlig`i – oliy din vakili unvoni¹⁰⁸: “...Qutbiddinxoja shayxul-islom...” (55^a). Shayxul-islom diniy marosimlarning aniq bajarilishi ustidan nazorat qilgan¹⁰⁹.

Qozi – arabcha so`z. Huquqiy ishlarni hal etuvchi vazifasini bajaruvchi mansabdor nomidir<sup>110</sup>. Qozi, shuningdek, vasiylikka, vasiyatning bajarilishi, meros taqsimotiga tegishli ishlarni amalga oshirgan. Vaqf ham qozi nazoratida bo`lgan. *Qozi urdu* yoki *qozi askar* (arabcha, turkcha) harbiy jarayonda sudlov ishlarini olib borgan. Shuning uchun xon safarga chiqqanida qozi askar unga hamroh bo`lib, o`z vazifasiga tegishli ishlar bo`yicha xonga shaxsan o`zi ma`lumot bergan”¹¹¹.

¹⁰⁷ Ўзбекистон Марказий Давлат архиви. Фонд 125, Рўйхат №1, Иш №596, 8-в.

¹⁰⁸ قاموس المحيط www.dorar.net.

¹⁰⁹ Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Б. 273.

¹¹⁰ قاموس المحيط www.dorar.net.

¹¹¹ Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Б. 276.

**I.3. Mavhum ma`nolarni ifodalovchi leksik birliklar.** O`zbek tiliga o`zlashgan arabcha va forsha so`zlarning ko`pchiligini mavhum tushunchalarni ifodalovchi so`zlar tashkil qiladi. Bu holni asar leksik tarkibida ham ko`rishimiz mumkin. Ularning ayrimlari bir-biri bilan sinonim bo`lib, ko`p hollarda juft so`zga aylangan. Masalan, tilimizda har ikkala qismi ham tarixan arab tiliga mansub *ishq-muhabbat* juft so`zi keng ishlatiladi. Asarda bu tushunchani ifodalovchi *vidod* so`zi ham mavjud: “*muhabbat va vidod* tariqasi bila kelib,.. (42^a). Bu so`zlarning tarixiy-etimologik tahliliga nazar solsak, bir-biriga ma`nodosh mazkur so`zlarning juft holatga kelishi ularning qay darajada semantik o`zgarishga uchraganini izohlashda qo`l keladi. Ushbu juft so`zning birinchi tarkibiy qismi *ishq* عشق *a`shiqa* – “sevmok”, “oshiq bo`lmoq” fe`lining masdari (infinitiv shakli) sifatida shakllangan<sup>112</sup>. Tarixan esa *ishq* so`zining o`zi mazkur ma`noga polisemiya natijasida o`tgan bo`lib, o`simliklarga chirmashib uni quritadigan giyoh nomi denotant vazifasini bajargan. Bu haqda mashhur leksikograf Muhammad Rampuriyning “G`iyos ul-lug`ot” asarida quyidagilarni o`qiymiz: “*Ishq* biror narsani haddan ziyod sevmok; Tabiblar istilohida biror go`zal narsani ko`rib qolish natijasida paydo bo`ladigan kasallik. Abdurazzoq Shorih Zuhuriy “Sharhi asbob” va “Futuhoti hikam”dan naql qilishicha, *ishq* loviyaga o`xshagan o`sadigan, (lekin) daraxtlarga chirmashib, uni quritadigan bir o`simlik nomidir”¹¹³. Endi uni *muhabbat* so`zining tarixiy-etimologik tahlili bilan solishtirsak, fikrimiz biroz oydinlashadi. *Muhabbat* *habba* حب – “sevmok”, “yaxshi ko`rmok”, “qattiq muhabbat bog`lamoq”, “arzanda qilmoq” fe`li asosida shakllangan¹¹⁴. Uning “tilamoq”, “orzu qilmoq”, “xohlamoq” ma`nolari esa dastlabki ma`noga mantiqiy bog`liqlik natijasida hosil bo`lgan. Demak, tahlillar bir tushunchaning turli qirralarini ifodalovchi ushbu so`zlardan *ishq*da ma`no ustunligi mavjudligini, ya`ni *ishq* so`zida sevgi mazmuni kuchliligini ko`rsatadi. Bu holni ushbu so`zlarning o`zakdoshi bo`lgan, aniqrog`i, shaxs oti hosil qiluvchi shakllari

¹¹² Носиров О., Юсупов М. Ан-наъим. Арабча-ўзбекча луғат. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2003. – Б. 541.

¹¹³ Ғиёсиддин Рампурий. Ғиёсу-л-луғот. – Лакхнау: 1886. – С. 324.

¹¹⁴ Носиров О., Юсупов М. Ан-наъим. Арабча-ўзбекча луғат. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2003. – Б. 541.

oshiq va *muhib* soʻzlari orqali ham koʻrishimiz mumkin. Deylik, biror shaxsga yoki narsaga koʻngil bogʻlagan inson *muhib* boʻlishi mumkin, lekin bu muhabbat komil boʻlmaguncha, inson ushbu sevgi orqali kamolot kasb etamaguncha *oshiq* darajasiga koʻtarila olmaydi. Shuning uchun ham, Ahmad Yassaviy “Har ne qilsang *oshiq* qilgʻil, Parvardigor!” – deydi. Alisher Navoiyning “Boʻlmasa *ishq* ikki jahon boʻlmasun” misralaridan ham ayni shu fikrni tasdiqlaydigan jihatlarni topamiz. Bizningcha, muhabbat (muhiblik) *ishq* maqomiga boʻlgan dastlabki odimdir. Nodiraning

“Muhabbatsiz kishi odam emasdur,

Gar odamsen, muhabbat ixtiyor et”

baytini ayni shu nuqtai nazardan tahlil qilish mumkin.

Ushbu tahlillardan maʼnodosh soʻzlardan tashkil topgan juft soʻzlarda tarkiblar anglatgan tushunchani nisbatan kuchli ifodalovchi qismi birinchi oʻrinda keladi, degan xulosa chiqarish mumkinday tuyulsa ham, uni boshqa shunday soʻzlar bilan qiyoslash yuqorida bayon qilingan tarzda xulosa yasashimizga monelik qiladi. Jumladan, oʻzbekcha+arabcha *sevgi-muhabbat* juft soʻzida sevgi tushunchasi birinchi komponentdan koʻra ikkinchi komponentda kuchliroq ifodalangani koʻrinib turibdi. Yoki almashtirib qoʻllash ham mumkin boʻlgan maʼnodosh komponentlardan tarkib topgan juft soʻzlar ham mavjudligini eʼtiborga olaylik. Masalan, *doʻst-yor – yor-doʻst*. Bu mulohazalar juft soʻz komponentlarida tartib masalasiga oid “komponentlar tartibi maʼlum bir qoidaga asoslanilmaydi, ularning tartibi har bir juft soʻz qismlarining oʻziga xos fonetik, leksik-semantik xususiyatlari bilan alohida izohlanadi” – degan xulosani mustahkamlaydi. Demakki, *ishq-muhabbat* juft soʻzida *ishq* komponentining birinchi oʻrinda kelishi kam boʻgʻinli soʻzning oldin joylashishi bilan izohlanadi.

Ushbu mulohazalarimizni asoslovchi dalillarni *doʻst-yor* va *yor-doʻst* juft soʻzlarining tahlili orqali ham topamiz. *Doʻst* soʻzining lugʻatlarda quyidagi maʼnolarda ishlatilgani qayd etiladi:

1. Yor, oʻrtoq.
2. Oshiq.

3. Tarkibli soʻzlarda “yoqtiruvchi”, “sevuvchi” maʼnolarida.

Masalan, *bashardoʻst* (gumanist, insonparvar), *dunyodoʻst*¹¹⁵. Oʻzbek mumtoz adiblari tilida qayd etilgan maʼnolarning barchasi ishlatilgani kuzatiladi. Yor soʻzi pahlaviy tilida *āyārih*, *ayār* shakllarida qoʻllanilgani:

- 1) sevikli, maʼshuq;
- 2) doʻst;
- 3) oʻrtoq;
- 4) hamroh maʼnolarini berishi izohlanadi¹¹⁶.

Forscha *yor* oʻzbekcha *yor* (feʼl negizi) bilan omonimlik kasb etsa ham, forsiy *yor* soʻzining unlisi nisbatan kengligi bilan farqlanadi. Buni ayniqsa, eski oʻzbek tilidagi nazmiy asarlar misolida yaqqol koʻrish mumkin.

Ushbu soʻzlar qoʻllanilgan eski oʻzbek tilidagi va hozirgi adabiy tilimizdagi matnlarga bir bor nazar tashlash ushbu maʼnodosh soʻzlardan “doʻst”da “yor”ga nisbatan anglashilayotgan tushuncha umumiy va keng qamrovli aks etganini koʻramiz. Shuning uchun ham *doʻst* soʻzida inson uchun sevimli shaxs yoki boshqa moddiy-maʼnaviy tushunchalar toʻlaroq aks etadi. Tilimizda ushbu oʻzlashma asosida aynan “yor tutmoq” emas “doʻst tutmoq” (masalan, biror shaxsni, moddiy yoki maʼnaviy biror narsani – dunyoni, kitobni, Yaratganni kabi) feʼlining shakllanishi ham bejiz emas. Bundan tashqari *doʻst* soʻzida *yorga* nisbatan biror insonga yaqinlik semasi kuchliroq aks etadi. Deylik, bu soʻzda shaxslar oʻrtasidagi zavol topmas va aks holatga oʻtmas darajadagi yaqinlik nazarda tutiladi. Mumtoz adiblarimiz ijodidagi muhim intim, ijtimoiy-siyosiy mulohazalar doʻstga murojat orqali aks etgani ham bejiz emas. Masalan, Alisher Navoiyning oʻta intim, behad hissiy fikrlari “Qilmangiz bekasligimni taʼn bir kun bor edi, Menda ham bir nozanin chobuksuvor, ey doʻstlar!” tarzida ifoda topgani bu mulohazalarimizni quvvatlaydi. Ushbu holat ikki maʼnodosh soʻz oʻrtasidagi xususiylik boʻlsa, ularning oʻrtasida umumiy jihatlar ham koʻp. Jumladan, har ikkala soʻz ham insonga yaqin biror inson degan maʼnoni ifodalaydi. Endi ushbu holatni boshqa

¹¹⁵ Муъин М. Фарҳанги форсий. 2-том. – Техрон: Амири Кабир, 1996. – С. 1577.

¹¹⁶ Муъин М. Фарҳанги форсий. 4-том. – Техрон: Амири Кабир, 1996. – С. 5241.

jonzotlarga nisbatan qo'llashda ma'nodoshlar o'rtasida tafovut yuzaga keladi, ya'ni "it – insonning do'sti" yoki "Boychibor – Alpomishning do'sti" kabi ifodalarda *do'st* va *yor* so'zlarini bir-biriga almashtirish imkoni yo'qligi yuqorida aytib o'tganimizdek, *do'stda yorga* nisbatan umumiylik mavjudligi, ayni paytda semani kuchli ifodalay olish qobiliyati mavjudligi yaqqol ko'rinadi. *Yor* so'zining *do'stga* nisbatan semasi "kuchsizlanishi"ga sabablardan biri uning "hamroh", "yo'ldosh" ma'nolarini ham kasb etganidir. Chunki, har qanday hamroh ham do'st bo'la olmasligi tayin.

Bobda bayon qilingan materiallar asosida asar lug'at fondining tematik xususiyatlari borasida quyidagicha umumiy xulosalarni bayon qilish mumkin:

- asar leksikasi mavzuiy-semantik guruhlar diapazoni ancha keng bo'lib, bu uning mavzu ko'lamini, unda bayon qilingan voqealarning xilma-xilligi, geografik va tarixiy hududning kattaligi, xalq turmush tarzining turli jabhalari bilan bog'liq hodisalar tilga olingani kabi ko'plab omillarga borib taqaladi;

- asar mavzusiga bog'liq ravishda, tabiiyki, unda harbiy leksika hamda ijtimoiy-siyosiy terminlarni ifodalovchi so'zlar salmog'i katta;

- asarda qo'llanilgan turli leksik-tematik guruhlariga mansub arabcha va forscha o'zlashma so'zlarning katta qismi hozirgi o'zbek adabiy tilida ham faol ishlatiladi. Bu, xususan, fitonimlar, zoonimlar, qarindoshlik terminlarga tegishli.

- asar lug'at fondidagi so'zlarni leksik-tematik tadqiqi uning leksikasini tizimli, izchil tadqiq qilishda muhim o'rin tutadi.

II BOB. “FIRDAVS UL-IQBOL” ASARIDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY LEKSIKA

II.1. “Firdavs ul-iqbol” asaridagi diniy terminlar. Eski o`zbek tilida diniy, shuningdek, tasavvufiy terminlarning katta ko`pchiligi arab tilidan o`zlashganligi tabiiy, albatta. Shunday bo`lishiga qaramay, eski o`zbek tilidagi ham, hozirgi adabiy tilimiz va shevalarimizdagi diniy terminlarning genetik mansubligi arab tili bilan chegaralanmaydi. O`zbek tili diniy terminlar tizimida fors tiliga mansub so`zlar ham, o`z qatlamga mansub so`zlar ham ancha. Biz quyida mavzumizdan kelib chiqqan holda asarda qo`llanilgan genetikasi eroniy tillarga, xususan, fors tiliga aloqador diniy terminlar xususida so`z yuritamiz.

Asarda qo`llanilgan fors tilidan o`zlashgan diniy terminlar o`z navbatida kichik mavzu guruhlariga bo`linadi. Bularni

- a) mutloq iloh tushunchasini ifodalovchi so`zlar;
- b) payg`ambar tushunchasini ifodalovchi so`zlar;
- v) farishta tushunchasini ifodalovchi so`zlar;
- g) jannat va do`zax tushunchasini ifodalovchi so`zlar;
- d) ibodatga aloqador tushunchalarni ifodalovchi so`zlar;
- j) turli mazmundagi diniy terminlar kabi guruhlariga ajratish mumkin.

Mutloq iloh (xudo) tushunchasini anglatuvchi so`zlardan biri *xudā* bo`lib, hozirgi adabiy tilimiz va shevalarimizda ham bu so`z mazkur sinonimik qatorda dominanta vazifasini bajaradi. O`zbek tilida mazkur so`z ikki xil ma`noda ishlatiladi:

1. Musulmon kishi tilida yagona xoliq nomi.

2. Boshqa dinlarga mansub adabiyotlarda iloh tushunchasini umumiy ifodasi. Masalan, *olov xudosi*, *quyosh xudosi*. Keyingi holatni nazarda tutgan holda ayrim diniy adabiyotlarda yagona xoliq nomi sifatida faqat *Alloh* lafzini qo`llash lozimligi haqida so`z yuritiladi¹¹⁷. Albatta, lafzullohning ishlatilishi har qanday gumonga chek qo`yadi. Lekin, bizningcha, bu fikr uncha ma`qul emas. Chunki musulmon kishi nutqida *xudo* so`zi yagona xoliq ma`nosinigina ifodalaydi. (Agar

¹¹⁷ Динда саволим бор. – Тошкент: 2009. – Б.

boshqa diniy e`tiqodlar, inonchlar xususida gap ketmayotgan bo`lsa). Masalan, Alisher Navoiy asarlari tilida turkiy *tengri* va forsiy *xudo* so`zlari Alloh lafzining mutloq sinonimi sifatida namoyon bo`ladi. Misol tariqasida “Lison ut-tayr” va “Saddi Iskandariy”ning birinchi misralariga yoki “Mahbub ul-qulub”dan olingan mashhur hikmatga e`tibor qarataylik:

Xudoyo, musallam xudoliq sanga,

Birav shahki, da`bi gadoliq sanga¹¹⁸.

Jon qushi chun mantiqi roz aylagay,

Tangri hamdi birla og`oz aylagay¹¹⁹.

Yoki “Shogird agar shayxul islom agar qozidur, agar ustod andin rozidur, *tengri* rozidur¹²⁰”.

Yuqoridagi “*tengri* hamdi birla og`oz aylagay” misrasidagi “og`oz”ning denotativ ma`nosi *boshlash* ekanini nazarda tutsak, Alisher Navoiy g`oyat san`atkorona tarzda Qur`oni karim Tangri – Alloh hamdi – “Fotiha” (“Alhamdu”) surasi bilan boshlanishiga ishora qilmoqdaki, bu bizning yuqoridagi mulohazalarimizni qat`iy dalillaydi.

Xudo so`zining umuman iloh ma`nosini anglatishi tasodifiy emas. Chunki mazkur so`z pahlaviy tilida shoh ma`nosini ifodalagan bo`lib, *xvatâya* // *xvatây* shaklida ishlatilgan. Jumladan, eroniy shohlar tarixi bitilgan kitob “*Xvataynâmak*” (“*Shohnoma*”) deb nomlangan<sup>121</sup>. *Xvatây* so`zining dastlabki ma`nosi “ega”, “sohib” bo`lganini “uy egasi” ma`nosidagi kadxudo ادخ ه ناخ; كد خدا kabi so`zlarda yoki *Buxorxudot* kabi istarizmlar tarkibida ko`rishimiz mumkin. Mashhur forsiy farhanglardan biri “*Burhoni qote`*”da bu so`z mazmunan muvofiq tarzda bo`lsa ham *xud+o* (o`z-o`zidan yuzaga keluvchi) tarzida xalqona sharhlangan¹²². Mazkur so`zning etimologiyasi xususida K.Bartolome kabi eronshunoslar bildirgan fikr e`tiborlidir. Ular pahlaviy tilida *Xvatâya* bo`lgan bu so`zning genetikasi qadimgi

¹¹⁸ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Ўн биринчи том. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 7.

¹¹⁹ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Ўн иккинчи том. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 7.

¹²⁰ Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик, 12-том. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Бадий адабиёт нашриёти, 1966. – Б. 23.

¹²¹ شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶. جلد ۴ ص 818

¹²² شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶. جلد ۴ ص 818

hind tilidagi *svatastâyu* (o`z-o`zidan tirik) yoki *svatastâdi* (o`z-o`zidan boshlanuvchi) so`ziga borib taqalishini qayd etganlar¹²³.

Ogahiy tarixiy asarlarida *xudo* so`zi yolg`iz holda (biror so`z tarkibiy qismida bo`lmagan holda) yagona xoliq ma`nosinigina ifodalagan. Buni Ogahiyning lirik va tarjima asarlari tiliga ham xos deyish mumkin. Masalan:

Ey ko`ngul, qil barcha komingni xudodin multamas,

Istasang rohat zamona ahlidin payvand kas¹²⁴.

Xudo o`zagi asosida shakllangan *xudovand* so`zi *xudo* va mansublikni anglatuvchi –*vand* qo`shimchalarining birikuvidan iborat. Bu so`z fors tilida ham, eski o`zbek tilida ham “iloh” hamda “shoh” ma`nolarida ishlatilgan. Masalan, “Saddi Iskandariy”ning

Xudovandi bemislu monandsen,

Xudovandlarg`a xudovandsen¹²⁵

baytidagi uch o`rinda qo`llangan *xudovand* so`zi birinchi va uchinchisida “iloh”, “tangri”, ikkinchisida esa “shoh” ma`nosida ishlatilgan. Bu so`z *xudovandi taolo*, *xudovandi karim* kabi izofiy holatlarda iloh tushunchasini muayyanlashtirib ifodalaydi.

Eski o`zbek tilida, jumladan, Ogahiy asarlari tilida iloh tushunchasini anglatuvchi so`zlardan biri *yazdân* یزدان dir. Bu so`z “Avesto”da *yazatanam*, pahlaviy tilida *yaztân*, *yazdân* shakllarida ishlatilgan bo`lib, aslida avestoviy “iloh” ma`nosida *yazata* so`zining ko`pligidir. Fors tilida esa birlik mazmunini anglatgan holda o`tgan. Fors mumtoz adiblari tilida bu so`z iloh nomi; xayrli ishlarni qiluvchi farishta nomi va zardushtiylar e`tiqodidagi yaxshilik tangrisi Axuramazda nomi sifatida ishlatilgan. Shuning uchun bu so`zga SHamsiddin Muhammad Tabriziy “fiqhan botil hudo, she`ran (bu erda urfiy ma`no nazarda tutilmoqda) Haq taoloni anglatadi” deb bergan izohi to`g`ridir<sup>126</sup>. Mazkur so`z

¹²³ Bartholomae Ch. Altiranisches Worterbuch. – Strassburg, 1950. – P. 862.

¹²⁴ Огаҳий. Асарлар. 2-том. – Тошкент, 1972.

¹²⁵ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Ўн биринчи том. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 7.

¹²⁶ شمس الدين محمد بن خلف تبریزی. برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶. جلد ۴ ص 2432

o`zagi bo`lgan *yazata Yazdonbaxsh, Yazdigard* kabi tarixiy nomlar tarkibida ham uchraydi¹²⁷.

Payg`ambar tushunchasini anglatuvchi so`zlardan biri *peyg`omber* پیغمبر yoki *peyomber* پیامبر dir. Uning ikkinchi shakli ko`proq she`riy nutq uchun xosdir. O`zbek tilining XIV asrdan keyingi taraqqiyotida bu so`z mazkur tushunchaning turkiy ifodasi bo`lgan *savchy, yalavach* so`zlariga nisbatan faollashgan<sup>128</sup>. *Peyg`ember* so`zi tarixan ikki qismdan iborat: *payg`ām* پیغام va *bar* بر. *Peyg`ām* پیغام - “xabar” va *ber* بر – “eltish”, “yetkazish”<sup>129</sup>. Bu so`z Ogahiy tarixiy asarlarida o`zining arabiy ekvivalenti *resul* رسول ga o`xshab lug`aviy ma`nosida ko`zga tashlanmaydi, ya`ni diplomatik termin sifatida yoki biror xabarni yetkazuvchi shaxs ma`nosida uchramaydi. Faqat *payg`om* پیغام so`zi “xabar”, “yangilik” ma`nosida ishlatilgan holatlar bor. Masalan, Bekish xalifani Solorg`a elchi qilib, mundok *payg`om* yibordilarkim,... (45^b).

Ogahiy asarlarida bu so`z keng ma`noda *payg`ambarlik* maqomi bilan mumtoz shaxs, tor ma`noda Muhammad alayhissalomni nazarda tutuvchi so`z sifatida qo`llanilgan.

Bizningcha, *payg`ambar* so`zidagi *bar* qismi farishta متشیرف so`zida ham bor. Chunki farishta so`zining o`zi sanskrit tilida *prêshita* shaklida ishlatilgan bo`lib, *êsh* + *pra* tarkibidan tashkil topgan va aynan “*xabar beruvchi*”, “*xabar yetkazuvchi*” ma`nosini beradi¹³⁰.

K.Bartolome qadimgi eroniy tilida *fraishta* shaklida bo`lgan bu so`z *aish* + *fra* tarkibidan tashkil topib, “elchi”, “xabar etkazuvchi” ma`nolarida ishlatilganini qayd qiladi¹³¹.

Ogahiyning mazkur asarida bu so`z arabcha “malak” ملك so`ziga sinonim sifatida ishlatilgan. Farishta haqidagi tasavvurlar va e`tiqodlar natijasida uning “*begunoh*”, “*ma`sum*” ma`nolari kelib chiqqan.

¹²⁷ مازندرانی حسین شهید فرهنگ شاهنامه (نام کسان و جاها) بلخ بنیاد نشاپور ۱۳۸۸. ۴۸۶ ص.

¹²⁸ Боровков А.К. Лексика среднеазиатского тefsира XII-XIII вв. –М.: 1963. –

¹²⁹ Персидско-русский словарь. Том II. – М.: Русский язык, 1983.

¹³⁰ شمس الدین محمد بن خلف تبریزی. برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶. جلد ۴ ص 1463

¹³¹ Bartholomae Ch. Altiranisches Worterbuch. – Strassburg, 1950. – P. 31.

Jannat tushunchasini anglatuvchi behisht تشهب so`zining tarixiy ildizlariga nazar solsak, uning “Avesto”da *vahishta* shaklida ishlatilgan va *vohu* - yaxshi, nek va *isht* – kichraytirish, erkalash qo`shimchalaridan tarkib topganini ko`ramiz. Aslida bu so`z dastlab *vahishta anghu* shaklida bo`lgan bo`lib, uning *anghu* qismi “olam”, “jahon” ma`nolarini beradi. Pahlaviy tilida bu so`z keyinchlik aniqlanmishi qisqargan holda *vahisht* shaklida qo`llanilgan<sup>132</sup>. Demak, *vahishta anghu* aynan “eng yaxshi joy” ma`nosini beradi va uning aniqlanmish qismi qisqarishi, ya`ni fors tilida *beh* مهب<sup>133</sup> shaklini olgan. *Vahining* lug`aviy ma`nosi unutilishi va sifatning otga ko`chish holati substavitantsiya (?) bilan izohlanadi. “JVS”da bu so`z bir necha izofiy ko`rinishlarda keng qo`llanilgan. Masalan, - behishti barin بهشت برین – yuksak jannat.

*Do`zax* دوزخ so`zi esa “yomon” ma`nosidagi *dush* va yuqorida izohlangan *anghu* (olam) tarkiblaridan tashkil topgan. Bu so`z “Avesto”da *daozhahra* tarzida ishlatilgan bo`lsa, qadimgi eroniyda *duzhahu*, *duzhaxva* shaklida bo`lgan¹³⁴. Hozirgi o`zbek adabiy tilidagi *dushman*, *dushvor* (qiyin) so`zlarida ham tarixan *dush* tarkibi bor. Asarda *do`zax* so`zi ham uning sifatlarini ifodalovchi so`zlar bilan izofiy birikma hosil qilgan holda ishlatilgan.

Asarda diniy ibodatlarga aloqador so`zlardan bo`lgan *nəmoz* نماز keng qo`llanilgan. Eski o`zbek tilida bu so`z faqat islomga xos ibodat (arabcha salot صلاة) ma`nosida ishlatilgan bo`lsa ham, qadimgi e`tiqodlarda ham ibodat *namoz* so`zi bilan ifodalangan. Bu so`z pahlaviy tilida *namâs* bo`lib, qadimgi eroniy tilida “egilmoq”, “ta`zim qilmoq” ma`nosidagi *nam* so`zi bilan aloqadordir¹³⁵. “Avesto”da *nemah* “duo” ma`nosini anglatgan bo`lsa, bu so`z sanskritda *nâmas* ko`rinishiga ega bo`lgan¹³⁶. M.:

Asarda islomdagi besh vaqt namoz vaqtlari arabcha nomlari bilan birga aslida fors tilidan o`zlashgan va xalq orasida ishlatiladigan shakllari ko`proq qo`llanilgan. Masalan, *bamdâd namâzi* بامداد نمازي yoki *namâzi bamdâd* بامداد نماز. *Bomdod* so`zi

¹³² شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶. جلد ۴ ص 327

¹³³ Персидско-русский словарь. Том II. – М.: Русский язык, 1983. –

¹³⁴ اوستا. مترجم جلیل دوستخواه. تهران. مروارید. ۱۹۹۱. ۱۱۲۶. ص

¹³⁵ Bartholomae Ch. Altiranisches Worterbuch. – Strassburg, 1950. – P. 1041.

¹³⁶ شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶. جلد ۴ ص 2167

eski o'zbek tilida ham, hozirgi adabiy tilimiz va shevalarda islomga xos ibodat nominigina anglatga ham, uning genetikasi zardushtiylilik aqidalariga borib taqaladi. Chunki, bomdod so'zi tarixan *bâm+dâd* qismlaridan tarkib topgan bo'lib, *bâm* qismi "Avesto"da *Bamyah* nomi bilan qayd etilgan quyoshga chiqish vaqtida jilovdorlik qiladigan iloh nomi sifatida uchraydi¹³⁷. *Dâd* qismi esa qadimgi eroniyda *daita* shaklida uchrovchi "qonun" ma'nosidagi so'zdir. M.: Bomdod namozi.

Peshin پیشین so'zi sutka qismlaridan birining nomi bo'lishi bilan birga shu vaqt davomida (kun qiyomdan keyin soya ikki barobar bo'lgunga qadar vaqt) ado etiladigan namoz nomidir. Aynan "oldingi" (pesh+in) ma'nosini anglatgan bu namozning shunday nomlanishi xususida G'iyosiddin Rampuriy "Jabroil alayhissalom Payg'ambar s.a.v.ga ta'lim bergan ilk namoz shu vaqtda ado qilingan. Keyinchalik mazkur namoz peshin nomini olgan"¹³⁸ deb yozadi. Masalan: "*peshin* bo'lg'ondin so'ng otdin tushub, beparvolig' bila bir mavze'da o'lturmish erdilar". (61^b).

Yana bir namoz nomi *namâzi digar* نماز دیگر bo'lib, hozir ham xalq orasida shu namoz va shu namoz ado etilishi mumkin bo'lgan vaqt *nemezger* deb yuritiladi. Aynan "boshqa namoz" degan ma'noni anglatuvchi *namozidigar* so'zi haqida uni bomdod, peshin namozlariga nisbatan olib shunday nomlangan, degan mulohazalar bor. Bizningcha, bu yerdagi *digar* دیگر so'zini "o'zga", "boshqa" ma'nolarida emas, "o'zgacha", "boshqacha" ma'nolarida tushunish kerak.

Din arboblarning rahnamosi arabcha *mufti* istilohi bilan nomlangan: va sarvari arbobi din, muftii firoyatoyini oliymaqom Nizomuddin xoja eshon... (RD, 128). Buxoro amirligida mufti mansabi shayxulislomdan keyingi amal bo'lib, muftilarning orasida eng oliysi *a'lam* istilohi bilan atalgan. Ular fuqaro uchun fatvo berishga mas'ul bo'lgan. Lashkar muftilari ham mavjud bo'lib, ular asosan

¹³⁷ اوستا. مترجم جليل دوستخواه. تهران. مرواريد. ۱۹۹۱. ۱۱۲۶. ص

¹³⁸ غياث اللغات

harbiy yig`inlar yoki yurishlar chog`ida askarlarga fatvo berish bilan band bo`lgan¹³⁹.

Vaqf mulkiga vasiylik qilish mas`uliyati arabcha *mutavalliy* termini bilan ataluvchi amaldor zimmasiga yuklatilgan. Xiva xonligida mavjud urug`larning ham mutavalliyi bo`lgan: yamutiyaning besh urug`ining besh kadxudosin va mutavalliysin o`zining humoyun majlisig`a undab...

Madrasalarda talabalarga saboq o`rgatuvchi shaxs *domla* istilohi bilan ifodalangan: Ul jumladin, fahmu zako ahlig`a nadish... domla Ibrohim va g`ayrihum edilar.

“Boshliq, diniy rahnamo” ma`nosini ifodalovchi *rais* termini matnlarda *qozi*, *mufti* mansablarini anglatuvchi terminlardan so`ng ishlatilganini hisobga olib, raisning yuqori amallardan biri ekanligi haqida xulosa qilish mumkin: va maxzumi fatonatjalis Xoja Ibrohim rais...

“Dildorlar orasida obro`-e`tibor qozongan ruhoniylar, din peshvosi” ma`nosi forscha-tojikcha *eshon* istilohi yordamida ochilgan: mufti daroyatoyini oliymakon Nizomuddin Xoja eshon...

“Martabali zot, ulug` kishi” sememasi arabcha *maxzum* o`zlashmasi yordamida ifodalangan: va afzali ahli eshon Sa`diddin maxzum . Alisher Navoiy asarlarida ushbu o`zlashma *maxdum* fonetik shaklida qo`llangan. Buxoro xonligida ham *domla*, *rais* terminlari ruhoniylar egallagan yuqori mansablardan hisoblangan. Bunday shaxslarga o`rni bilan elchilik vazifasi ham yuklatilgan:

Umuman “taqvodor” semasini ifodalash uchun *so`fiy* leksemasidan foydalanilgan: amir Nasrulloning bu dargohi olampanohdin borg`an elchilarikim, fazoyilmaob domla Eshmurod rais bila... Oллоhberdi so`fiy erdilar va h.k.

**II.2. Ilm-fan, san`at terminlari tizimi.** Ilmiy hamda madaniy-ma`rifiy hayot hamisha solnomanavislikning tarkibiy qismlaridan biri bo`lib kelgan. Jumladan, JVSda ilm-fan, san`at terminlari tizimiga kiruvchi bir necha lug`aviy birliklarni ko`ramiz. Masalan, *as`adi soot* – munajjimlikda biror xayrli ishni

¹³⁹ Мирза Бади-диван. Маджмаал – арқам. Факсимиле рукописи. Введение, перевод, примечания и приложения А.Вильдановой. М., 1989. – С. 92.

amalga oshirish uchun eng qulay, baxtli deb topilgan vaqt¹⁴⁰: sanai hijriya ming ikki yuz oltmish uchda yilqi yili rabialavval oyining o`n segizida dushanba kunikim, *as`adi soot va arshadi avqot* erdi. (11^a).

Burj, daraja asronomiyaga oid terminlar: “quyosh shohsuvorining sayri *jadi burjining* oltinchi *darajasig`a* etmish erdi, (72^b). *Burj* shaklidagi yana bir termin binokorlik va harbiy terminlar tizimiga mansubdir: *burju borular* bino qilib,.. (64^b).

*Ta`rix* – adabiy termin<sup>141</sup>: “Ul madrasaning binosiga zamon fuzalosi va davron shuarosi g`arro ta`rixlar nazm silkiga chekib, ul hazratning altofi xisravonasidin bahramand bo`ldilar...(69^a).

II.3. “Firdavs ul-iqbol” asarida maishiy leksika. Asarda qo`llanilgan maishiy leksikaga mansub so`zlarni o`z navbatida ichki guruhlariga ajratish mumkin. Shulardan biri kiyim-kechakka oid so`zlardir. O`zbek tilshunosligida monografik palanda o`rganilgan¹⁴². Bundan tashqari Xiva xonligida kiyim-kechak tarixi maxsus tadqiq qilingan¹⁴³. Asarda kiyim-kechakni umumlashtirib ifodalovchi arabcha va forsha o`zlashma bo`lgan *libos* (ko`pligi *albisa*), *kisvat*, *xil`at*, *xilo`*, *sarupo* so`zlari ishlatilgan.

Xilo`i foxira*, *xilo`i tillado`z*, *xilo`i mulukona – xon tomonidan in`om qilinadigan faxriy kiyim-bosh: “*xilo`i mulukona* in`omidin bahramand va arjumand bo`ldilar. (70^a).; “... *xilo`i xurshidshio`* va *albisai* garonbaho in`omi bila o`z akfo va ashbohlari orasida quyosh yanglig` mumtoz va sarafroz qildilar.

¹⁴⁰ بزرگترین کتابخانه شعر فارسی. لغت نامه . Al-rams. www.mehrahgam.com.

¹⁴¹ Жуновмардиев А. Харф ва рақам. – Тошкент: Фан, 1971; Харфлар рақамларга айланганда. –Тошкент: Фан, 1966; Нодир саҳифалар.-Тошкент: Фан, 1977; Орзибеков Р. Ўзбек шеъриятида сирли-синкретик жанр ва шакллр. –Самарқанд: 1990; Лирикада кичик жанрлар. –Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1976; Асадуллаев С., Оқилов М. Таърих айтиш санъати // Ўзбек тили ва адабиёти. 1972 №3; Ўзбек классик шеърияти жанрлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 178-182. Абдулҳаким М. Огаҳий таърихлари ҳақида // Хоразм Маъмун академиясининг Ахборотномаси. 2007, 2(3). – Б.23-29.

¹⁴² Асомутдинова М. Ўзбек тилида кийим-кечак ва унинг қисмлари номлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 1970.

¹⁴³ Мукминова Р. Г. Костюм народов Средней Азии по рисменным источникам в // Костюм народов Средней Азии. М, 1979.; Мукминова Р. Г. Костюм народов Средней Азии по рисменным источникам в // Костюм народов Средней Азии. М, 1979 .; Сухарева О.А. Одежды населения города Самарканда за 100 лет. Рукопись. Архив института истории и археологии АН Уз. Ее же. Об одежде узбеков. Бюллетень Уз ГУ, Самарканд: 1944; Нуруллаева Ш. Либосларда акс этган тарих. // Илм сарчашмалари, 2009. № 5.; Нуруллаев Ш. Из истории выработи шелка и производство одежды в хивинском ханстве (конные XIX – начале XX) // Хоразм Маъмун академияси Ахборотномаси. . 2007. №3(4). – С. 33-37.

(11^b).; *libosi* mulamma` inoyat qilib, yana ming kishiga *sarupoyi* zardor baxshishidin harabardorlig` bag`ishladilar. (19^a).

II.4. Savdo-moliya terminlari. Asarda qo`llanilgan savdo-moliya ishlari bilan bog`liq bo`lgan arabcha va forsha so`zlarni tijorat va moliyaviy amaliyotlar, to`lovlar, tushum va hujjat turlarini ifodalovchi terminlar hamda savdo-sotiq sohasi vakillari, muassasalari, maxsus joy nomlari tarzida ichki guruhlariga ajratish mumkin.

Asarda savdo-sotiq, moliyaviy munosabat tushunchasi asosan hozirgi adabiy tilimizdagi kabi *savdo* so`zi orqali ifodalangan. Bu so`zning ushbu ma`nosi Alisher Navoiy asarlari qayd etiladi:

Zihi husnuing zuhuridin tushub har kimga bir *savdo*,

Bu *savdolar* bila kavnayn bozorida yuz g`avg`o¹⁴⁴.

Mumtoz adiblarimiz tilida *savdo* shaklida genetik manbasi jihatidan alohida-alohida ikkita so`z bor bo`lib, ularning har birining o`ziga xos ko`chma ma`nolari ham mavjud. Alisher Navoiy asarlarida *savdo* so`zining quyidagi ma`nolarni anglatishi qayd etiladi: I a. Qora o`t (inson organizmi). II a. 1. Kuchli ehtiros, berilish, ishq, shaydolik. 2. Xayol, tentaklik; jinnilik. 3. Istak, havas, orzu. III f. Oldi-sotdi¹⁴⁵. Ushbu so`zlarning genetik tahlili arab lug`aviy qatlamiga mansub so`z sifatida Rim raqami bilan belgilangan birinchi va ikkinchi ma`no aslida bir so`zning turli ma`no qirralari ekanini ko`rsatadi. Chunki arab tilida ushbu so`zning o`zagi bo`lgan fe`lning asl ma`nosi “bosh bo`lmoq”, “boshliq bo`lmoq”, “boshqarmoq”; “hukmronlik qilmoq”, “hokimiyat tepasiga chiqmoq”dir. Uning “qora bo`lmoq”, “qoraymoq” ma`nosi esa qayd etilgan mazmunlarda ma`no ko`chishi natijasida yuzaga kelgan¹⁴⁶. Ehtimol, bunda Sharq xalqlarining ko`pchiligi kabi (bu holat turkiy xalqlarda ham bor) qora rangning kuchlilik, hukmronlik belgisi ekanligi asos bo`lgan. So`zning “qora” ma`nosi esa o`z navbatida “qora jigar” ma`nosidagi inson organizimini anglatishi uchun asos bo`lgan. Sharq tabobatida inson tana tarkibidagi to`rt xilt o`rtasida muvozanatning

¹⁴⁴Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 29.

¹⁴⁵ Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 537.

¹⁴⁶Носиров О., Юсупов М. Ан-наъим. Арабча-ўзбекча луғат. –Тошкент: Тошкент Ислон университети нашриёти, 2003. – Б. 399.

buzilishi uning ruhiy holatini salbiy tomonga o`zgartirishi haqidagi qarashlardan kelib chiqib, ruhiy kasallikka chalinganlar *savdoyi* deb ham atalgan. *Savdo* so`zining ruhiy siqilish, g`amginlik, melanxoliya ma`nolari shu tarzda yuzaga kelgan. Ko`rinadiki, yuqoridagi baytda *savdo* so`zining ikki marta (*savdo-sotiq*; *tashvish*, *g`am*) qo`llanishi orqali tajnis hamda ularning ko`chma ma`nolari (*havas*, *ehtiros*, *oshiqlik*) orqali *iyhom* san`atlari qo`llanilgan. Boburning mashhur “sochining savdosi tushti boshima boshdin yana” misrasida ham shu tarzda *iyhomning* go`zal namunasi yaratilgan.

Fors lug`aviy qatlamiga mansub *savdo* so`zining arabiy bu so`zga omonimlik kasb etishi turli tillarga mansub so`zlarning shaklan muvofiq kelib qolishidek ko`p uchraydigan hodisa natijasidir. Jumladan, arabcha *savdo* savadda – qoraymoq fe`lidan hosil bo`lgan sifatning arab tili qoidalariga muvofiq *fa`laa* qolipida hosil bo`lgan muannas (uning muzakkar ko`rinishi af`al vaznida *asvad*) shakli bo`lsa, forsiy *savdo* so`z ham ma`lum shakliy va ma`noviy taraqqiyotni bosib o`tgan. Bu so`zning o`zagi pahlaviy tilida “foйда” ma`nosini anglatuvchi *sût* bo`lib, uning ildizi avestoviy *sav* – *foйда olmoq* fe`liga borib taqaladi<sup>147</sup>. Demakki, asardagi quyidagi parchada *savdo* va *sud* so`zlarining qo`llanishidan ishtiyoq hosil qilingan: “*Savdodin sud qilg`on korvondek o`z vatangohiga murojaat ko`rguzdilar*”.

Asarda mazkur so`zning “*havas*”, “*istak*” tarzidagi ko`chma ma`nolari ham ishlatilgan. Jumladan, “*nafsi ammora taqozosi bila savdoyi xom va xayoli nofarjomga dimog`lari koxida yo`l berib,..*”. Qayd etish kerakki, *savdoning* ushbu asar lug`at tarkibida mavjud “*boshlanish o`rni*”, “*bosh*” ma`nosi Alisher Navoiy asarlarida uchramaydi. Bu ma`no, albatta, arabcha *savada* fe`lining yuqorida zikr etilgan mazmuni bilan bog`liq. Masalan, “*shanba kuni Qozuqlibandgakim, Yo`lo`tan yofining savdosidur, vorid bo`lub, nuzuli ijlol ko`rguzdilar*”.

شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶. جلد ۴ ص ۱۱۸۴¹⁴⁷

Ushbu soʻz asosida yasalgan *savdogar* soʻzi asardagi voqealar bayonidan asosan oʻzga yurtlarga borib tijorat ishlari bilan shugʻullanuvchi shaxslarga nisbatan ishlatilgani kuzatiladi. Jumladan, “Lubob sori boraturgan baʼzi koʻchu *savdogariga* baloi nogahoniy yongligʻ doxil boʻlub,..” yoki “ har tarafga chapovul urub, kema bila kelaturgon *savdogarlar* matoiga tatovul kulin yetkurub, baʼzi fuqaroning dogʻi amvolu mavoshisin oldilar”.

Savdo va savdogar tushunchalari arab tilidan oʻzlashgan *tojir* va *tijorat* soʻzlari bilan ham fodalangan. Shuningdek, forsiy *korvoni* soʻzi ham savdogar tushunchasini anglatgan. Ayonki, bunda asosan korvon bilan oʻzga yurtlarga borib, tijoratni amalga oshiradigan shaxslar nazarda tutilgan. *Korvon* soʻzining tarixiy tarkibi, tadqiqotlarda qayd etilishicha, “kor” soʻzining “jangchi”, “sipoh” maʼnosiga nisbat va tegishlilikni anglatuvchi *-bon // -von* qoʻshimchasini qoʻshish orqali hosil qilingan. Mumtoz fors adiblari tilida uning *korbon* shakli ham uchrashi qayd etilgan. Shu tariqa “korvon” aslida harbiy terminlar tizimidan savdo-moliyaga aloqador soʻzga aylanganini taxmin qilish mumkin. Asarda ham *korvon* soʻzi savdo korvonidan tashqari etnik guruhlardan tashkil topgan jangari otryadlarni anglatishi maʼlum boʻladi. Masalan, “bir yoʻlga yetushdilarkim, ondin soriq va solur mufsidlarining *korvoni* Buxoro viloyatiga qatnar erdi”.

Qayd etilgan faktlar asardagi savdo-moliya tizimga oid terminlar tahlil ushbu soha terminologik tizimi rivoji tadqiqida ham muhim ekanligini koʻrsatadi.

Tijorat va moliyaviy amaliyotlar, toʻlovlar, tushum va hujjat turlarini ifodalovchi terminlar, shuningdek, savdo-moliya sohasi vakillari, muassasalari, maxsus joylar nomlari kabi ichki guruhlariga boʻlish mumkin.

II.5. Diplomatiya terminlari tizimi. Ogahiy tarixiy obidalarida matnida diplomatiyaga doir terminlar¹⁴⁸ faol qo'llangan. Diplomatik terminlar tizimida Xiva xonligining Buxoro amirligi, Qo`qon xonligi, Eron, Turkiya, Rossiya kabi davlatlar bilan mavjud elchilik munosabatlari aksini topgan. Diplomatik terminlarni quyidagi kichik mavzuiy guruhlariga ajratgan holda tahlil va tasnif qilish maqsadga muvofiq:

- 1) diplomatik shaxslarni ifodalovchi terminlar;
- 2) diplomatik aloqalarni ifodalovchi terminlar;
- 3) diplomatik hujjatlarni bildiruvchi terminlar.

Muayyan saltanat (davlat) hukumati topshirig`iga binoan boshqa bir davlatga qisqa yoki uzoq muddatga diplomatik vakolat bilan yuboriluvchi shaxsni ifodalash maqsadida Ogahiy tarixiy asarlarida bir nechta terminlar qo'llanishda bo`lgan. Bu terminlarning shakllanish va qo'llanish tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Zero, davlatlararo diplomatik aloqalar juda ko`hna tarixga egadir. Bir necha ming, yuz yillar davomida diplomatiyaga xos terminlarning u yoki bu til leksik tarkibidan o`rin egallashi aksariyat ekstralingvistik omillarga bog`liq bo`lgan.

Xiva xonligining turli mamlakatlar bilan olib borgan diplomatik aloqalari N.Zalesov¹⁴⁹, N.I.Veselovskiy¹⁵⁰, T.Ne`matov<sup>151</sup>, N.Allayeva<sup>152</sup> kabi olimlar tomonidan o`rganilgan bo`lishiga qaramay, tarixiy asarlar va arxiv hujjatlaridagi diplomatik terminlar tizimi ayrim ishlarni e`tiborga olmaganida, maxsus tadqiq qilinmagan¹⁵³.

Ogahiy yozib qoldirgan tarixiy asarlar matni bilan yaqindan tanishish, Xiva xonligida diplomatik munosabatlar keng yo`lga qo'yilganligi, tinchlik yoki nizo masalalarini hal etishda elchilik missiyasining roli sezilarli bo`lganligini ko`rsatadi. Diplomatik agentlar sa'y harakati evaziga ko`pgina majorali masalalar ijobiy

¹⁴⁸ Дадабоев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология... С. 102-111.

¹⁴⁹ Залесов Н. Посольство в Хиву капитана Никифорова в 1841 г. // ВС. 1861. №11, стр. 45.

¹⁵⁰ Веселовский Н.И. Очерки историко-географических сведений о Хивинском ханстве. -СПб., - С. 314, 315.

¹⁵¹ Неъматов Т. Хива билан Россия ўртасидаги муносабатлар тарихига доир баъзи манбалар. -Тошкент., 1957. - Б. 162.

¹⁵² Аллаева Н. А. XVI – XVIII асрларда Хива хонлиги ва Эрон ўртасидаги ўзаро алоқалар. Тарих фан. ном. автореферати. Тошкент, Ўзбекистон ФА тарих институти. 2007. – 25 б;

¹⁵³ Кулмаматов Д. Своеобразие создания челобитных Хивинских послов и их русских переводов XVII в. // Хоразм Маъмун академиясининг ахборотномаси. 2007. №2. – Б. 31-33.

echimini topganligining shohidi bo`lamiz. Diplomatik agent, boshqacharoq aytganda, “diplomatik vakillarning eng katta martabasi, unvoni va shu unvonga ega bo`lgan kishi”¹⁵⁴ sememasi asosan asl turkiycha *elchi* termini bilan anglashiladi. SHavvol oyining yigirma ikkisida seshanba kuni Buxoro elchisi Mirza Ubayd miroxurboshi... ostoni oliy xokbo`слиqi sharafig`a vosil bo`lub .

Dastlab XII–XIV asr turkiy til obidalarida “Allohning elchisi, payg`ambar” ma`nosida ishlatilgan arabcha *rasul* o`zlashmasi Alisher Navoiy asarlari tilida qayd etilgan ma`no qatori “elchi” sememasini ham anglatgan¹⁵⁵. Ushbu keyingi ma`noda arabcha istiloh “Riyojud-davla”da qo`llangan: ...chun *sufaroyi* komil hamul mazmunga homil bo`lub, *siforat* yo`lig`a azimat qilib, soruqlar qo`rg`onig`a yaqin ettilar. Parchada tilga olingan *sufaro* سفر so`zi *safir* سفير – elchi so`zining sinig ko`plik shaklidir<sup>156</sup>. Ogahiy ba`zi o`rinlarda arabcha *rasul* رسول (ko`plik shakli *rusul* رسل)ni ham *elchi* ma`nosida ishlatganini ko`ramiz. Ushbu so`zning lug`aviy ma`nosi uning *elchi* so`ziga ma`nodosh sifatida qo`llashga monelik qilmaydi: Turbat hokimi Muhammadxon Qaroyi valadi Isoxon Qaroyikim, qaroyi elining sardor va farmonravoyi erdi, anga dog`i bir kordon *rasule* inoyat yuzidin irsol qildi. Ushbu parchada Ogahiy *rasul* va *irsol qildi* so`zlari orqali ishtiqoq san`atini yuzaga keltirmoqda. Bu esa Ogahiy badiiy vositalarni qo`llash maqsadida ham ijtimoiy-siyosiy leksikaga mansub so`zlarning ma`nodoshlaridan unumli foydalanganidan dalolat beradi. *Rasul* (elchi) va *irsol* (yuborish) so`zlari orqali ishtiqoq hosil qilingan o`rinlarni Navoiy ijodida ham ko`ramiz. Farqi – quyidagi misolda *rasul* so`zi urfiy ma`noda (payg`ambar ma`nosida) qo`llangan:

Hamd angakim, kalomi xayrul-maol

Qildi elga *rasulidin irsol*¹⁵⁷.

Umuman, Navoiy asarlarida *rasul*ning diplomatikaga oid atama sifatida ishlatilganini ham kuzatamiz. Masalan, “Lisonut-tayr”dagi “Iskandarning elchilikka borg`on hikoyati” bobida o`qiymiz:

Bordi ul kishvarg`akim borg`ay *rasul*,

¹⁵⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. – Москва, 1981. – Б. 445.

¹⁵⁵ Дадабоев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология... – С. 105.

¹⁵⁶ بزرگترین کتابخانه شعر فارسی. لغت نامه . درج ۳. Al-rams. www.mehrahgam.com.

¹⁵⁷ Алишер Навоий. Арбаъин. – Тошкент: Наврӯз, 1994. – Б. 5.

Ayladi onda rasulona nuzul¹⁵⁸.

Elchilik faoliyati davomida hukmdorlarning bir-birlariga qilgan sovg'alari, yuborgan narsalari ma'nosidagi so'zlarni ham diplomatiyaga oid ijtimoiy-siyosiy leksika sirasiga kiritish mumkin: ...olib borg'on *peshkash* va *tuhfot*, *hadiya* va *savg'otlarin* bir-bir nazarig'a arz qilib, ...

XIV asr Xorazm manbalarida arabcha *qosid* o'zlashmasi "chopar" ma'nosi bilan ilk bor ishlatilgan. Mazkur istiloh "Qisasi Rabg'uziy" asarida, Alisher Navoiy tilida o'z aksini topgan. Ogahiy ushbu o'zlashmani ayni "elchi" ma'nosida qo'llaydi: ...qosidni ta'zimi tamom va takrimi lokalom bila bahramand qilib, bir elchiyi xushmand anga mushub etib, tuhfoi kiroman bila irsol qildi. Kuzatishlarimiz elchi vazifasini davlat ma'muriy-boshqaruv apparatida faoliyat ko'rsatuvchi amaldorlar ham bajaraverganligini ko'rsatadi. Xususan, *to'qsaba* (Buxoro elchisi), *arbob*, *shayx* (Xuroson hukmdori shoh Komronning elchisi), *mahram*, *oxund*, *og'a*, *dodxox*, *bek*, *devonbegi*, *miroxur* kabi faxriy unvon egalari elchilikka tayinlangan. Elchi qoidaga ko'ra mamlakat (viloyat, o'lka) hukmdorining boshqa bir davlat boshlig'iga yo'llagan nomasini topshirgan, salomi, tuhfa va sovg'alarini og'zaki yo'sinda bayon etgan. Elchi ijozat tekkandan so'ngina o'z yurtiga qaytgan. Diplomatik vakolat, missiya *elchilik* yasama termini bilan anglashilgan. Shu bilan bir qatorda *elchilik yo'sin*, *elchilik tariqasi*, *elchilik rasmi* kabi izofali birikmalar ham qayd etilgan ma'noni ifodalash uchun xizmat qilgan va h.k. Elchilar o'z faoliyatini olib boradigan joy, o'rin *elchixon*a termini bilan atalavergan, boshqa yurtdin tashrif buyurgan elchilar elchixonada qisqa muddat yashagan: Amir Nasrulloning elchisi Mirzo Ubayd miroxur boshi... shaharda qolib, elchixonayi humoyunda mutamakkin erdi. Elchilarning qiladigan tashrifi *safar*, *safarot* istilohlari bilan anglashilgan: ul hazrat mazkur safardin kelib, saltanat saririda istirohat ko'rguzgandin uch kun so'ng. Ushbu gapdan elchilik vakolati lashkarboshiga yuklatilganini bilib olish qiyin emas.

¹⁵⁸ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн иккинчи том. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 93.

“Ikki tomon orasidagi osoyishtalik, tinchlik” arabcha *musolaha*, “samimiy do’stlik, sodiqlik, ikki tomonning bir-biriga ishonishi” arabcha *musodaqat* o’zlashmalari bilan ifodalangan. Ikki tomon orasidagi tinchlik bitimi *sulhnoma* istilohi yordamida ochib berilgan: Amir Haydar podshohning musolaha talabi bilan yuborgan sulhnomasin... kelturub erdilar. Elchilar tomonidan keltirilgan sovg’a-salomlar *tuhfa*, *peshkash*, *hadya* leksemalari bilan ifodalangan. Elchilar tomonidan hukmdorga topshiriladigan qulluq arizalari arabcha-forscha-tojikcha arzadosht leksik birligi bilan nomlangan: o’z ayonidin bir rasuli ixlosnishon qo’shub, qulluq izhori bila bir arzadosht va yaxshi tuhfarlar bila... irsol qildi.

Muayyan hukmdorning boshqa davlat boshlig’iga yo’llaydigan yozma nomasi ba’zan *kitobat* istilohi bilan, og’zaki xabari forsha-tojikcha *payg’om* o’zlashmasi bilan ifodalangan: Chun elchi farmon mujibi bila qat’i manzil va biyobon qilib, shohi Komrong’a payg’omi saodat intizomin etkurdi. Elchilar tomonidan keltiriladigan nomalar, maktublar mazmun-mohiyatan farqlangan.

Ogahiy tarixiy asarlarida faol qo’llanilgan asl turkiy *elchi* **إلچی** va *elchilik* so’zlari bilan birga ularning arabchasi *safir* va *siforat* **سفارت** so’zlari ham keng ishlatilgan: “Bekish xalifani *saforat rasmi* bila qo’shub, Buxorog’a irsol qildilar. Jumodilavval oyining o’n uchida jum’a kuni atabai osmon martaba mulozimlaridin Abdulhakim, xoni mag’furning amri oliysi mo’jibi bila Ho’qand viloyatidin kelgan elchiga *saforat tariqasi* bila hamroh bo’lib, mazkur viloyatg’a bormish erdi” (12^a). Ko’rinadiki, elchilik missiyasi *saforat rasmi*, *saforat tariqasi* kabi turkiy izofiy birliklar orqali ifodalangan. Turkiy *elchi* ma’nosidagi *yalavoch* so’zining *payg’ambar* ma’nosida ommalashganiga o’xshaydi¹⁵⁹. Uning diplomatik ma’nosi Mahmud yalavoch kabi tarixiy shaxslar nomlari tarkibida saqlanib qolgan. Ogahiy tarixiy asarlarida qo’llanilgan *sufaro* **سفرا** so’zi *safir* **سفير** – *elchi* so’zining siniq ko’plik shaklidir¹⁶⁰. *Rasul* so’zining diplomatik termin sifatida ishlatilganini Alisher Navoiy asarlari tilida ham kuzatamiz¹⁶¹. Aynan JVSda *rasul* so’zi uch marta ishlatilgan bo’lib, barchasida Muhammad alayhissalom sifati ma’nosida

¹⁵⁹ Kisas’ü-enbiyā. II. Dizin. Dr. Aysu Ata. – Ankara: Türk Dil Kurumu Yayinlari, 1997. – S. 697-698.

¹⁶⁰ Носиров О., Юсупов М. Ан-на’им. Арабча-ўзбекча луғат. –Тошкент, 2003. – Б.

¹⁶¹ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Ўн иккинчи том. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 93.

ishlatilgan. Eski o`zbek yozuvidagi manbalar tabdili jarayonida bunday holatda uni Rasul shaklida yozish imlo qoidalariga muvofiq keladi hamda o`quvchini chaplg`itmaydi: “Xalloqi kirdikor g`azabi va *Rasuli muxtor* qahri va oqibat vayronlig`i va oxirat rasvolig`idin mubolag`a va ilhoh bila tahdidu taxvif ko`rguzdilar”. (69^b).

Shuningdek, asarda *peshkash*, *tuhfot*, *hadiya*, *savg`ot*, *tansuqot* kabi diplomatik terminlar ham uchraydi:

Peshkash, *tuhfa* (ko`pligi *tuhfot*) – biror hukmdorning boshqa bir hukmdorga elchilar vositasida yo`llagan sovg`asi<sup>162</sup>: “... amirning yuborgan muhabbatnomasin *peshkashu tuhfasi* bila ostoni oliyshon mulozimlarining nazari anvari *peshgohiga* etkurub,.. (9<sup>a</sup>). Parchada qo`llanilgan *peshgoh* so`zi bu o`rinda hukmdorning peshkashlarni ko`zdan o`tirish o`rnini ifodalayotganiga qarab, uni ham diplomatik terminlar sirasidan hisoblash mumkin. Shu jihati bilan ushbu jumlada *peshkash* va *peshgoh* so`zlari orqali ham tanosub, ham ishtiyoq san`atlari yuzaga keltirilmoqda.

Hadiya – sovg`a, tortiq, in`om, sovrin¹⁶³: “podshohliqg`a loyiq *tuhfa va hadyalar* bila... (46^b).

*Savg`ot* – sovg`aning ko`pligi<sup>164</sup>. Bu so`z asl turkiy bo`lishiga qaramay, arabcha muannas uchun to`g`ri ko`plik shaklini olgan holda ishlatilgan: Shukrullo aqo xalifaning noma va savg`osin Hamul yil zulqa`da oyining avositida mavqifi xilofatg`a etkurdi. (44^b).

Shuningdek, asar davomida *tahniyatnoma*, *fathnoma*, *bashoratnoma*, *aroyiznoma* kabi diplomatik hujjat nomlari ham uchraydi.

Inoyatnoma **عنايت نامه** tarkiban arabcha va forsha so`zdan tashkil topib, tinchlik, birodarlik taklifi bilan yuborilgan rasmiy maktub<sup>165</sup> ma`nosini anglatadi: “Yusuf dasturxonchini saforat rasmi bila onga qo`shub, *inoyatnoma* bila Hirot jonibig`a irsol ettilar... (74^a).

¹⁶² بزرگترین کتابخانه شعر فارسی. لغت نامه . Al-rams. www.mehrahgam.com. درج ۳.

¹⁶³ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. 4-том. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 134.

¹⁶⁴ معین محمد . فرهنگ فارسی. جلد. تهران. امیر کبیر. 1375 ه ق ص 1955

¹⁶⁵ Мансури Растгори Фасоий. Анвоъи насри форсий. – Техрон: САМТ, 1380 х.к. – С. 221.

Fathnoma فتحنامه – biror mamlakat, qo`rg`on yoki qal`aning, o`zga mamlakatning zabt etilgani haqidagi xabar bitilgan xat¹⁶⁶. *Fathnoma* mazmuniga mohiyatan zid bo`lgan diplomatik hujjat turi *shikastnoma* bo`lib, unda biror mamlakat qo`shini boshqa mamlakat qo`shinidan yordam olish maqsadida o`zining talofat ko`rgani, yengilganini bayon qilgan¹⁶⁷.

Bobda diniy, ilm-fan, san`at, savdo-moliya, diplomatiyaga oid terminlar va maishiy leksikaga oid so`zlar izohlab berilgan.

¹⁶⁶ بزرگترین کتابخانه شعر فارسی. لغت نامه . Al-rams. www.mehrahgam.com. درج ۳.

¹⁶⁷ Мансури Растгори Фасоий. Анвоъи насри форсий. – Техрон: САМТ, 1380 х.к. – С. 229.

III BOB. ASARDAGI TASHQI MANBA SO`ZLARINING SHAKL VA MA`NO MUNOSABATIGA KO`RA TURLARI

**III.1. Asarda antonimlarning o`rni.** O`zbek tilshunosligida antonimlarning umumiy xususiyatlari, ushbu lisoniy hodisaning voqelanishi, antonimiya deb baholash uchun asos bo`ladigan mezonlar haqida nazariy adabiyotlar, monografik tadqiqotlar, darslik va lug`atlarda atroflicha so`z yuritilgan<sup>168</sup>. Shuningdek, mumtoz badiiy asarlarda antonimlarning qo`llanishi, ularning o`ziga xos jihatlari<sup>169</sup>, uslubiy xususiyatlari<sup>170</sup> borasida ham tadqiqotlar mavjud. Bundan tashqari antonimiyaga oid nazariy fikrlar va materiallarni o`zbek mumtoz adabiyotining ayrim vakillari tili leksikasi, shevalarning lug`aviy xususiyatlariga bag`ishlangan ko`plab tadqiqotlarda kuzatamiz.

Tilimizda antonimik juftliklarning tashqi manba hisobiga boyishi, ularning uslubiy-emotsional jihatlari bir qadar o`rganilgan bo`lsa ham¹⁷¹, masalaga o`zlashmalarga boy eski o`zbek tilida bitilgan ma`lum bir asar tilidagi olinma so`zlar misolida yondashish bu borada muhim xulosalar chiqarishga asos bo`lishi mumkin.

Ogahiy tarixiy asarlarida qo`llanilgan tashqi manba so`zlari doirasidagi antonimlarni mavzuiy-ma`noviy jihatdan dastlab quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Shaxs va narsalarning xususiyatlarini anglatuvchi antonimlar: *nek – bad, jamil – qabih, a`lo – adno* kabi.

¹⁶⁸ Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Фан, – Б. 80-84.; Ҳозирги ўзбек адабий тили. I. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 144-150; Исабеков Б. Лексическая антонимия в современном узбекском языке: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1973.; Шукуров Р. Ўзбек тилидаги антонимларнинг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди дис... автореф. – Тошкент, 1977.; Раҳматуллаев Ш., Маматов Ж., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли лугати. – Тошкент:Фан, 1980.; Усмонов С. Антонимлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1958. №2. – Б.33-40.; Ишаев А. Шаклдош антонимларга оид этюдлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1967. №1. – Б.19.; Шукуров Р. Бир хил ўзакли антонимлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1972. №3. – Б.36-39.

¹⁶⁹ Раҳматуллаева М. Навоий лирикасида шоҳ ва гадо маъносидаги антонимларнинг қўлланиши (“Ғаройиб ус-сиғар” девони асосида) // Ўзбек тили ва адабиёти. 1978. №1. – Б.60-62.

¹⁷⁰ Қиличев Э. Антонимларнинг стилистик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1984. №2. – Б.55.; Бозоров О. Градуномиянинг антонимия ва синонимияни шакллантиришдаги ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти. 1996. №4. – Б.34.

¹⁷¹ Меметов А. Ўзлашган сўзлар иштирокида ҳосил бўлган синонимлар ва антонимлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1974. №1.– Б.79-81.

2. Shaxs xususiyatlarini anglatuvchi antonimlar. Bu tipdagi antonimlarni o`z navbatida quyidagi kichik guruhlariga ham ajratish mumkin:

a) shaxsning tashqi qiyofasiga xos belgilarga asoslangan antonimlar: *jamil – qabih*;

b) shaxsning axloqiy xususiyatlarini aks ettiruvchi antonimlar: *neksirisht – badsirisht*;

v) shaxsning yosh xususiyatlari e`tiborga olingan antonimlar: *javon – pir; shayx – shob*;

g) insonning aqliy va ma`rifiy darajasini belgilash natijasida yuzaga kelgan antonimlar: *olim – johil; dono – nodon*;

d) insonlar tabiatiga xos qarama-qarshi xislatlar ifodasi sifatida shakllangan antonimlar kabi. *Nekxoh – badxoh, adolatpesha – zalolatpesha, johil – fazoyilmaob* kabi so`zlarni yuqoridagi kichik guruhlariga taqsimlash mumkin.

3. Shaxs otlari ma`nolari o`rtasidagi antonimlar. Bunday antonimlar ham o`z navbatida ikki qarama-qarshi jinsga mansublikni anglatish asosida yuzaga kelgan antonimlar (*mard – zan, rijol – niso*), shaxslarning o`zaro munosabatlari asosida (*aduv // dushman – do`st*), insonlarning moddiy-moliyaviy jihatlari asosida (*g`aniy / /sarvatmand – faqir, qallosh, kambag`al*), shaxslarning ijtimoiy-siyosiy mavqeidagi zidlikka asoslangan antonimlar (*shoh – gado*) kabi turlarga ajralishi mumkin. Biologik jins va shaxslarning ijtimoiy-siyosiy mavqei o`rtasidagi zidlikka asoslangan antonimlik, bizningcha, munozarali bo`lib, ular antonimlarga aylanishi uchun anglatgan ma`nolari bir-biriga to`la zidlik kasb etgan bo`lishi kerak.

4. Aniq va mavhum tushunchalarga nisbatan masofa mazmunini anglatuvchi antonimlar: *dur // ba`id – qariyb*.

5. Vaqt birliklari o`rtasidagi antonimlik<sup>172</sup>: *g`urra* (oyning dastlabki kunlari) – *salx* (oyning oxirgi kunlari). Jumodulavval oyining *g`urrasida* jum`a kuni yoniga elchi qo`shmay muvofaqatnoma berib Buxorog`a irsol qildilar; Hamul yil mazkur bo`lgon oyning *salxida* jalodatmaob umarodin Tag`oy mirob vafot topdi.

¹⁷² Ғуломова Д. Вақт маъноли сўзларнинг антонимлигини белгилаш мезони // Ўзбек тили ва адабиёти. 1991. №3. – Б.54.

6. Islomiy aqida va shariat hukmlari asosida shakllangan antonimlar: *do`zax // saqar // asfalassofofin // jahim – jannat // behaisht // xuld // firdavs; halol – harom* kabi.

7. Insonning ruhiy kechinmalarini ifodalovchi antonimlar: *rohat – azob*.

8. Ranglar o`rtasidagi zid ma`nolilik: *savdo – bayzo*.

9. Moddiy-moliyaviy mazmundagi zid ma`noli so`zlar: *sud – ziyon*.

10. Muvaqqat antonimlar: *shabi zifof – ro`zi masof*.

Muvaqqat antonimlar aslida o`zaro hech qanday zidlik mazmuni bo`lmagan so`zning ma`lum bir matn ichidagina qarama-qarshi tushunchalarni ifodalashidir. Ta`kidlash kerakki, o`zaro zid bo`lmagan tushunchalardan antonimlik hosil qilish ijodkordan katta badiiy mahorat talab qiladi. Masalan, ... muborazat umurida Rustami dostonni bir mo`ri zaifcha va Somi Narimonni bir pashshai nahifcha nazari e`tiborg`a ilmas erdilar va *ro`zi masofni shabi zifofdin* lazzatmand va *maydoni razmni ayvoni bazmdin* ulovatpayvandroq bilur erdilar. Ushbu matnda *ro`zi masof* – urush bo`lib turgan vaqt va *shabi zifof* – nikohning ilk kechasi hamda *maydoni razm* – urush maydoni va *ayvoni bazm* – bazm ayvoni birikmalari orqali muvaqqat antonimlik vujudga kelgan. Ko`rinadiki, bunga, birinchidan *shab* va *ro`z* so`zlari o`rtasidagi antonimlik, ikkinchidan va asosiysi “masof” so`zi orqali anglangan xunrezlik, sarosima, vahshat va “zifof” so`zi zamiridagi osudalik, tinchlik, baxtiyorlik mazmunlari imkon bergan.

Dushman so`zi. Ushbu so`zning asarda qo`llanish o`rinlari, o`zi mansub sinonimik qatorda boshqa so`zlardan farqlovchi xususiyatlarga ko`ra ijtimoiy-siyosiy termin sifatida talqin qilish to`g`riroq bo`ladi, degan xulosaga keldik. Chunki asarda unga ma`nodosh turkiy yog`iy, arabcha *aduv, a`do, mudda`iy* kabi so`zlar aksar holda harbiy termin sifatida, ya`ni jang maydonidagi muxolif tomonni anglatga, *dushman* so`zi aksar holda siyosiy jihatdan muxolif shaxslarga nisbatan ishlatilgan. Demak, asarda bu so`zning ikki mazmun ko`zga tashlanadi: 1. Harbiy termin sifatida jang maydonidagi muxolif: “oxirulamr fathu zafar dastyorlig`i bila *dushman* guruhiga g`olib bo`lub, mag`lubu musta`sal qildi”. 2. Ijtimoiy-siyosiy

termin sifatida siyosiy muxolif shaxs: “*do`stu dushman* orasida bu aqidatkeshga fahou faxomat mujibi bo`lgusidur”.

Dushmān so`ziningtarixan shakllanish jarayoniga e`tibor qaratsak, uning pahlaviy tilida *dush_man*, “Avesto”da *dush manah* shaklida ishlatilganini kuzatamiz. Bu so`zning birinchi qismi *duj* “yomon”, “yovuz” ma`nosini anglatgan bo`lib, hozirgi fors tilidagi *dujkom*(g`amgin), *dujxim*(yomon qiliqli, badaxloq) so`zlarida asl shaklida, ya`ni *jsirg`aluvchisi* bilan saqlanib qolgan. Keyinchalik esa *do`zax* yoki *dushman*, *dushvorkabi* so`zlarga *z* yoki *sh* tarzida boshqa til oldi *sirg`aluvchi* tovushlarga aylangan.

Bu so`zning ikkinchi qismi *mān* esa pahlaviy tilida “xulq”, “odat”, “tabiat”, “fitrat” ma`nolarini anglatiuvchi *man(i)shn* so`zi bo`lib, mazkur so`z hozirgi fors tilida *manesh* shaklida ishlatilib, “xarakter”, “xusuiyat”, “tabiat” kabi ma`nolarni anglatadi. SHuningdek, uni ayrim qo`shma so`zlar tarkibida ko`ramiz. Masalan, *buzurgmanesh* – ulug`vor, *gadomanesh* – arzimas¹⁷³. Bu so`zning o`zi qadimiy *man* – “o`ylamoq” fe`liga borib taqaladi. Har ikkala tarkibni birlashtirganda ushbu so`zning umumiy mazmuni aynan “yomon o`yli”, “yomon fikrli” (odam yoki biror aniq, mavhum narsa) demakdir.

Shu o`rinda o`zaro antonimlik hosil qilgan ayrim tashqi manba so`zlarining semantik evolutsiyasini ko`rib chiqish qiziqarli faktlar berishi mumkinligiga guvoh bo`lamiz. Jumladan, *dushman* so`zi. Ushbu so`zning asarda qo`llanish o`rinlari, o`zi mansub sinonimik qatorda boshqa so`zlardan farqlovchi xususiyatlarga ko`ra ijtimoiy-siyosiy termin sifatida talqin qilish to`g`riroq bo`ladi, degan xulosaga keldik. Chunki Ogahiy tarixiy asarlarida unga ma`nodosh turkiy *yog`iy*, arabcha *aduv*, *a`do*, *mudda`iy* kabi so`zlar aksar holda harbiy termin sifatida, ya`ni jang maydonidagi muxolif tomonni anglatsa, *dushman* so`zi aksar holda siyosiy jihatdan muxolif shaxslarga nisbatan ishlatilgan. Demak, bu so`zning ikki mazmun ko`zga tashlanadi:

1. Harbiy termin sifatida jang maydonidagi muxolif:“oxirulamr fathu zafar dastyorlig`i bila *dushman* guruhiga g`olib bo`lub, mag`lubu musta`sal qildi”.

¹⁷³ИПС 2. – С. 566.

2. Ijtimoiy-siyosiy termin sifatida siyosiy muxolif shaxs: “*do`stu dushman* orasida bu aqidatkeshga fahou faxomat mujibi bo`lgusidur”.

III.2. Asarda omonim so`zlarning tutgan o`rni. O`zbek tili tarixiy manbalaridagi omonimlar masalasi bir qadar o`rganilgan¹⁷⁴. Leksik omonimiya leksemalarning ifoda planidagi (talaffuzi va yozilishidagi) tenglik hodisasidir. Masalan: *o`t* (“*olov*”) – *o`t* (“*maysa*”); *kamar* (“*qayish, ko`ndan ishlangan belbog`*”) – *kamar* (“*daryo, tog`larda suv o`yib ketgan chuqur joy*”) kabi.

Eski o`zbek tili materiallaridan kelib chiqqan holda leksik omonimiyada ikki xil hodisa mavjudligi ko`rinadi: omonimlar va omoformalar.

1. Omonimlar shakli bir xil, ma`nolari har xil (o`zaro bog`lanmagan) leksemalardir. Ular omonimlar, omoleksemalar deb ham ataladi<sup>175</sup>. Bunday omonimlarning ko`pchiligi bir so`z turkumiga mansubdir, shu sababli ularning nutqdagi grammatik shakllari ham bir xil bo`ladi.

Bu tip omonimlarni Ogahiy tarixiy asarlarida ko`plab uchratamiz. Buni *bor* بار so`zining turli ma`nolarini izohlash orqali ham ko`rishimiz mumkin. Jumladan, *bor* بار shaklidagi so`z bir necha ma`no anglatadi.

1. *Bor* بار turkiy. “*Barcha*”, “*hamma*” ma`nosida:

Yo`q ersa bukim, e`tiborot erur,

Adamdur *bori*, boqiy ul zot erur. (3-b.)¹⁷⁶.

2. *-dir* bog`lamasining eski o`zbek tilidagi yana bir formasi:

Zihi sohabsabotu ko`htamkin,

Ki *bordur* tog`din orom ichra sangin. (369-b.).

3. *Bor* fors tiliga mansub so`z bo`lib, “*yuk*” degan ma`noni anglatadi. Quyidagi misrada *bor* so`zining “*mavjud*” va “*yuk*” ma`nolarini umumiy qo`llash orqali iyyom san`ati yaratilgan:

¹⁷⁴ Рустамий М. Луғавий шаклдошлик ва унинг турларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти журнали, 1994. № 1-2. – Б. 28-32.

¹⁷⁵ Jamolxonov H.A. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Kirish. Fonetika va fonologiya. Orfoepiya. Grafika va orfografiya. Leksikologiya va frazeologiya. Leksikografiya. – Toshkent, 2002. – Б. 128.

¹⁷⁶ Мунис ва Огахий. Фирдавсу-л-икбол. Ю.Брегель нашри. Лейдин. 1988. Асардан олинган бундан кейинги мисоллар ҳам шу нашрдан бўлиб, кавс ичида саҳифаси кўрсатилади.

Xotir aro mehnatu g`am *bor* edi,
Ranju a`no jon aro bisyor edi. (16-b.).

Agar Munis qalamiga mansub
Base g`am *boridin* chekmish og`irni,
Yag`ir bo`lmish hazin ko`nglim yag`irni¹⁷⁷

baytini eslasak, ushbu baytda ham *bor* so`zi bir paytda “mavjud” va “yuk” ma`nolarida ishlatilganini ko`ramiz.

Ogahiy asarlaridagi *borbardor* (yuk ko`taruvchi) so`zi ayni shu forsiy so`z asosida hosil qilingan: Dushanba kuni buxtiysi qator va jamozayi *borbardor*, to`pxona saroparda va peshxonani choshtgohda ko`churub,.. (1028-b.).

4. *Bor* so`zi – *bormoq* fe`lining buyruq shaklida qo`llanilgan:

Etkur o`zing dori xulofat sori,
Boshing olib *bor* dari davlat sori. (16-b.).

II. Omoformalar ayrim grammatik shakllaridagina teng keladigan leksemalardir. Ular omoforma omoleksemalar deb ham nomlanadi¹⁷⁸. Masalan, *sur* (ot, forsiy o`zlashma “to`y”, “bazzm”) va *sur* (turkiy, *surmak* fe`li asosi) leksemalari ayni shu shaklda lug`atga kiritiladi, biroq ot turkumidagi *sur* leksemasi turlanganda *sur* (ot) va *sur* (fe`l) o`rtasidagi shakliy tenglik yo`qoladi. Demak, bu ikki leksema o`rtasidagi shakliy tenglik ot turkumidagi *sur* so`zi bosh kelishik hamda qayd etilgan fe`l amr (buyruq) shaklida bo`lgandagina saqlanib, boshqa shakllarida yo`qoladi, shu xususiyati bilan omoforma omoleksemadan farq qiladi.

Asarda *sur* shaklida ikkita alohida so`z mavjud bo`lib, biri turkiy *sur* fe`lining buyruq shakli bo`lsa, biri shu shakldagi “to`y”, “shodiyona” so`zidir: Bu suratdin bag`oyat muhtahij va masrur bo`lub, ulug` to`y va azim *sur* tartib berdi. (58-b.);

Buyon sur samand aylabon iltifot,
O`luk jismlarga kiyurgul hayot. (107-b.).

Omonimlarning yuzaga kelish sabablari har xildir. Xususan:

¹⁷⁷ Мунис. Сайланма. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б. 6.

¹⁷⁸ Жамолхонов. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.: 2004. – Б. 129.

1. Tilda azaldan mavjud boʻlgan ayrim soʻzlarning shakllari tasodifan teng boʻlib qoladi: *Xor* – xoru zor, xoʻr: Xorazm mamolikin turkmaniya oldi va oʻzbekni *xor* tutti. (147-b.);

Xor – tikan, xas, choʻp:

Chehrai dilorosi gardu qongʻa anduda,

Kokili mutarroosi *xoru* xasgʻa oluda. (176-b.).

2. Bir maʼnoli soʻz leksik maʼnoning koʻchishi oqibatida koʻp maʼnoli soʻzga aylanadi, keyinroq bosh maʼno va hosila maʼno oʻrtasidagi bogʻlanish unutilib, bir soʻz negizida ikkita boshqa-boshqa leksema paydo boʻladi: *kun* (“quyosh”) – *kun* (“sutka”, “kun chiqqandan yana kun chiqqungacha boʻlgan vaqt”) kabi.

Ogahiyning tarixiy asarlaridagi arab tiliga oid soʻzlarning mutlaq koʻpchiligi ayni shu guruhga mansubdir. Masalan,

Dayr – manzil:

Fano *dayrining* bogʻla ehromini,

Ol ilkingga osudaliq jomini. (1168-b.).

Dayr – mayxona.

3. Boshqa tillardan oʻzlashtirilgan ayrim leksemalar oʻzbek tilidagi u yoki bu leksemaga shaklan teng boʻlib qoladi: *toy* (oʻzbekcha “otning ikki yashardan kichik bolasi”) – *toy* (f-t: “katta toʻp qilib taxlab yoki bosib bogʻlangan mol va shu tarzidagi mol oʻlchovi”).

Bunga asardan turkiy soʻz (kalima) va forsiy “kuyish”, “yonish” maʼnosidagi soʻz soʻzlarini misol keltirish mumkin:

Yuzidin viloyatgʻa toʻlturdi nur,

Soʻzidin koʻngullarga zavqu surur.

Adovat oʻti oʻyla *soʻzon* durur

Ki, kul qilmay oʻchmak ne imkon durur. (47-b.).

Asl turkiy yoki oʻzbek tilida qadimgi turkiy til davridanoq qoʻllanishda boʻlgan soʻzlarga omonimlik kasb etgan lugʻaviy birliklardan biri *xondir*. Ijtimoiy-

siyosiy termin sifatida *xon* soʻzining genetikasi xitoy tiliga borib taqaladi¹⁷⁹. Tadqiqotlarda bu soʻz xitoycha *kuan* – *xon* soʻzining fonetik oʻzgarishga uchragan shakli ekanini koʻrsatiladi¹⁸⁰. Qadimgi turkiy xalqlarda “oliy hukmdor” maʼnosidagi *xoqon* soʻzi ham xitoy tiliga mansub ikki soʻz – *ke* (ulugʻ) va *kuan* (xon) birikuvidan tashkil topgan¹⁸¹. XI-XIV asr yodnomalarida ham *xoqon* soʻzi “davlat boshligʻi” maʼnosini anglatganini taʼkidlab, H.Dadaboyev mazkur soʻzning etimologiyasi xususida G.Dyorfer¹⁸² tomonidan bildirilgan fikrlarni maʼqullaydi¹⁸³. Asarda bu soʻz turkiy va forsiy izofiy holatlarda nihoyatda keng ishlatilgan. Ikkinchi *xon* خوان esa forsiy soʻz boʻlib, “dasturxon”, “sufra” maʼnolarini anglatadi¹⁸⁴. Bu soʻzning *xvon* tarzida yozilib, *xon* shaklida oʻqilishi tasodifiy emas. Bu mazkur soʻzning tarixiy-etimologik tavsifi bilan bogʻliq. “Dasturxon” maʼnosidagi *xon* pahlaviy tilida “lagan” (ovqat solinadigan) *xvân* soʻzining fors tilidagi koʻrinishidir¹⁸⁵. Yangi fors tilida pahlaviy tilidagi *xv* tarkibli koʻplab soʻzlar *x* tarzida oʻtgani maʼlum. Masalan, *xvap* – *xob* (uyqu). Asarda mazkur soʻz “dasturxon”; “noz-neʼmat” maʼnolarida ishlatilgan:

Onga saylab saodat taxtini mahd,

Damodam ishrat *xonidin* berib shahd. (14-b.).

Eski oʻzbek tilida va hozirgi adabiy tilimizda soʻz yasovchi affiks sifatida qoʻllaniladigan *xon* komponenti esa “oʻquvchi” (*gʻazalxon*); “chaqiruvchi” (*parixon*); “chorlovchi” (*hidoyaxon*); “kuylovchi” (*xushxon*) kabi maʼnolarni beradi. Jumladan, quyidagi jumladagi *abjadxon* (maktabda endi savod chiqara boshlagan bola, abjad – alifbo oʻquvchi) soʻzida uning bir maʼnosi koʻzga tashlanadi; fuzaloyi zamon va urafoyi davronni ollida tifli *abjadxon* etdilar. (16-17-b.). Hozirgi fors tilidagi خواندن *xondan* (oʻqimoq) feʼlining hozirgi zamon

¹⁷⁹ Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства// Советская тюркология. – 1989. – №1. – С.67.

¹⁸⁰ Баскаков Н.А. Тюркские элементы в «Слове о полку Игореве». – М.: Наука, 1985. – С.42.

¹⁸¹ Баскаков Н.А. Тюркские элементы в «Слове о полку Игореве». – М.: Наука, 1985. – С.41.

¹⁸² Doerfer G. Türkische elemente im Neupersischen; 1967. Bd.3. – P. 141.

¹⁸³ Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991. – С. 61.

¹⁸⁴ Персидско-русский словарь. Том I. – М.: Русский язык, 1983. – С. 574.

¹⁸⁵ شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶. جلد ۲ ص ۷۸۲

negizi boʻlgan *xon* “Avesto”da *xvan*, qadimgi hind tilida *svan* tarzida ishlatilgan¹⁸⁶. Shu oʻrinda taʼkidlash lozimki, Ogahiy tarixiy asarlaridagi *xon* komponentli barcha soʻzlarni mazkur ikki soʻz bilan cheklash mumkin emas. Xususan, toponimlarda uning qamrovi yanada kengroq. Masalan, Shoʻraxon nomini oladigan boʻlsak, uning ikkinchi komponenti *xan* umumeroniy soʻzlar sirasiga kirib, qadimgi eroniy *kap* — “qazmoq”; “qoʻpormoq” soʻziga borib taqaladi. *Kap* hozirgi fors tilida *qazmoq*; *yulmoq*; *qoʻpormoq* mazmunidagi *kapdap* کندن feʼlining hozirgi zamon oʻzagidir¹⁸⁷. Shuning uchun ham *kap* کن fors tilida, jumladan, oʻzbek tili tarixiy leksikasida mavjud yasama soʻzlar tarkibida “qazuvchi; qoʻporuvchi” mazmunida keladi: *goʻrkan* (goʻrkov), *chohkan* (quduk qazuvchi), *qoʻhkan* (togʻni talqon qiluvchi) kabi. Ushbu soʻzning qadimgi hind tilida *kha* shaklida ishlatilgani ham bejiz emas. Uning turli eroniy tillarda “suv” bilan bogʻliq holda har xil mazmun ifodalashini kuzatamiz. Masalan, yagʻnob tilida *xap*, oʻrta fors tilida *xap* — kanal¹⁸⁸; *Shoʻraxon* oriqining saqqosi va Miskin Sayyid alayhur rahmaning maqbarai mutabarrikasi javorigʻa etkan chogʻda... (95-b.). Bu xususda D.Yoʻldoshev eʼtiborli fikrlarni bayon qilgan¹⁸⁹.

Bulardan tashqari, asarda oʻzbek adabiy tilining tarixiy leksikasida mavjud, ammo hozirgi oʻzbek adabiy tilida faol qoʻllanilmaydigan soʻzlar ham koʻplab uchraydi.

Asarning koʻpgina oʻrinlarida shakldosh soʻzlarning birdan ortiq maʼnolari nazarda tutilgan holda iyhom sanʼati yuzaga keltirilgan. Masalan, *qavs* ning “kamon” maʼnosini berishi hamda burj nomi, hijriy-shamsiy oy nomi ekanidan foydalanilgan holda, “Jomeʼ-u-l-voqeʼoti sultoni”ning quyidagi parchasida iyhom shakllangan: oftobi olamtob hadangi *qavs* goʻshasining chillanishini erdi,.. (18^a)¹⁹⁰. Ogahiyning poetik mahorati shundaki, parchada *oftobi olamtob* birikmasi uning

¹⁸⁶ شمس الدین محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع . با اهتمام دکتر محمد معین . تهران . امیر کبیر . ۱۳۸۶ . جلد ۲ ص ۷۸۴

¹⁸⁷ Персидско-русский словарь. Том 2. – М.: 1983. Русский язык. – С. 356.

¹⁸⁸ Лившиц В.А., Хромов А.Л. Согдийский язык // Основы иранского языкознания. Среднеиранские языки. – М.: Наука. 1981. – С.396.

¹⁸⁹ Юлдашев Д. Жанубий Қорақалпоғистон топонимларининг тарихий-этимологик таҳлили: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Нукус, 2012. – 134 б.

¹⁹⁰ جامع الواقعات ساطانی ۋزفأ Шарқшунослик институти. Инв № 9786. 310 варак. Бу асардан олинган кейинги мисоллар ана шу кўлѳзма асосида бўлиб, қавс ичида саҳифаси кўрсатилади.

astronomik ma`nosiga ishora qilsa, *hadang* (o`q) so`zi harbiy termin sifatidagi ma`nosiga ishora qiladi.

Bahr (dengiz, aruz bahri)¹⁹¹.

Birisi oning Umari nomvar,

Adlu karam *bahrida* valo guhar.(6-b.).

Bu o`rinda qo`llanilgan *bahru bar* o`z lug`aviy ma`nosiga ko`ra, “suv va quruqlik” – butun er yuzi ma`nosini anglatadi. Chun bu xabari vahshatasar hazrati podshohi *bahru barning* somi`ai saodatparvarig`a masmu` bo`ldi,.. (62-b.). Fors tilida ham *bahr* shaklidagi so`z bo`lib, “hissa”, “ulush” ma`nolarini anglatadi. Bu so`z sanskrit tilida *bhadra* shaklida bo`lib, “hissa”, “ulush” ma`nolaridagi *barx* so`zi bilan o`zakdoshdur. Shu ma`nodagi so`z qadimgi fors tilida *baxtra*, “Avesto”da *baxadra*, pahlaviy tilida *bahr* yoki *bahrakdir*<sup>192</sup>. Asarda bu so`zning *bahra* shakli hamda shu o`zak asosida yasalgan *bahramand*, *bahravar*, *bahraoyin* so`zlari keng qo`llanilgan: akobiru asog`ir havotirin *bahramand* qildilar. (124-b.).

Ogahiy tarixiy asarlarida qo`llanilgan omonimlarni lisoniy xarakteriga ko`ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Shaklan to`la mos, ya`ni talaffuzda ham, yozuvda ham shakldosh hamda bir so`z turkumiga mansub, ma`lum matndan tashqarida ham omonimlik xususiyatini saqlab qolishi mumkin bo`lgan so`zlar.

2. Talaffuzda ham, yozuv ifodasida ham shakldosh, lekin har xil so`z turkumiga mansub bo`lgan, ya`ni nutqning barcha vaziyatlarida ham shakldoshlik holatini saqlay olmaydigan so`zlar.

3. Imloda shakldosh, ammo talaffuzi farqlanuvchi so`zlar. Eski o`zbek alifbosiga asos bo`lgan arab imlosi konsananat yozuv ekanligini e`tiborga olsak, asarda bunday so`zlar miqdori ko`pchilikni tashkil etadi.

¹⁹¹ Огаҳий. Асарлар. VI жилд. — Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980.

¹⁹² شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶. جلد ۱ ص ۳۲۴

4. Talaffuzda shakldosh, lekin imloviy ifodasi farqlanuvchi soʻzlar. Masalan, *xon* – *xon* (dasturxon). Bunday soʻzlar ikki sabab bilan yuzaga keladi:

a) biror harfning imloda aks etgan talaffuz etilmasligi. Yuqoridagi misolda “dasturxon” maʼnosidagi “xon”da “vov” harfi yozilsa ham, oʻqilmaydi. Bunda fors orfografiyasidagi “xv” harf birikmasidan keyin kelgan “vov” talaffuz qilinmasligi qoidasiga asoslaniladi;

b) arab alifbosida ayrim undoshlar uchun ikki, uch yoki toʻrt harfning mavjudligi.

Bu harflar (masalan, *se, to, sod, ayn*) ifoda etgan tovushlar arab tilida boshqa-boshqa fonemalar boʻlsa ham, oʻzbek tilida ularning talaffuzi farqlanmaydi. Deylik, arab tilida til oldi, portlovchi, jarangsiz “t”ni “te” ifoda etsa, emfatik “t”ni “to” harf ifodalaydi. Oʻzbek tiliga esa har ikkala harf vositasida aks etgan undosh til oldi, portlovchi, jarangsiz “t” sifatida qabul qilingan. Bunday holat arab imlosiga asoslanilgan eski oʻzbek yozuvida islohotga qadar arab va forsiy oʻzlashmalar imlosida tarixiy-anʼanaviy tamoyilga toʻla rioya qilish natijasida yuzaga kelgan.

Eski oʻzbek tilida bitilgan qoʻlyozmalar xususiyatlarini eʼtiborga olsak, qoʻlyozma va xat turlariga bogʻliq ravishda yuzaga kelgan, aslida nuqtalarining soni bilan farqlansa ham bir xil yozilgan, tabiiyki, talaffuzda farqlanuvchi soʻzlarni shartli ravishda muvaqqat omonimlar termini bilan qayd etishni lozim topdik. Koʻrinib turibdiki, omonimlarning bu turi xususida faqat maʼlum bir qoʻlyozmaning xususiyatlari, kotibning tutgan printsipini eʼtiborga olib soʻz yuritish mumkin. Ogahiy tarixiy asarlarining ayrim qoʻlyozmalarida qoʻllanilgan “band”, “pand”; “karam”, “garm” kabi soʻzlar aynan biz nazarda tutayotgan omonimlar hisoblanadi. Ularni “muvaqqat omonim” termini bilan atashni maʼqul topganimiz sababi esa, maʼlum bir qoʻlyozmada bir xil shaklda yozilgan, imlosi shakldoshlik kasb etgan, deylik, yuqoridagi soʻzlar boshqa bir kotib qalamida asliga muvofiq yozilishi bilan imloviy shakldoshlik xususiyatini yoʻqotadi. Bu jihatga mumtoz poetikada ham eʼtibor qaratilgan boʻlib, omonimlar asosida yuzaga keladigan tajnisning bir koʻrinishini yozuvda nuqtalar miqdori bilan farqlanuvchi

soʻzlar hosil qiladi¹⁹³. Masalan, Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” asaridagi ushbu bayt biz nazarda tutgan tajnisning goʻzal namunasi boʻla oladi:

Bu dedi: “Kerak qulogʻigʻa pand”,

Ul dedi: “Kerak ayogʻigʻa band”¹⁹⁴.

Ogahiy tarixiy asarlarida *arz* shaklida uchta shakldosh soʻz qoʻllanilgan boʻlib, har uchasi ham arab tilidan oʻzlashgan.

Arz I – izhor, bayon, murojaat, istak. Shu asosida “arz qilmoq” qoʻshma feʼli *bayon qilmoq, murojaat qilmoq, oʻz istagini bayon aylamoq* kabi maʼnolarni anglatadi: faqiri malolattaxmir Muhammad Rizo mirob al-mutaxallas bi-l-Ogahiy ibn Erniyozbek, ahsana allohu taolo aʼmolahi va hussil omolahu, mundoq *arz qilurkim*,.. (9786//6^b). Mazkur feʼlning qayd etilgan maʼnosi hozirgi oʻzbek adabiy tilida nafaol boʻlib, ayrim evfemik murojaatlardagina ishlatiladi. Bu feʼlning Ogahiy leksofondida hozirgi adabiy tilimizda faol “shikoyat qilmoq” maʼnosida ham keng ishlatilgani koʻzga tashlanadi: iztiror va zorligʻ bila *arz qildikim*, hazrat agar bu sipohi mahsharasarni bu mehnatzadalarining ustidin qaytarib, muhosara tarkin tutub, muaskari zafarparvargʻa muovadat qilsalar,.. (9786//175^a). Oʻzbek mumtoz adiblari tilida har ikkala maʼno ham keng isteʼmolda ekanini koʻrishimiz mumkin. Ayrim hollarda *arz qilmoq, arz aylamak* keng isteʼmolda boʻlgan qayd qilingan har ikkala mazmunini ham nazarda tutgan holda iyyom yaratilgan. Masalan, Muqimiyning mashhur “Tanobchilar” hajviyasidagi “arz etayin emdi yozib nomalar” misrasida ham shu holatni koʻrishimiz mumkin.

Ana shu soʻz asosida yuzaga kelgan *arz aylamak* feʼli “istamoq”, “mayl qilmoq” maʼnolarida ham ishlatilgan. Masalan,

Bas manga *arz aylamak* toju sarir

Kim, alar ollimda asru haqir. (9786//24^a).

Arz soʻzi asosida shakllangan qoʻshma feʼllarning yana biri *arzgʻa etkur*-boʻlib, diplomatik munosabatlar xususida gap ketayotgan vaziyatda elchilarning oʻz vakolatlari doirasida munosabat bildirishlari, oʻz mamlakati hukmdorining

¹⁹³ Хусайний Атоуллох. Бадойиъу-с-санойеъ. Форс тилидан А.Рустамов таржимаси. – Тошкент: Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1982.

¹⁹⁴ Алишер Навоий. Мукаммал асрлар тўплами. 9-том. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 108.

yoʻzishma va sovgʻalarini taqdim qilishlarini anglatadi: oʻzga peshkashu tuhfa bilan dargohi jahonpanoh bandalarining *arzigʻa etkurub*, inoyati podshohonadin masrur va mahzuz boʻldi. (9786//174^b). Fuqarolarning hukmdorga murojaati koʻp hollarda *arzi ahvol* birikmasi orqali bayon qilingan: hazrat aʼlo xoqoni maʼdlatnishonning fuqaro va raoyo *arzi ahvolining* istifsoi uchun shikor bahonasi bilan rukub qilgʻoni va Qoʻngʻirot navohisidin murojaat qilib xilofat qarorgohiga kelgani. (9786//32^b).

Arz II – biror narsaning kengligi, eni¹⁹⁵. Quyidagi parchada oʻzaro maʼnodosh arabcha *arz* va turkiy *en* soʻzlari birgalikda qoʻllangan: Otyoʻli guzargohidakim, suyi etti erdin yoʻl yasab, etti shuʼba boʻlub oqar erdi, baʼzi shuʼbaning *arzi* ikki tanob va bazining *eni* bir tanob erdi,.. (9786//133b).

Arz III – er, zamin. Bu soʻz oʻz shakldoshidan “a” unlisi “alif” harfi orqali ifodalanishi bilan farqlanadi.

Ogahiy tarixiy asarlari badiyatini oshirishda *dod* soʻzining shakldoshligidan ham unumli foydalangan. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida bu soʻz undovlardan biri hisoblanib, otlashgan holatda “nola”, “figʻon” maʼnolarini ham anglatadi. Uning “shikoyat” mazmuni uchun ham ushbu shakl asos boʻlgan: ojizu zaif va miskin fuqarolarning ahvolin surub, *dodigʻa etmak* va marohimi podshohona bilan koʻngillarini olmoq uchun... (9786//44^b).

Eski oʻzbek tilida uning “adolat” maʼnosi ham boʻlib, uning ildizi avestoviy *dâta* – “qonun” soʻziga borib taqaladi va sanskrit tildagi shu maʼnoda ishlatilgan *dhâman* soʻzi bilan oʻzakdosh sanaladi¹⁹⁶: *dodu adlgʻa* mashgʻul boʻldilar va zolimlarning zulmu taaddisi ilkin mazlumlar shah roʻzgori etokidin koʻtoʻh qildilar. (9786//72^b). Koʻrinadiki, ushbu parchada *dod*, *adl*; *zulm*, *taaddi* soʻzlari orqali tarodif va tazod hamda *zulm*, *mazlum*, *zolim* soʻzlari orqali ishtiyoq va tanosub yuzaga kelmoqda. Eski oʻzbek tilida keng qoʻllanilgan “adolat istovchi” maʼnosidagi *dodxoh* soʻzi ijtimoiy-siyosiy termin sifatida mansab nomi ham boʻlgan. Quyidagi parchada Ogahiy badiiy mohirlik bilan “dodxoh ahli” birikmasi

¹⁹⁵ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 109.

¹⁹⁶ شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶. جلد ۱ ص ۸۰۷

orqali ham adolat istab xonga murojaat qilgan odamlarni, ham o`sha odamlar Karimxon dodxoh qo`l ostida bo`lganliklarini nazarda tutib, iyhom hosil qila olgan: *dodxoh ahlining* dodig`a kamo hadduhu etib, beshinchi kunikim, seshanba erdi, shavkati podshohona va savlati xisravona bila Qipchoq qal`asig`a vorid bo`lub,.. (9786//32^a).

Eski o`zbek tilidagi “dod” komponentli hamma so`zlarda ham qayd etilgan ma`nolarni izlash to`g`ri emas. Masalan, *bedod* (zulm) so`zida haqiqatan uning “adolat”, “qonun”, “dastur” ma`nolari yotsa, *xudodod* kabi so`zlarda uning fors tilidagi yana bir omonimi – *dodan* (bermoq) fe`lining o`zagi yotadi. Demak, *xudodod* aynan “xudo bergan”, “tangri ato qilgan” ma`nolarini anglatadi: ... ba`zi noma`qul sabablar bila bu *xudodod* davlatning nisbatida inodu adovat paydo qilmish erdi. (9786//51^a).

Ogahiy *dod* shaklli qayd etilgan so`zlar hamda eski o`zbek tilidagi “biror ishni o`rniga qo`ymoq”, “juda yaxshi bajarmoq”¹⁹⁷ ma`nosidagi *dodin bermak* iborasidan unumli foydalangan holda quyidagi misoldagi kabi ko`plab o`rinlarda tavze`, tajnis va tanosub yuzaga keltirgan: mazlumlar va bechoralar arzi ahvolin so`rarda *adlu dod* rusumi *dodin berdilar*. (9786//72^b).

Umuman, o`zbek va fors adabiyotida *dod* shaklli so`zlar orqali barkamol mazmun va shaklli baytlar, hikmat va bayonlar yaratilgan o`rinlar ko`plab uchraydi. Masalan, Sa`diy Sheroziy “Guliston”da yozadi:

Zi go`sh panba berun or-u *dodi* xalq bideh,

Vagar tu menadehiy *dod*, ro`zi *dode* hast¹⁹⁸.

Tarjimasi: “Sen qulog`ingdan paxtani olib tashlab, xalqning dodiga quloq sol. Agar sen adolat qilmasang, adolat qilinadigan bir kun bor”.

Ko`rinib turibdiki, yuqoridagi tasnif faqat lug`aviy shakldosh so`zlarga taalluqli bo`lib, Ogahiy tarixiy asarlarida sintaktik omonimlarga misol bo`la oladigan badiiy barkamol o`rinlar ham ko`p. Ularning tahlili, bir tomondan, eski o`zbek tilidagi lug`aviy omonimlar tabiatini o`rganishga yordam bersa, ikkinchi

¹⁹⁷ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 496.

¹⁹⁸ Dorj 3. Al-rams. www.mehrarham.com.

tomondan, Ogahiyning shakldosh soʻzlardan foydalanish bobidagi poetik mahoratidan zavqlantiradi. Masalan, “Jomeʼu-l-voqeʼoti sultoniyy”dan joy olgan masnaviylarning birida shunday satrlar bor:

Birov oldi komin surub *yilqisin*,
Na bir *yilqisin*, balki ming *yilqisin*.

Baytda qoʻllanilgan *yilqisin* soʻzining birinchisi “yilqisini”, “ot-ulovini”; ikkinchi va uchinchi qoʻllanishida “yilgisini”, “yilligini” tarzida tushunish mumkin. Bunda baytning umumiy mazmuni “birovlar maqsadiga erishib (gʻorat qilinganlar)ning ot-ulovini oldi, nafaqat bir ot-ulovini, balki ming ot-ulovini oldi” tarzida namoyon boʻladi. Endi aynan shu baytni

Birov oldi komin surub *yilqisin*,
Na *bir yilqisin*, balki *ming yilqisin*

tarzida tushunib oʻqisak, bayt mazmuni “birovlar maqsadiga etgan holda (gʻorat qilinganlar)ning yilqisini oldi. Ular nafaqat bir yilgi, balki ming yillik orzulariga erishdi” koʻrinishini oladi. Asarda soʻz ketayotgan voqealar bayoni ham, baytning umumiy ruh va mazmuni ham, muhimi, eski oʻzbek tilining grammatik qurilishi ham bunga imkon beradi. Shuning uchun ham, badiiy barkamol satrlar nazmda boʻlsin, nasrda boʻlsin grammatik qoidalarga toʻla rioya qilingan holatdagina yuzaga keladi. Bu kabi baytlar Ogahiy Alisher Navoiyga badiiy mahorat bobida toʻla ergashganlilini koʻrsatib beruvchi faktik material hamdir. Qolaversa, baytda Ogahiy eski oʻzbek tilining leksik va sintaktik imkoniyatlarini namoyon qila olgan. Umuman olganda, tilning qator sathlardagi imkoniyatlari uning sintaksis qurilishida namoyon boʻlishi maʼlum. Qizigʻi shundaki, *yilqi* (chorva moli) va *yilqi* (yilgi, yillik) soʻzlarining shakldoshligidan foydanib tajnis hosil qilish “Qutadgʻu bilik”da ham uchraydi:

Tili yalgʻan erning jafa qilqi ul,
Jafa kimda ersa oʻshul *yilqi* ul.
Kishi yalgʻanindan tilama vafa,
Bu bir soʻz sinamish oʻkush *yilqi* ul.

Ogahiy “Qutadg`u bilik” bilik bilan tanish bo`lmagani aniq. Bunday faktlar esa buyuk iste`dodlar va maslakdoshlar g`oyibona ham bir-birlari bilan hamfikir bo`lishidan darak beradi.

Ogahiy boshqa bir o`rinda ana shunday badiiy mahoratini o`zlashma so`zlar vositasida ham namoyish qiladi:

Birov aylabon novakin *tezdam*,

Ki to`kkay aduv xaylidin *tez dam*.

Baytning mazmunini to`la anglash uchun eski o`zbek tilida *tez* va *dam* shakliga ega bo`lgan so`zlarning lug`aviy ma`nolariga e`tibor qaratamiz: *Tez*

1. *Tez*, chaqqon, tezda. Gurdlar raxshin surub maydong`a *tez*, Solibon xayli aduvg`a rustaxe.

2. O`tkir. *Tez et-*, *tez ayla-* – o`tkirlamoq: Birov *tez etib* o`qi paykonini, Ki to`kkay borib xasm eli qonini.

Bundan tashqari, Ogahiy asarlari tilida ushbu so`zning “haroratli, “issiq”, “otashin” ma`nolari ham mavjud: Chun fasod ahlining mundoq harakati mazmumasining *sarsari tezidin* ul hazratning otashi qahri shu`langiz bo`lub,..

“Dam” so`ziga esa mumtoz adiblarimiz asarlari tiliga tuzilgan lug`atlarda quyidagicha izoh berilgan: *DAM I* f. – nafas, lahza, on; *DAM II* f. – temirchining dami; *DAM III* a. – qon¹⁹⁹. Nima uchundir mazkur o`rinda “dam” so`zining Alisher Navoiy asarlari tilida ham mavjud “tig`” ma`nosi nazardan chetda qolgan. So`zning bu mazmuni hozirgi o`zbek adabiy tilida ham faol va “ikki tig`li qilich” ma`nosidagi “dudama” so`zida ham ko`rinadi. Bu so`z Munis va Ogahiy asarlari tilida harbiy termin sifatida ham, ko`chma ma`noda ham ishlatilgan: “She`r ul *tig`i dudamdurkim*, yurub olamni fath etar”. (Munis Xorazmiy). Ta`kidlash kerakki, arabcha “dam” so`zining asl shakli “damm” bo`lib, tarkibiga ko`ra muzoaf (muzoafi sulosiy) hisoblanadi. SHuning uchun ham undan boshqa so`zlar ishtiyoq qilinganda “dimom” shaklini oladi. U mumtoz adiblarimiz tilida “qon to`kish” ma`nosidagi *safki dimo`* birikmasi tarkibida ham bor. Kam iste`molda bo`lgan bu

¹⁹⁹ Иброҳимов С., Шамсиев П. Навоий асарлари луғати. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972 – Б. 176.

birikma asar tilida ham mavjud. Jumladan, “Va lekin ehtimoli borkim, shuja`oyi hujastasifotdin ba`zining gavhari zotig`a xalal va nuqsoni etkaykim, ul xazaf miqdor mazallatosorlarning yuz mingi birining qadami g`uborig`a bah bo`la olmas va yana zohirdurkim, har shahar va viloyatekim, qahran va qasran musaxxar bo`lsa, *safki dimo`* vuqu` topib, ko`p kishining molu jonig`a zarari fohish etishgusidur”. Demakki, keltirilgan baytning birinchi misrasida Ogahiy “tez” so`zining “o`tkir”, “dam” so`zining “tig`”; ikkinchi misrasida esa “tez” so`zining “tezda”, “chaqqon”, “dam” so`zining “qon” ma`nolarini nazarda tutgan holda sintaktik omonimiya hosil qila olgan.

Ogahiyning so`z xususidagi ilmiy qarashlari uning ma`rifiy pozitsiyasi bayoni, didiktikasi bilan uyg`unlashib ketadi. SHoir inson manfaatlariga, uning ruhiy kamoliga xizmat qilmaydigan so`zni *hashv* so`z (aynan ichi bo`sh, kovak so`z – behuda so`z) hisoblaydi. Hatto, yaratganga iltijo qilib, odamlarning yuziga qarab, ulardan bunday so`zlarni eshitmaslik uchun ko`zlari ko`r, quloqlarini kar qilib quyishini, ya`ni bunday odamlar bilan hamsuhbat bo`lish va so`zlarini eshitish azobidan butkul qutqarishini so`raydi:

Boqib ulus yuzig`a *hashv* so`z eshitmakdin

Hamisha ko`ru kar etgil ko`zu qulog` mango.

Mumtoz o`zbek adiblari tilida so`z shaklida ikkita so`z bo`lib, biri genetik jihatdan asl turkiy bo`lib, hozirgi o`zbek adabiy tili va shevalarida keng iste`molda bo`lgan so`z; *nutq; gap; she`r; fikr* kabi ko`plab ma`nolarga ega. Qadimgi turkiy bitiklarda sab shaklida bo`lib, uning nutq ma`nosi ham ko`zga tashlanadi<sup>200</sup>. “Kul tegin” bitiktoshining quyidagi o`rnida “sab”ning maslahat, umumiy mazmundan kelib chiqqan holda esa “vasiyat” ma`nosida ham anglash mumkin bo`ladi: “So`zimni tugal eshitgil, keyinimdagi xalqim, o`g`illarim, ittifoq, urug`, o`ngdagi shadapit beklar, chapdagi tarxonlar, uyruq beklar,..<sup>201</sup>”. Demakki, *sab* // so`z so`zi

²⁰⁰ Йўлдошев Р. Қадимги туркий тил. – Урганч, 2005.

²⁰¹ Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981. – Б. 89. Бу ўринда матннинг китоб муаллифлари томонидан ҳозирги ўзбек адабий тилига уйғунлаштирилган вариантинигина келтирдик.

hozirgi ko`chma ma`nolarining ko`pchiligini qadimgi turkiy davridayoq kasb etgan. So`zning Ogahiy ijodidagi ma`no qirralari xususida gapirishdan oldin shu shakldagi ikkinchi bir so`z haqida aytib o`tsak. So`z shaklidagi ikkinchi so`z kelib chiqishiga ko`ra forsiy bo`lib, aslida suxtan – *yonmoq, kuymoq* fe`lining hozirgi zamon negizidir²⁰². So`zning ayni shu ma`nosi Xorazm shevalarida mavjud *xomso`z* (xom pishgan) so`zida ko`rinadi. Mumtoz o`zbek adiblari tilida, shuningdek, *dilso`z* (yurakni yoquvchi), *jahonso`z* (jahonni kuydiruvchi) kabi kalimalar mavjud. Masalan, Ogahiy:

Ogahiy, *dilso`z* nazmingni eshitsa ahli ishq,
Bo`ynig`a ta`vizdek aylarlar ash`oringni band.

Yoki Fuzuliydan:

Yondurub jonim *jahonso`z* etma barqi ohimi,
Osmon, xurshidi raxshoning kerakmazmu sango.

So`z mumtoz o`zbek adiblari tilida ushbu ma`noda ko`pincha yasama so`zning tarkibiy qismi, ba`zan esa mustaqil holda ishlatilgan. Masalan, Ogahiyning quyidagi baytida uning mustaqil holatda ishlatilganini ko`ramiz:

Bu na zulm ediki raqib bazmida mayli aysh etasan mudom,
G`ami furqating o`ti ichra bizga nasib so`zu go`doz etib.

Demak, Alisher Navoiyning mashhur qit`asidagi
Biri mo`jiz bayonlig` sohiri Hind,
Ki ishq ahlin o`rtagay so`zu holi

baytida so`zni har ikkala ma`noda ham tushunish mumkin. Chunki, bu o`rinda “o`rtamoq” (yoqmoq) va “yonish” ma`nosidagi so`z tanosub hosil qilgan.

Ogahiy tarixiy asarlarida qo`llanilgan omonimlarni o`zaro turli lug`aviy qatlamga mansub so`zlar doirasidagi munosabatini quyidagi guruhlash mumkin:

1. Turkiy so`zlar bilan forsiy so`zlar o`rtasidagi omonimiya. Masalan, turkiy “so`z” va forsiy “so`z”. Ushbu turkiy va forsiy “so`z”larni ishlatish orqali bir yo`la iyhom va tajnisni yuzaga keltirishni Ogahiy lirikasida uchratamiz. Masalan,

²⁰² Абдусаматов М. Форс тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – Б. 379.

Bo`lub karam tafakkur, Ogahiy, qil puxta so`znikim,
So`zingg`a so`z toporg`a ochmasun hech bir suxandon lab.

E`tibor qaratsak, ikkinchi misradagi so`z *topmoq* birimasini shoir iyhom asosida ikki ma`noda ishlata olgan:

1. Javob aytmoq.

2. Nuqson topmoq, ayb topmoq, nuqsonli deb bilmoq. Hozirgi *gap topmoq* iborasi.

Endi diqqatingizni shu o`rinda boshqa bir jihatga qaratmoqchimiz. Baytni hozirgi shaklidan tugal fikr anglash qiyin, ya`ni grammatik jihatdan bayt tuzilishida xato bor. Albatta, Ogahiydek daho ijodkor tilning umumiy qoidalaridan chekingan holat kuzatilmaydi, bunday qilish, xususan, ulug` so`z san`atkorlari butun umr qarshi kurashgan illat. Shuning uchun, nashr davomida ju`ziy e`borsizlik kelib chiqqan degan xulosaga keldik. Sababi baytdagi “bo`lub karam tafakkur” birikmasini “bo`lub garmi tafakkur” tarzida o`qish kerak. Chunki birinchi holatda umuman biror fikr anglashilmaydi. Ikkinchi holat esa “tafakkur bilan mashg`ul bo`lgan holda”, “teran tafakkur qilgan holda” degan ma`noni beradi. Aslida “issiq” ma`nosini anglatgan “garm” so`zi izofiy holatda “biror narsa bilan band bo`lish”, “g`oyat mashg`ul bo`lish” ma`nosini beradi. Fors tilida “ish bilan bandman” mazmuni “sargarmi koram” tarzida namoyon bo`lishining sababi shu. Eng asosiysi, qo`lyozmada *garm* va *karam* so`zlari bir yoziladi. Chunki kotiblar “kof” كوف va "گوف" harflarini odatda bir xil shaklda yozadilar. Eng muhimi, bizning islohimizdan keyin bayt vazni o`z joyiga tushadi, hazaji musamanni solim holiga keladi.

Demak, shunga ko`ra, bayt mazmunini ikki xil talqin qilish mumkin bo`ladi:

1. Ogahiy, tafakkurga g`arq bo`lib, so`zingni puxta qilki, hech bir suxandon (so`z ustasi) so`zingdan nuqson topmasin. 2. Ogahiy, teran tafakkur bilan she`riyatingni shunday puxta qilki, unga hech bir so`z ustasi teng keladigan javob bita olmasin.

Baytdagi “karm” so`zini *garm* ekanini aynan “puxta” so`zining ham ishlatilayotgani yana bir karra asoslaydi. Chunki lug`aviy jihatdan “issiq” ma`noli *garm* va asl ma`nosi “pishiq” bo`lgan *puxta* so`zlari tanosub san`atini hosil qiladi.

Xulosa qilib aytganda tarixiy asarlardagi omonimlar tadqiqi quyidagi jihatlari bilan ahamiyatlidir:

1. Asarda bayon qilingan tarixiy voqelikni to`g`ri anglash.
2. Tarixiy asarlarning badiiyligini to`g`ri tushunish, unda omonimlarga bog`liq mumtoz badiiy san`atlar (tajnis, iychom kabi)larning qo`llanishi orqali lingvopoetik xususiyatlarni yorqinroq o`rganish.
3. Tilimizda mavjud ayrim omonimlarning lug`aviy qatlamlar bo`yicha tahlilini amalga oshirish.

III.3. Asarda sinonimlar. Bilamizki til boyishining ikki xil manbasi bor: ichki va tashqi manbaa. So`z yasash, shevalardan so`z olish orqali lug`at tarkibini boyitish ichki manbaa hisobidan bo`lsa, boshqa tillardan so`z olish tashqi manbaa hisoblanadi. Ushbu asarda arab, fors-toik, eron, mo`g`ul va boshqa bir qancha tillarga oid so`zlar uchraydi.

Sinonimlar odatda bir xil ma`noli so`zlar, bir-biriga yaqin ma`noli so`zlar, yaqin yoki bir ma`noli so`zlar, lekin uslubiy bo`yoqlari, qo`llanish sathlari bilan farqlanuvchi so`zlar sifatida ta`riflanadi.

Demak, hali fanda sinonimlar chegarasi belgilab berilmagan.

“Oliymakon sultonlarning *dabdabai hashamati* va garduntavon hoqonlarning *kavkabai* davlati ul podshohi alal itloqning qullig`i bilan intizom toparkim, olami nosut aning bargohi saltanati oldida bir qazoi muhaqqardur va fazoi malakut dargohi uzmatidin bir sahni muqassar”²⁰³.

Ushbu parchada uchta so`z o`zaro sinonimik qaror hosil qilgan bo`lib ular arab tiliga oid:

Dabdaba – tantana, savlat, hatbat, baland ovoz, dovrug ma`nolarini bildiradi;

Hashamat – katta hasham, savlat, dabdaba ma`nolarini beradi;

Kavkaba – ulug`vorlik, shon-shavkat.

Sinonimlardan foydalanishning yana bir asosiy foydasi o`quvchini zeriktirib, o`zidan bezdiruvchi takroriylikning oldi olinadi.

²⁰³ Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2010. 19-bet.

“... boshimda ishrat havosi *vofir* erdi, ko`nglimda *nishot* savdosi *mutakosir*.

Bayt:

Tarab orzu qilmoqimdin na sud,
Ki chun orzu tutmas ersa vujud²⁰⁴.

Bu yerda *nishot* va *tarab* so`zlari sinonim, ular shodlik, xursandchilik, xurramlik ma`nolarini beradi. Bundan tashqari shu ma`noni ifodalash uchun *musarrat* va *inbisot* so`zlaridan ham foydalanilgan:

“...jahon hitori iqbol vusulining *musarrat*idin ishratafzo bo`lub, ...²⁰⁵,”

“Xon ko`p *inbisot* va g`oyati *nishot* bila ichkari kirib o`lturdi²⁰⁶”

Ushbu misrada *vofir* va *mutakosir* so`zlari berilgan bo`lib, ular arab tiliga oid, ko`p, mo`l-ko`l, hadan ziyod ko`p ma`nolarini beradi.

Asarda *Xudo* so`zini ifodalash uchun bir qancha so`zlar keltirilib sinonimik qator tashkil etilgan:

- a) Alloh – arabcha so`z, ilohoy kuch, *xudo*²⁰⁷;
- b) Rabb – arabcha: ega, xo`jayin;
- c) Tangri – mo`g`ulcha so`z: yaratuvchi ma`nosini beradi;
- d) Sone – arabcha so`z, yaratuvchi degani;
- e) Mutloq iloh – *xudo* ;
- f) Ofarin – fors-tojik tilidan olingan bo`lib, maqtov, madh tasanno, yasha; yaratuvchi, paydo qiluvchi<sup>208</sup> ma`nolarini beradi.

Ushbu qatordagi ko`p so`zlar tanish, lekin ular ichida birinchi bor eshitayotgan so`zlarimiz ham bor. Ular qatnashgan o`rinlardan keltirsak:

“Zihi *sonei* kim, yamm sun`ida,
Falak bir janob nagunsor erur”²⁰⁹.

“Angushtnamo mo`jizotidin shaqqulqamar bir dalili hayrat ofarin”²¹⁰.

²⁰⁴ Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2010. 26-bet.

²⁰⁵ Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2010. 27-bet.

²⁰⁶ Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2010. 94-bet.

²⁰⁷ O`zbek tilining izohli lug`ati - “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-yil, 5 tomlik, 1-tom, 73-bet

²⁰⁸ O`zbek tilining izohli lug`ati - “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-yil, 5 tomlik, 3-tom, -bet.

²⁰⁹ Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2010. 19-bet.

²¹⁰ Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2010. 24-bet.

Sinonimlar yozuvchining soʻz qoʻllashdagi mahoratini koʻrsatuvchi lugʻaviy birlikdir. Badiiy asarda oʻrinli qoʻllanilgan sinonimlar asar tilining rang-barangligini koʻrsatib beradi.

Koʻrib turibsizki Ogahiy asarlarida ham sinonimlar alohida oʻrin egallagan.

Xullas, mualliflar ushbu asarda turli tillarga oid sinonim soʻzlardan foydalanib, asar tilining chiroyli boʻlishiga erishgan.

Ogahiy asarlarida “soʻz” maʼnosini anglatuvchi oʻzlashmalardan: soʻzlardan “soʻz”, “kalima”, “kalom”, “nutq”, “nukta”, “nukot”, “lafz”, “alfoz”, “suxan” kabi muqobil lugʻaviy birliklardan keng foydalangan⁴.

1. “kalom” va “kalima” - arabcha “soʻz” va “nutq” maʼnosidagi leksik birliklardir:

... *CHu shakkarrez qilding har nafas shirin kalomingni,*

*Bori qushlar guruhi ichra boʻlding sarvar, ey toʻti...*⁵

(Ey toʻti, har bir kalomingni (soʻzingni), har bir nafasingni shirin qilganliging uchun, barcha qushlar ichida sarvari boʻlding)

Xalqimizda “Shirin soʻz shakardan shirin”⁶ degan maqol bor. Toʻtining ovozi shirin boʻlganligi uchun barchaga manzur boʻlib, qushlar ichida sardori boʻldi. Bejiz aytilmagan “Shirin yuzingdan shirin soʻzing aʼlo”-deb.

... *Tarahhum koʻrguzub mandin takallumni darigʻ etma,*

*Ki, man bir xastau shirin kaloming ankabinimdur*⁷.

Bekorga el ichida “Bir tavakkal buzadi, ming qaygʻuning qalʼasin. Bir shirin soʻz bitkazar, ming koʻngulning yarasin⁸” deyilmaydi. Chunki shirin soʻz xasta koʻngulga malham boʻladi, inson umrini uzaytiradi, balki soʻz inson qadrini yanada balandroqqa koʻtaradi.

... *Ogahiy, nazm ila soʻz kim nazm aro fazl ahligʻa,*

San kibi zohir kalomi jonfizo qilmoq gʻalat.

... *Majlisda Masihomu takrori kalom aylar,*

⁴ Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. –Тошкент: 1972. 421-473-301-333-бетлар.

⁵ Огаҳий. Асарлар. Олти жилдлик. Иккинчи жилд. -Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972, 62-бет.

⁶ Ўзбек халқ мақоллари. нашриёти. –Тошкент: “Шарқ”, 2003. –Б 86.

⁷ Огаҳий. Асарлар. Биринчи жилд. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. –Б 188.

⁸ Мирзаев Т., Мусакулов А, Саримсоков Б. Ўзбек халқ мақоллари. “Шарқ” нашриёти. –Тошкент: 2003. –Б 78.

Yo shisha ayon etkan qul-qulmi ekan oyo.

Ushbu misralarda “kalom” soʻzi ham “nutq”, “gap”, “soʻz” maʼnolarini ifodalagan.

2. Arabcha “nukta” va “nukot” ifodasi ham soʻz tushunchasini anglatgan.

Ogahiy ijodida ushbu soʻzlardan ham keng foydalangan:

... Agar shirin soʻzingdin dahr aro yuz ming shakar sochsang,

*Oni zahr aylagay bir talx nukta ahli gʻiybatdin...*⁹

(Gʻiybatchilarning bir achchiq soʻzi koʻngilni ogʻritib, el ichida gapirgan barcha shirin soʻzlaringni zaharga aylantiradi).

Dono xalqimizda “Dorining achchigʻi yaxshi, soʻzning shirini” degan ibora bor. Darhaqiqat, achchiq va yomon soʻz yurakda gʻam va dogʻ qoldiradi. SHirin soʻz esa qalbga malham boʻladi.

Ushbu misralar Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” asaridan olingan:

Kishi soʻksa, achchiq tutar ersa til

Suyakka urar nish, ogʻritar koʻngul,

Tayoq zarbasining izi tez oʻchar,

*Bu til zarbidan iz qolar necha yil,*¹⁰

baytini esga soladi.

...Nazming durini, Ogahiy, bazl aylagil ancha,

Har kimda boʻlsa nukta mavzungʻa ihtiyoj...

(Agar kimki chiroyli, ravon, mazmunli soʻzga ehtiyoji koʻp boʻlsa, Ogahiy, nazm durini, shirin soʻzingni undan ayamagin)

...Birovkim bersa gar amvotgʻa har nuktasi yuz jon,

Oʻlub hasrat bila boʻlgʻay odam tufrogʻida madfun...

...Dedi ayni karamdin chehrai zardim sori boqib,

Shakardek nukta birla lablarin shirin kalom aylab...

3. Arabcha “nutq” soʻzi “notiq” (soʻzlovchi) bilan bir asosda yasalgan. “Nutq” soʻzi ham “soʻz” tushunchasini ifodalaydi. “Suxan”, “suxandon” (suxan+don)

⁹ Огахий. Асарлар. Иккинчи жилд—Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. —Б 20.

¹⁰ Каримов. Қ.Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Тўртликлар. Ғ.Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти. —Тошкент. 1971. Б. 67

so`zga chechan, farosatli gapga usta, gapdon, notiq kabi ma`nolarni bildiradi. Ogahiy ushbu so`zlardan keng foydalangan.

...Garchi Iso nutqidin topg`ay o`luk jon lazzatin,

Lek jonparvar so`zing yuz qotladur ondin laziz..

(Yorning jonparvar so`zi hatto Iso payg`ambarning o`likni tiriltiruvchi nutqidan ham ustundir)

...Rakikun nutq bo`lg`il, ey ko`ngul, qo`y xush adoliqni-

Ki bulbul qadri yo`qdur ahli dahr olida quzg`uncha...

(Qo`pol so`zli bo`lishni to`xtat chunki, zamon ahllari uchun sayroqi bulbulning ham ovozi dag`al bo`lsa quzg`uncha qadri bo`lmaydi).

...Nutqi ruhulloh o`lukni tirguzurda bo`lmog`oy,

La`lidin taqrir topg`on nuktai shirin kibi...

... Muhib gar Ogahiyg`a bo`lsa ul xublar shahi tong yo`q-

Ki, husni nutq ila Mahmud mahbubi Ayozi o`lmish...

...Ketmish edi jon gavhari nutqin tilabon shukr,

Kim, ushbu gado ul labi durposhima etti...

...Tong emas nazm aylasam tun-kun farahafzo suxan-

Kim, etar ondin base sho`xi suxandonimg`a xaz..."

(Tun-kun odamlarni xursand qiladigan so`zlar bilan ijod qilsam ajablanmang, yoringa huzur bag`ishlaydi)

...Dur jilvasi dilkashdur gar huqqai la`l ichra,

Ermis labidin chiqqon dilxoh suxan yanglig`...

(Yorning labidan chiqqan ko`ngilga yoquvchi shirin so`zi hatto dur va gavharning jilvasidan ortiqdir)

...Qolg`onin so`zdin tilimning ayt go`yolig` bila,

Yuz qo`yub yoru ado fahmu suxandonim sari..

Ogahiy mohir tilshunos sifatida nafaqat o`z tilini, balki arab va fors tillarini ham puxta bilgan. O`z asarlarida bu til elementlaridan mohirona foydalanib, ko`p va xo`b ijod qilgan.

Soʻzlarning qaysi tilga oidligini ahiqlash juda qiyinligi sir emas. Lekin buni aniqlash ham mumkin. Misol uchun oʻzbek tiliga xos boʻlgan soʻzlarni quyidagi usullar orqali aniqlash mumkin:

- a) feʼl turkumiga oid soʻzlar;
- b) yasama soʻzlar oʻzbekcha;
- c) sonlar ham oʻzbekcha lekin, baʼzilari bundan mustasno;
- d) rangni bildiruvchi sifatlar;
- e) qarindoshlikni ifodalovchi soʻzlar.

Bularga inson aʼzolarini bildiruvchi soʻzlarni ham kiritish mumkiha soʻzlardir. Lekin “peshona” soʻzi boshqa tildan olingan.

Biz tilimizda peshona soʻzi bilan bir qatorda manglay soʻzini ham qoʻllaymiz.

Manglay – moʻgʻulcha soʻzdan olingan boʻlib, peshona maʼnosini beradi²¹¹.

Peshona soʻzining dubleti boʻlib u “peshana” tarzda ishlatiladi. Dublet bir soʻzning ikki xil yozilishidir. Bunga misol qilib yana kaptar-kabutar, adab-odob soʻzlarini aytish mumkin.

Peshana – fors-tojikcha soʻzdan olingan boʻlib, yuzning qoshdan sochgacha boʻlgan qismi, manglay; bisot, bud-u shud; qismat, taqdir, yozmish²¹² degan maʼnolarni bildiradi.

Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asaridan misollar keltirsak:

“ Muborak boshida eklili zarrin,

Javohir birla topib zebu tazyin.

Oʻtogʻa afsari uzra kelib zar,

Shuoi mehr yangligʻ jilvagoʻstar.

Jabinida xalofat nuri paydo,

Yuzida saltanat rangi huvaydo”²¹³

Misralarda keltirilgan *jabin* soʻziga qarasak:

Jabin – fors tilidan olingan boʻlib, manglay, peshona²¹⁴ maʼnolarini beradi.

²¹¹ Abbosali V. , Avazmetov Sh. Oʻzbek tiliga oʻzlashgan forscha soʻzlar. Tehron – Toshkent. “Al - Hudo” xalqaro nashriyoti va “ Movatounnahr” nashriyoti, 2005-y. 129-bet.

²¹² Oʻzbek tilining izohli lugʻati – Moskva “Rus tili” nashriyoti, 1981-y. 445-bet.

²¹³ Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2010. 33-bet.

Asarda peshona soʻzini ifodalash uchun boshqa soʻzlar ham keltirilgan, misol uchun:

Sokini avrangi falakjohligʻ

Forisi maydoni jahonshohligʻ.

Nosiyayi kufrga qoʻygʻuvchi dogʻ

Yoqgʻuvchi din anjumanigʻa chirogʻ²¹⁵.

Nosiya – bu soʻz esa arab tilidan olingan. Ushbu asara peshona maʼnosini ifodalab kelgan.

Ushbu asarning yana bir oʻrnida *jibha* soʻzi qoʻllanilgan:

“ Arbobi aql va ahli tamizning zamoiri zibasoirigʻa maʼlumdurkim, osori qahri ilahiy Chingizxonning *jibhasida* zohirdur va gʻazabi nomutanohiy bohir, andoqkim, qilgʻon ishlari mazkur boʻldi²¹⁶ ”.

Jibha soʻzi peshona maʼnosini beruvchi forscha soʻzdir.

Ushbu bobda asarda qoʻllanilgan oʻzlashma soʻzlar shakl va maʼno munosabatiga koʻra tahlil qilib berilgan.

²¹⁴ Oʻzbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lugʻat. Toshkent, 1953-yil. 103-bet.

²¹⁵ Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2010. 36-bet.

²¹⁶ Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2010. 72-bet.

UMUMIY XULOSALAR

1. Ijtimoiy-siyosiy leksika biror xalqning jahon ijtimoiy-siyosiy sahnasida tutgan tarixiy o`rnini belgilash uchun muhim ilmiy faktlar bera oladi.

2. O`zbek xalqining katta bir qismi tarixi aslicha bayon qilingan Munis va Ogahiyning tarixiy asarini lingvistik tadqiq etish, birinchi navbatda ulardagi ijtimoiy-siyosiy leksikani lingvistika va tarix fani materiallari asosida puxta o`rganishni talab qiladi.

3. Asardagi tashqi manba so`zlarining temantik guruhlari tasnifida tadqiqot ob`ekti materiallari, tadqiqot ob`ektida bayon qilingan davr yoki asar voqealarida bayon qilingan hududning harbiy ish terminlari tizimi, davlat boshqaruvi terminlari, mavhum ma`nolarni ifodalovchi leksik birliklarga alohida e`tibor qaratilgan.

4. Ijtimoiy-siyosiy leksikaga mansub ayrim so`zlar ochib berilgan.

5. Ijtimoiy-siyosiy leksika tizimida o`zlashma qatlamga mansub so`zlar o`z qatlamga mansub ijtimoiy-siyosiy leksikaga nisbatan kam emasligini ko`rish mumkin.

6. Asaridagi diniy terminlar, ilm-fan, san`at terminlari, maishiy leksika, savdo-moliya terminlari, diplomatiya terminlari tizimi tahlil qilib ochib berilgan.

7. Tashqi manba so`zlarining shakl va ma`no munosabatiga ko`ra turlar ochib berilgan.

8. Sinonim, omonim va antonim so`zlar tahlili berilgan.

9. Sinonimik va antonimik qatorlar paradigmasi keltirilgan.

10. Tahlil qilingan so`zlarning ayrimlarini sinxron jihatdan ma`noli qismlarga ajratish mumkin. Ular, asosan, arabcha+forscha, forscha+forscha va forscha+turkiy tarzida hosil qilinganligi kuzatildi.

11. Arab, fors tili lug`aviy qatlamiga mansub so`zlarning ham aksariyati yasama bo`lib, ko`pchiligi uch undoshli solim fe'llarning turli qoliplarida hosil qilingan. Shu bilan birga noto`g`ri fe'llar asosida yuzaga kelgan so`zlar ham ma`lum miqdorda ishlatilgan.

12. Tarixiy asarlar leksikasi tadqiqi tegishli davr tilidagi o`z va o`zlashma qatlamning salmog`ini aniqlashga, tillarning o`zaro ta`sir doirasini belgilashga, uni yuzaga keltiruvchi omillarni ko`rsatib berishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonuni “Barkamol avlod- O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” T., “Sharq” 1997 yil. 20-29 betlar
2. Karimov I.A. Xiva shahrining 2500 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so‘zi // Xalq so‘zi. – Toshkent, 1997 yil. – 21 oktabr.
3. Karimov I.A. «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin»-T., O‘zbekiston», 1994y 299 bet
4. Karimov I.A. «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» T. «Ma’naviyat» 2008 y. 173 bet
5. Karimov. I.A. «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» T., “O‘zbekiston” 1992y 78 bet
6. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – Toshkent: SHarq, 1998. – 31 b.
7. Firdavs ul-iqbol. Nashrga tayyorlovchilar: N.Jumaxo‘ja, S.Ro‘zimboyev, A.Ahmedov. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 384 b.
8. جامع الوقعات سلطاني. O‘zRFA SHI. Inv №9786. 310 varaq.
9. Abdullaev V. Alisher Navoiy an`analarining xorazmlik shoirlar tomonidan davom ettirilishiga doir // SHarq yulduzi. – 1959. – № 4. – B. 127-137.
10. Abdullaev F. O‘zbek tilining Xorazm shevalari. – Toshkent: O‘z FAN, 1961. – 346.
11. Abdurahmonov G., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: O‘qituvchi, 1981. – 167 b.
12. Abdushukurov B. “Qisasi Rabg‘uziy” leksikasi. –Toshkent: Akademiya, 2008. – 192 b.
13. Abulg‘ozi Bahodirxon. SHajarai turk. –Toshkent:Cho‘lpon.1992 y. – 192 b.

14. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. I-IV jildlar. –Toshkent: Fan, 1983-1985. I jild, 1983. – 656 b.; II jild, 1983 – 643 b.; III jild, 1984. – 624 b.; IV jild, 1985. – 636 b.
15. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Ilmiy tanqidiy matn. Tuzuvchi: S.G`anieva. – Toshkent, 1961.
16. Alisher Navoiy. Mukammad asarlar to'plami. 20 tomlik. 6-tom. –Toshkent: Fan, 1990. – 568 b.; 11-tom. – Toshkent: Fan. 1996. 640 b.; 3-tom. – Toshkent, 1989. – 616 b.; 7-tom. – Toshkent, 1991. – 392 b.; 8-tom. – Toshkent: Fan, 1991. – 541 b.; 12-tom. Toshkent: Fan, 1996. – 325 b.
17. Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. 3- tom / Nashrga tayyorlovchilar Oybek va P.Shamsiyev. –Toshkent: 1948. – 246 s.
18. Amir Temur. Temur tuzuklari. Forschadan A.Sog`uniy va H.Karomatov tarjimasi. – Toshkent, 1996.
19. Atoqli shoir, tarixnavis va tarjimon. – Toshkent: O`zbekiston, 1999.
20. Attuhfatuz zakiyatu fillug`atit turkiya. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.Mutallibov. – Toshkent: Fan, 1968. – 279 b.
21. Ahmedov A. Muhammad Rizo Ogahiyning forsiy merosi // O`zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1985. - №1. – B. 46-51.
22. Ahmedov B. *Tavochi* va *jarchi* terminlari haqida// O`zbek tili va adabiyoti. – 1973. – №4. –B. 73-76.
23. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. –Toshkent: O`qituvchi, 1994. – 432 b.
24. Bayoniy. Shajarai Xorazmshohiy // “Meros” turkumi. – Toshkent: Kamalak, 1991. – B.175-265.
25. Bafoyev B. Navoiy asarlari leksikasi. – Toshkent: Fan, 1983. – 160 b.
26. Bafoyev B. Ko`hna so`zlar tarixi. – Fan, 1991. – 152 b.
27. Begmatov E. Hozirgi o`zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985. – 200 b.
28. Vohidov Z. Ogahiy // O`zbek adabiyoti tarixidan. –Toshkent: O`zadabiy nashr, 1961. 266 b.

29. Dadaboyev H. Tarixiy harbiy terminlar lug'ati. –Toshkent: Universitet, 2003.
30. Dadaboyev H. Ko'k turk xoqonligida harbiy qurilish // Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, 2000. №2. – B. 29.
31. Dadaboyev H. Ogahiy tarixiy asarlaridagi ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimi xususida // O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari (Ilmiy maqolalar to'plami) №3. – Toshkent, 2009. –B. 21-24.
32. Dadaboyev H. Ogahiy tili bilimdoni // Ma'rifat fidoyisi. (Subutoy Dolimov tavalludining 100 yilligi munosabati bilan) – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – B.181-183.
33. Dadaboyev H., Hamidov Z., Xolmanova Z. O'zbek adabiy tili leksikasi tarixi. – Toshkent: Fan, 2007. – 156 b.
34. Dolimov S. Ogahiyning hayoti va ijodi. Filol. fanlari. nomzodi...dis. avtoref. –Toshkent, 1963.
35. Dolimov S. Ogahiy poeziyasida omonim va sinonim so'zlar // O'qituvchilar gazetasi. 1957. №51.
36. Do'simov Z. Ogahiyning “Zubdatut-tavorix” asarining leksik-grammatik xususiyatlari haqida // Ogahiy abadiyati. –Toshkent: O'zbekiston, 1999. – B. 37-41.
37. Do'simov Z. Xorazm toponimlari. – Toshkent: Fan, 1985. –104 b.
38. Jumaniyozova M. Xorazm xalq qo'shiqlari leksikasi: Filol. fanlari nomzodi ... diss. – Toshkent, 1999. – 170 b. (Lug'at bilan).
39. Jo'rayev B. “Bosh” so'zining ma'nolari // O'zbek tili va adabiyoti. – 1982. – №3. – B. 46-49.
40. Zaboni adabii hozirai to'chik. – Dushanbe: Irfon, 1973. – 341s.
41. Zamaxshariy M. Muqaddimat ul-adab. Fe'llar bobi. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi Z.Islomov. – Toshkent: Islom universiteti nashriyoti, 2002. So'z boshi – B. 3-10. Lug'at qismi 886 b.
42. Ibragimova A. “Kelurnoma” lug'atining leksikasiga oid kuzatishlar // O'zbek tili tarixi masalalari. – Toshkent: Fan, 1977. – B. 108-125.

43. Ibrohimov A. Bobur asarlaridagi o`zlashma leksikaning statistik, semantik hamda etimologik tahlili: Filol. fanlari d-ri dis... avtoref. – Toshkent, 2008. – 52 b.
44. Ibrohimov N. YUsupov M. Arab tili grammatikasi. Birinchi tom. – Toshkent: O`zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997. – 456 b.
45. Ibrohimov S., SHamsiev P. Navoiy asarlari uchun lug`at. –Toshkent: G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1972. – 782 b.
46. Islam. Entsiklopedicheskiy slovar. – Moskva: Glavnaya redaktsiya vostochnoy literatury, 1991. –S.172.
47. Ismoil Mirpanjiy. Asirlikdagi xotiralar / Fors tilidan N.Hasanov tarjimasi. – Urganch: Xorazm, 1997. – 64 b.
48. Is`hoqov F. “Boburnoma” uchun qisqacha lug`at. – Andijon: 2008.
49. Yo`ldoshev M. Xiva xonligida feodal er egaligi va davlat boshqaruvi. – Toshkent: O`z FAN, 1957.
50. Yo`ldoshev R. Ogahiy poeziyasida “ov” mazmun maydoni // Ilm sarchashmalari, 2005, 4-son. – B. 78-82..
51. Yo`ldoshev R. Ogahiy poeziyasida antonimlar // Ilm sarchashmalari. – Urganch, 2005. - №1. – B.52–55.
52. Komilov N. SHoir va tarjimon Muhammad Rizo Ogahiyning badiiy mahorati: Filol. fanlari nomzodi ... diss. – Toshkent, 1970.
53. Koshg`ariy M. Devonu lug`otit turk. I tom. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.Mutallibov. – Toshkent: O`zFAN, 1960. – 499 b.
54. Koshg`ariy M. Devonu lug`otit turk. II tom. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.Mutallibov. – Toshkent: O`zFAN, 1961. – 427 b.
55. Koshg`ariy M. Devonu lug`otit turk. III tom. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.Mutallibov. – Toshkent: O`zFAN, 1963. – 466 b.
56. Koshifiy Husayn Voiz. Futuvvatnomai sultoniyy. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1994.
57. Madrahimov O. O`zbek tili o`g`uz lahjasining qisqacha qiyosiy lug`ati. – Urganch: Xorazm, 1999.

58. Madrahimov O. O'zbek tilining o'g'uz lahjasi leksikasi. – Toshkent: Fan, 1973. – 192 b.
59. Majidiy R. Ogahiy lirikasi: Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – Toshkent, 1961. – 22 b.
60. Malov S.E. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti. M.-L., 1951.– 452 s.
61. Matgaziyev A. Issledovanie po morfologii starouzbekskogo yazyka (konets XVII – do semidesyatykh godov XIX v.) Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni doktora filologicheskix nauk. – Tashkent: 1979. 41 s.
62. Matg'oziyev A. XIX asr yozma yodgorliklarida qadimgi turkiy tilga xos elementlar// O'zbek tili va adabiyoti, – 1976. – №4. – B. 62-63.
63. Matg'oziyev A. Harbiy terminlar tarixiga doir // O'zbek tili va adabiyoti. – 1974. – №1. – B. 47-50.
64. Mahmud Zamaxshariy. Nozik iboralar. –Toshkent: Kamalak, 1994. – 80 b.
65. Mahmudov Q. A.K.Borovkov eski o'zbek tili lug'atlarining tadqiqotchisi sifatida // O'zbek tili tarixi masalalari. – Toshkent: Fan, 1977. – B. 177-182.
66. Muhammad Alixon G'afur. Xiva safari. Fors tilidan I.Bekchon tarjimasi. – Toshkent: Xalq merosi nashriyoti, 2005. – 73 b.
67. Muhammad Rizo Mirob Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Asarlar. 1jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1971. – 392 b.
68. Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. SHohidu-l-iqbol. Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va izohlar muallifi N.SHodmonov. – Toshkent: Muharrir, 2009. – 335 b.
69. Mo`minova A. O'zbek tilida mansab va unvon nomlarining leksik-semantik tahlili: Filol. fanlari nomzodi ... diss. –Toshkent, 2000. – 155 b.
70. Nazarova X. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari uchun qisqacha lug'at. – Toshkent: 1972. – 190 b.
71. Ne`matov H. O'zbek tili tarixiy fonetikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 93 b.

- 72.Nosirov O., YUsupov M. An-na`im. Arabcha-o`zbekcha lug`at. –Toshkent, 2003. – 959 b.
- 73.Ogahiy abadiyati. Al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti, Xorazm Ma`mun akademiyasi. – Toshkent: O`zbekiston, 1999. – 152 b.
- 74.Ogahiy. Ishq ahlining tumori. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Meros, 1999.
- 75.Ogahiy. Ta`viz ul-oshiqin / Nashrga tayyorlovchi Xurshid. –Toshkent: O`zadabiynashr, 1960. – 648 b.
- 76.Rahmatullayev SH. O`zbek tilining etimologik lug`ati. Birinchi tom. – Toshkent: Universitet, 2000. – 600 b.
- 77.Rahmatullayev SH. O`zbek tilining etimologik lug`ati. Ikkinchi tom. – Toshkent: Universitet, 2003. – 600 b.
- 78.Rahmatullayev SH., Mirtojiev M., Qodirov M. O`zbek tilining qisqacha etimologik lug`ati. Birinchi qism –Toshkent: Universitet, 1997.
- 79.Rona-Tash A. Общее наследие или заимствования? // Вопросы языкознания. 1974. №2. – S. 31-45.
- 80.Rustamiy M. Lug`aviy shakldoshlik va uning turlariga doir // O`zbek tili va adabiyoti. – 1994. - №1-2. – B. 28–34.
- 81.Rustamov A. So`z xususida so`z. – Toshkent: YOsh gvardiya, 1987. y – 155 b.
- 82.Toshmatova N. Kul tegin bitiktoshi leksikasining mavzuiy guruhlar bo`yicha tahlili // Adabiyot ko`zgusi. – Toshkent, 2000. - №6. – 92-99.
- 83.Tursunova O. Umumturkiy tarixiy-huquqiy atamalarining semantik xususiyatlari. // O`zbek tili va adabiyoti, 2006. № 5. – B.93.
- 84.Usmonov S. O`zbek tilining lug`at sostavida tojikcha-forscha va arabcha so`zlar // Navoiyga armug`on. Toshkent:1968. – B.109-120.
- 85.Xolmanova Z. “Boburnoma” leksikasi. – Toshkent: Fan, 2007. – 176 b.
- 86.Choriev Z. Tarix atamalarining izohli lug`ati. – Toshkent: Sharq, 1999.
- 87.Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. Tarjimon va nashrga tayyorlovchilar: I.Haqqul va A.Bektosh. – Toshkent: Movarounnahr, 2004. – 263 b.

88. Shoabdurahmonov Sh. O`zbek adabiy tili va o`zbek xalq shevalari. – Toshkent: Fan, 1962.
89. Yusuf B. Turkcha-o`zbekcha va o`zbekcha turkcha lug`at. – Toshkent: O`zbekiston, 1993. – 415.
90. O`zbek tili leksikasida arabcha so`zlar // Hozirgi zamon o`zbek tili. Leksikografiya. Fonetika. Grafika va Orfografiya. Morfologiya. Faxri Kamol tahriri ostida. – Toshkent: O`zFAN, 1957. – B.99-101.
91. O`zbek tilidagi arabcha va forscha so`zlar lug`ati. – Toshkent: O`qituvchi, 1996.
92. O`zbek tilining izohli lug`ati. 1-tom. – Toshkent: O`zbek milliy entsiklopediyasi, 2006. – 680 b.
93. O`zbek tilining izohli lug`ati. 2-tom. – Toshkent: O`zbek milliy entsiklopediyasi, 2006. – 688 b.
94. O`zbek tilining izohli lug`ati. 4-tom. – Toshkent: O`zbek milliy entsiklopediyasi, 2008. – 602 b.
95. O`zbek tilining izohli lug`ati. 5-tom. – Toshkent: O`zbek milliy entsiklopediyasi, 2008. – 592 b.
96. Qayumov A. Muhammad Rizo Ogahiy // Qizil O`zbekiston. – Toshkent, 1959. 14 sentabr.
97. Qur`oni Karim ma`nolarining tarjimasi. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2001. – 617 b.
98. G`anixo`jaev F. “Ta`viz-ul-oshiqin” devoni va uning ilmiy-tanqidiy matni: Filol. fanlari doktori...dis. avtoref. – Toshkent, 1998.
99. G`afurov O. Asma al-husna yoki tabarruk ismlar. I qism. – Toshkent: 1998. – 67 b.
100. G`afurov O. Asma ul-husna yoxud tabarruk ismlar. II qism. – Toshkent: 1998. – 67 b.
101. Hasanov B. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug`at. – Toshkent: Fan, 1993. – 324 b.

102. XV-XIX asrlar o'zbek tili morfologiyasi. –Toshkent, 1990. – 254 b.
103. اوستا. مترجم جليل دوستخواه. تهران. مرواريد. ۱۹۹۱. ۱۱۲۶. ص

Internet saytlar:

1. www.newseducation.ru
2. www.ziyonet.uz.
3. www.metodiki.ru
5. www.ta'lim.uz
6. www.school.edu.ru.
7. [www.inter – pedagogika.ru](http://www.inter-pedagogika.ru).
8. www.obrozavaniye.ru
9. www.wings.ru
10. www.ppf.uni.udm.ru
11. www.search.re.uz - O'zbekistonning axborotlarni izlab topish tizimi.
12. www.ref.uz. - Referatlar to'plami
13. www.ziyonet.uz.
14. www.Google.uz